

NEXIA

**Avtomobildan
foydalanish qo'llanmasi**

ALBATTA FAQAT OKTAN SONI 91 BO'LGAN ETILLASHTIRILMAGAN YONILG'I FOYDALANING!



Ushbu avtomobilning dvigateli avtomobilarni ishlab chiqish sohasida oxirgi yutuqlarga muvofiq loyihalashtirilgan va yasalgan.

Bu tejamkor, texnik takomillashtirilgan va atrof muhitni muhofaza qilish talablariga javob beradigan modeldir.

Dvigatelning tegishlicha ishlashi uchun faqat oktan soni 91 dan kam bo'limgan etillashtirilmagan yuqori sifatli yonilg'idan foydalanish lozim.

«AVTOMOBILNI BOSHQARISH - Yonilg'i» (3-4 bet) bobiga qarang.

Yonilg'ining boshqa turlarini ishlatilish avtomobilning foydalanish xususiyatlarining yomonlashuviga olib kelishi va kafolatning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin!

SO'Z BOSHI

Mazkur Qo'llanma avtomobil egasini «UzAuto MOTORS» AJ da ishlab chiqarilgan avtomobilning tuzilishi, ishlashi va unga texnik xizmat ko'rsatilishi bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma avtombildan xavfsiz va uzoq muddatli foydalanish qoidalari haqidagi muhim axborotni o'z ichiga oladi. Biz Sizga mazkur Qo'llanmani diqat bilan o'rganib chiqib, unda keltirilgan barcha tavsiyalarga amal qilishni qat'iy ravishda maslahat qilamiz. Chunki bu umuman avtomobilning, uning agregatlari va tizimlarining butun xizmat qilish muddati davomida xavfsiz, ishonchli xizmat qilishini ta'minlaydi.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalariga murojaat qilishni tavsiya etamiz, ularning malakali xodimlari va texnologik jihoz-uskunalarini barcha texnik xizmat ko'rsatish amallarining tegishli darajada bajarilishini ta'minlay oladi. «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalarida Siz o'zingizga va avtombolingizga o'ta e'tiborli va qiziquvchan munosabatning guvohi bo'lasiz.

Shuningdek, paytdan foydalanib, tanlovingiz uchuni minnatdorchilik bildiramiz. «UzAuto MOTORS» AJ keyinchalik ham tanlovingizn oqlash uchun nimaiki mumkin bo'lsa, barcha ishlarni bajarishga intiladi.

Mazkur Qo'llanmani avtomobilning ichida, agar unga zarurat tug'iladigan bo'lsa, u doimo qo'lingiz yonida bo'ladigan qilib saqlashni tasiya etamiz. Avtomobilni sotgan holda Qo'llanmani uning yangi egasiga berishni unutmang!



AVTOMOBIL EGASINING DIQQATIGA

Avtomobildan foydalanishni boshlashdan avval mazkur Qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va uning barcha tavsiyalariga qat'iy ravishda amal qiling.

Avtomobilning egasi uchun eng muhim axborotni ajratib ko'rsatish uchun Qo'llanmada og'ma harflar bilan yozilgan **DIQQAT, OGHLANTIRISH** va **XAVFLI** maxsus so'zlari ishlataladi.

⚠ DIQQAT!

Yo'l-yo'riqlar va ogohlantirishlar Sizga har xil turdag'i jarohatlarni olish xavf-xatarini kamaytirish yoki ehtimolining oldini olish imkonini beradi. Jarohatlanishga (shu jumladan yo'lovchilar jarohatlanishiga) yo'l qo'ymaslik uchun albatta avtomobiliga texnik xizmat ko'rsatishda xavfsizlik qoidalariга amal qiling!

⚠ OGHLANTIRISH!

Ushbu xabarlar ba'zi texnik xizmat ko'rsatish amallarini bajarishning o'ziga xos xususiyatlariiga, nosozliklarni bartaraf etish usullariga, to'g'ri yo'llariga va hokazolarga tegishli bo'ladi.

Bu tavsiyalarga amal qilish. Sizga avtomobil shikastlanishi va ishdan chiqishining oldini olishga yordam beradi.

ESLATMA

Ushbu xabarda o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan jarohatlarni olish xavfi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumot bor.

Ushbu ogohlantirishga e'tibor bermaslik insonning hayoti uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Ushbu axborotga alohida e'tibor bering va Sizning xavfsizligingiz choralariga oid eng muhim ma'lumotlarni eslab qolishga harakat qiling.

Avtomobildan foydalanish va uning tuzilishiga oid Qo'llanma nashr etilgan paytiga kelib avtomobilning konstruksiyasiga kiritilgan barcha oxirgi o'zgarishlar va takomillashtirishlarni hisobga o'lgan holda tayyorlangan.

«UzAuto MOTORS» AJ ishlab chiqariladigan avtomobilarning konstruksiyasiga yoki texnik xususiyatlariiga avvaldan ogohlantirmagan holda o'zgartirishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bir qator hollarda avtomobil ba'zi davlatlarda amal qiladigan standartlarga va qoidalarga mos kelmasligi mumkin.

Avtomobilni ro'yxatdan o'tkazishdan avval, uning mahalliy me'yorlar va qoidalarning tabalbariga to'liq mos kelishiga ishonch hosil qiling. Zarur bo'lganda avtomobilni ushbu tabalbarg'a mos holga keltiring. Ushbu ishlar yuzasidan «UzAuto MOTORS» AJ ning dileri bilan maslahatlashing.

Mazkur kitobda xaridorning maxsus buyurtmasiga ko'ra o'rnatiladigan qo'shimcha jihoz-uskunalar va «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan Qo'llanma nashr etilgan sanasiga kelib, taklif etiladigan avtomobil salonining jihozlanishi ta'riflanadi. Shuning uchun Sizning avtomobilingizda bu yerda tilga olingan qo'shimcha jihoz-uskunalar yoki salon jihozlanishining ba'zi jihatlari bo'lmasligi mumkin. Avtomobilda radio va orqa ko'rish kamerasi bo'lmasligi mumkin. Zarur bo'lganda «UzAuto MOTORS» AJ ning dileriga taklif etiladigan qo'shimcha jihoz-uskunalar hamda salonning jihozlanishi va pardozlanishi darajasi yuzasidan to'liq axborot olish uchun murojaat qiling.

Shuni ko'zda tutish lozimki, boshqa firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan va belgilab berilgan sinovlardan o'tmagani ehtiyoj qismlari va anjomlar avtomobilimizda qo'llanishi mumkin emas.

«UzAuto MOTORS» AJ tavsiya etilgan moslamalardan farq qiluvchi ehtiyoj qismlari va moslamalarning qo'llanishi tufayli yuzaga kelgan avtomobilning har qanday shikastlanishlari uchun javobgar bo'lmaydi.

Ma'lum betlarga havolalar deb belgilanadi.

«**AVTOMOBILNI BOSHQARISH - YOQILG'I**» (3-4 bet) bo'limidagi ishlataladigan yonilg'ining turiga alohida e'tibor bering (8-13 beti).

MUNDARIJA

1. Avtomobil o'rindiqlari va passiv xavfsizlik tizimlari	1-1
2. Asboblar va boshqarish organlari	2-1
3. Avtomobilni boshqarish	3-1
4. Mikroiqlimni boshqarish	4-1
5. Axborot-ko'ngil ochar tizimi	5-1
6. Avtomobilni haydash va boshqarish	6-1
7. Servis ishlari va avtomobilga xizmat ko'rsatish	7-1
8. Texnik xizmat ko'rsatish	8-1
9. Texnik ma'lumot	9-1

1

AVTOMOBIL O'RINDIQLARI VA PASSIV XAVFSIZLIK TIZIMLARI

-
- XAVFSIZLIK KAMARLARI 1-2
 - UCHTA NUQTADA MAXKAMLANADIGAN
XAVFSIZLIK KAMARLARI 1-5
 - BOLALAR XAVFSIZLIK KRESLOLARI 1-8
 - BOSH TIRAGICHALAR 1-13
 - O'RINDIQLAR 1-14
 - XAVFSIZLIK YOSTIQLARI 1-16

1-2 AVTOMOBIL O'RINDIQLARI VA PASSIV XAVFSIZLIK TIZIMLARI

XAVFSIZLIK KAMARLARI

Ko'p yillar mobaynida haydovchilar va yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ilmiy-izlanishlar va amaliy konstrukturlik ishlarning davlat va korporativ loyihihari olib borilib e'tibor qaratilmoqda. Avariylar sodir bo'lganda, aynan, haydovchilar va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlaydigan avtomobilning ikkita komponenti – bu har bir o'rindiqa ko'zda tutiladigan xavfsizlik kamarlari va haydovchi va oldi o'rindiqa o'tirgan yo'lovchi uchun mo'ljallangan qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimlari bo'lmish–xavfsizlik yostiqlari. Xavfsizlik kamarlari haydovchi va yo'lovchilarning xavfsizligini faqat taqilgan holatda ta'minlashi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari – bu qo'shimcha himoya vositasi bo'lib, faqat xavfsizlik kamarlari taqilib turgan holatda samarali bo'ladi.

Xavfsizlik kamarlarlarining ishlashi qanday?

Xavfsizlik kamarlari quyidagi funksiyalarni bajaradilar:

1. To'qnashuvlar sodir bo'lganda haydovchi va yo'lovchilarni saqlab turadi.
2. Chozilish xususiyati evaziga xavfsizlik kamarlari urilishlarda inversion siljishni sekinlashtiradi va avtomobilning oldingi qismi to'qnashish energiyasini o'ziga olayotgan jarayonda konstruksiya elementlarini deformatsiyasi yo'il bilan odam tanasini oldinga siljishini qisqartiradilar.

3. Urilishlarda haydovchilar gavdasining turishini fiksatsiya qiladilar, bu esa ma'lum bir, yo'llarda sodir bo'ladiqan favqulodda vaziyatlarda haydovchilarga avtomobil ustidan boshqarishni tiklab olish imkonini beradi.
4. Haydovchi va boshqa yo'lovchilarga shikast yetkazilishini oldini olish maqsadida yo'lovchilarning o'z o'rinnaridan otilib ketishlariga yo'l qo'ymadilar.

⚠ DIQQAT!

- Faqatgina xavfsizlik kamarlari o'zlarini avtomobil avariyalarda shikast olish va o'lim holatlarini oldini oluvchi soda va samarali xavfsizlik vositasi sifatida tavsiya etdilar!
- Avtomobil egasi va haydovchi sifatida siz barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamaralarini to'g'ri taqg'anlariga ishonch xosil qilishingiz lozim.
- Xomilador ayollar, shikast olgan va jismoniy kamchiliklarga ega odamlar ham xavfsizlik kamarlarini taqishlari lozim. Bu talablarga riyo qilmagan holatda ushbu yo'lovchilar avariyalarda halok bo'lishga va og'ir shikastlanishga ko'proq duchor bo'ladi.
- Kelgusida tug'iladigan bolani himoya qilishning eng yaxshi usuli - bu xomilador ayolning xavfsizligini ta'minlashdir.
- Ushbu bobda xavfsizlik kamarlarining ishlash tamoyillari va ularni ishlatalish tartibi, shuningdek o'rindiqlarni boshqarishni

⚠ DIQQAT!

tavsiflari keltirilgan. Barcha keltirilgan ma'lumotlarni o'qib chiqing va avtomobil xavfsizlik tizimlarining barcha imkoniyatlarini ishga soling, ishni ta'minlash uchun albatta ushbu yo'rinqoma va ogohlantirishlarga roya qiling.

Xavfsizlik kamarlarining ishlash prinsiplari

Faqatkina to'g'ri taqilgan xavfsizlik kamarlari himoyani ta'minlashlari mumkin. Odam tanasiga ma'lum bir darajadan yuqori bo'lgan kuchli ta'sir o'tkazish natijasida avtomobilda o'tirgan odamlar shikast olishlari mumkin. Avtomobilning tezlik darajasi keskin pasaytirilgan taqdirda odam tanasiga sezilarli darajada kuchlik ta'sir o'tkaziladi va odam tanasining oldinga siljishining sekinlashishi ta'minlanganida, buni sezilarli darajada pasaytirish mumkin. Shu tariqa, urilishlarda odamni shikast olishidan himoya qilishda, asosiy vazifa bu korpusning oldinga silishi to'xtaguniga qadar vaqt va masofaning maksimalligini ta'minlashdir.

Ko'z oldimizga soatiga 25 km tezlik bilan yugurib kelayotib betondan bo'lgan devorga urilgan odamni keltiraylik. Hamda ko'z oldimizga soatiga 25 km tezlik bilan yugurib kelayotgan va qalinligi 90 sm bo'lgan deformatsiya bo'ladiqan qistirma bilan qoplangan beton bilan to'qnashgan ikkinchi

odamni tasavvur qilaylik. Birinchi holatda odam og'ir shikastlanishi yoki halok bo'lishi mumkin. Ikkinci holatda esa odamga hech qanday shikast yetmaydi. Nima sababdan? Birinchi holatda odam tanasi egilmaydigan beton yuza bilan to'qnashadi va birdaniga to'xtab qoladi. Yugarish jarayonida to'plangan barcha energiya qattiq beton yuzaga emas, balki odam tanasiga singadi. Ikkinci holatda tana xuddi birinchi holatdagi tana kabi kinetik energiyaga egadir. Lekin, ushbu holatda tana yumshoq qoplamlar tufayli oldinga siljiydi, va bunda odam tanasining to'xtalishi uchun qoshimcha vaqt va masofa, yumshoq qoplamlar deformatsiyasi yuz berganda yugurib kelayotgan odam energiyasi qoplamlar tomonidan yutilgani hisobiga ta'minlanadi.

Avtomobil soatiga 50 km tezlikda beton devor bilan urilganda uning bamperi bir onda to'xtaydi, saloni esa avtomobil karkasining oldingi elementlari hisobiga sekinroq to'xtaydi.

Xavfsizlik kamarini taggan odam o'z joyida qolib, avtomobilning oldingi qismi deformatsiyasi va xavfsizlik kamarlarini cho'zilganligi hisobiga vujudga keladigan «qoplama» himoyasi ostida bo'ladi. Odam tanasi tezligining soatiga 50 km dan nolgacha pasayishi 90-120 sm siljiganda amalga oshishi mumkin. Bundan tashqari kamari taqilgan odam joyida qoladi, shuning uchun ham, agar frontal urilishlarda xavfsizlik yostiqlari ishga tushgan taqdirda, avtomobilning qattiq elementlari bilan urilishlardan qutilib qolish

imkonni paydo bo'ladi. Xavfsizlik kamarini taqmagagan odamda bunday imkoniyat bo'lmaydi. Uning avtomobilida gavdasining holati maxkamlanmagan, shuning uchun ham tana soatiga 50 km tezlikda ma'lumbir qattiq obyekt bilan to'qnashmagunga qadar, ushbu to'qnashuv yuz bermagunidan oldin bo'lgan, soatiga 50 km tezlik bilan oldinga siljishni davom ettridi. Shu tariqa, agar frontal urilish yuz berib, xavfsizlik yostiqlari yoyilgan/ishga tushgan taqdirda ham oldinda o'tirgan xavfsizlik kamari taqilgan yo'lovchiga qaraganda xavfsizlik kamari taqilmagan yo'lovchining og'ir shikast olishga duchor kelishi yuqoriroq darajada bo'ladi.

(«QO'SHIMCHA PASSIV XAVFSIZLIK TIZIMI» bo'limini ko'ring).

⚠ OGohlantirish!

Xavfsizlik kamarlari himoyani ta'minlaydilar.

Avtomobil avariylar statistikasi shuni ko'rsatadi, xavfsizlik kamarlarini to'g'ri taqmagagan haydovchi va yo'lovchilarning avariyalarda shikast olishlari xavfi pastroq darajada bo'lib va tirik qolishning yuqoriroq imkoniyatiga egadirlar. Shuning uchun ham ko'pchilik mamlakatlaring qonunchiligidagi avtomobilni ekspluatatsiya qilish davrida xavfsizlik kamarlari taqilishi talab qilingan.

⚠ OGohlantirish!

Xavfsizlik kamarlarini ishlatish

Avtomobilarning barcha o'rindiqlari uchta nuqtada maxkamlanadigan xavfsizlik kamarlari bilan jixozlangan. Oldindagi o'rindiqlar va orqa tomonning, yon taraflaridagi o'rindiqlarining xavfsizlik kamarlar inertsiyon g'altakning mexanizmi orqali tortilishi mumkin va maxkamlanadi. Normal taqilgan holatda uchta nuqtada maxkamlanadigan xavfsizlik kamarlarining uzunligini o'zgartirish/boshqarish talab qilinmaydi va avtomobil xarakati tezligi doimiy bo'lganda xarakat erkinligini ta'minlайдilar. Kutilmaganda yoki birdaniga to'xtash yoki tezlikni oshirish yoki sekinlashish yuz berganda xavfsizlik kamari, odam tanasining ushlab turilishini ta'minlash uchun avtomat ravishda blokirovka holatiga keladi. Himoyaning barcha imkoniyatlarini ishga solish va ulardan to'liq foydalanan maqsadida xavfsizlik kamari to'g'ri taqilgan bo'lishi lozim, odam esa quyidagi talablarga muvofiq to'g'ri holatni egallashi lozim:

- O'rindiq suyanchig'i vertikal holatda (urulish jarayonida xavfsizlik kamarining «ostiga sho'ng'ib kirib ketishni» yoki sirpanib tushushini va tananing nozik joylarini shikastlanishini oldini olish maqsadida eg'ilмаган bo'lishi lozim).
- Odam to'g'ri holatda o'tirgan bo'lishi lozim (kamarining belga va yelkaga oid qismlari

1-4 AVTOMOBIL O'RINDIQLARI VA PASSIV XAVFSIZLIK TIZIMLARI

⚠ OGohlantirish!

urilishlarda maksimal darajada ushlab turulishini ta'minlashi uchun va tananing yumshoq va nozik joylarining jarohat olish xavfini kamaytirish uchun bo'g'ilmagan holda o'tirish lozim).

- Qulflaydigan xalqa xavfsizlik kamarining Qulfiga xos chertki ovoz eshitilgan holda maxkam o'rnatilishi lozim (agarda xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lса, u hech qanday himoyani ta'minlay olimaydi; maxkamlanganlik darajasini tekshirish uchun xavfsizlik kamarining tortib ko'ring).

• Xavfsizlik kamarning bel qismi pastdan o'ralib tananing toz suyagi bilan son suyagi birikadigan qismini qamrab olgan/yopishib turgan bo'lishi lozim (qorin bo'shligi qismini emas, chunki xavfsizlik kamarining u joyda tortilib qo'yilishi, urilish yuz bergan taqdirda og'ir shikastlanishga olib kelishi mumkin, Ayniqsa bu xomilador ayollar uchun juda muhim).

• Kamarning yelka qismi avtomobil eshigiga yaqin bo'lgan yelkadan o'tib ko'krak qafasini o'rashi lozim (eshikdan uzoqdagi yelka tomonidan bo'yinni o'rab qo'l ostidan yoki orqa bo'ylab emas, urilish yuz berganda korpus ortiqcha oldinga surilib jarohat olishga olib kelmasligi uchun xavfsizlik kamari bo'sh holatda bo'lmasligi lozim).

- Tizzalar «to'gri oldinga» holatida (haydovchi tomonidagi buferlarni urilishi

⚠ OGohlantirish!

sodir bo'lganida xavfsizlik kamari ostiga «sho'ng'ib tushib ketishiga» to'sqinlik qila olishlari uchun).

- Shaxsiy xavfsizlik kamari (xavfsizlik kamari bitta odam uchun mo'ljallangan, shuning uchun ham bitta kamarni bir paytning o'zida bir nechta odam taqib olinishi to'qnashuv yuz berganda shikast yetkazilishining sababi bo'lishi mumkin)
- Bolalar o'rindiqlarida, bolalarning o'tirishi (to'qnashuv yuz berganda ortiqcha darajadagi zo'riqishlar vujudga keladi, shuning uchun ham kattalar bilan bitta kamar bilan bog'langan bolalarni ushlab qolish ularning qo'lidan kelmaydi).

• Haydovchi va barcha yo'lovchilar kamari taqib olib holatda o'tirishlari (kamari taqilmagan odamlar shikast olishlari va avtomobildagi boshqa odamlarning shikast olishlari) olib kelishlari mumkin, chunki to'qnashuv yuz berganda ularning o'tirish holatlari maxkamlanmagan bo'ladi).

• Xavfsizlik kamarlari o'ralgan bo'lmasligi lozim (o'ralib qolgan xavfsizlik kamarlari xarakat erkiniligiga ega emas va kerakli darajada ushlab turishni ta'minlamaydilar; zoriqishni bir maromda taqsimlash o'rningular tana sanchilib, shikast olish va halok bo'lish xavfini oshirishlari mumkin).

- Eshiklarni quflab qo'ying (to'qnashuv yuz berganida quflanmagan eshiklar tashqi

⚠ OGohlantirish!

to'qnashuv ta'siri ostida yoki avtomobildan otilib ketish natijasida shikast olish va halok bo'lish xavfini oshiradilar).

- Davriy tekshiruvlarni amalga oshirib turing (avtomobilni ekspluatasiya qilish paytda ma'lum davr ichida xavfsizlik kamarining belga oid qismi songa yopishib turgan/qamrab olib bo'lishi uchun bo'lishi qolishini va silib belga chiqib ketmasligini, yelka qismi esa yelkaning o'tasidan ko'krak qafasi orqali o'tganligini tekshirib turing. Kamarning to'gri holatda bo'lishi tananish yelka qismi va son suyak tizimi tomonidan kamardan tarqaydigan zo'riqishni o'ziga olishini ta'minlaydi, va shu bilan birga kamarning noto'gri holatda bo'lishi bo'yin va ko'krak qafasi bo'shligi organlarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin).
- Xavfsizlik kamari va tana qismlari orasida hech qanday qattiq va sinadigan narsalar bo'lmasligi lozim (kiyim va kiyim ustida sharikli ruchka, ko'zoynak va shu kabi narsalarining mavjudligi to'qnashuv yuz berganda og'ir darajadagi shikastlarga olib kelishi mumkin).

⚠ OGohlantirish!

Agarda xavfsizlik kamari tirsak qo'yich ostidan o'tkazilgan bo'lса (agarda u nazarda tutilgan bo'lса), unda to'qnashuv yuz bergan davrda xavfsizlik kamarining belga oid qismi

▲ OGOLANTIRISH!

tananing toz suyagi bilan son suyagi bog'lanadigan qismiga emas balki qorin bo'shligiga og'irliq kuchi bilan ta'sir ko'ssatadi.

- Xavfsizlik kamarlari tirsak qo'yigich ostidan o'tganligi doim nazoratingizda bo'lsin.

Ushbu talabaga riyoqlaslik to'qnashuv yuz berganda qatiq shikast olishga va xattoki halok bo'lishga olib kelishi mumkin.

Haydovchi va oldi taraf o'rindiqdagi yo'lovchi

Oldindagi o'rindiqlar boshqariladigan kreslo va bosh tiragich balandligi boshqariladigan suyanchiqlar bilan, uch nuqtada maxkamlanadigan/qulflanadigan xavfsizlik kamarlari va qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimlari bilan jixozlangan (xavfsizlik yostiqlari).

Orqadagi yo'lovchilar

Orqadagi ikkita yon taraf va bitta markazdag'i joydag'i o'rindiq uch nuqtada maxkamlanadigan/qulflanadigan xavfsizlik kamarlar bilan jixozlangan.

Yon tarafdag'i joylar bolalar kreslolarini maxkamlash uchun mo'ljallangan pastki tugunlar bilan jixozlangan. (Qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lish uchun «BOLALAR XAVFSIZLIK KRESLOLARINING MAXKAMLASH PASTKI TUGUNLARI VA MAXKAMLA NISH YUQORIDA BOG'LANILADIGAN TUGUNLAR»ni ko'ring.

UCH NUQTADA MAXKAMLANADIGAN/QULFLANADIGAN XAVFSIZLIK KAMARLARI

To'qnashuv yuz bergenida va keskin manevrlarni amalga oshirishda shikast olish xavfini pasaytirish uchun sizning avtomobilingiz uch nuqtada maxkamlanadigan/qulflanadigan xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan. Ikkala oldingi o'rindiqlar, orqa o'rindiqdagi ikkala tashqi o'rinaloylar va markazdag'i o'rinnoy belga mo'ljallangan diagonal xavfsizlik kamarlari bilan qurollangan.


Ushbu xavfsizlik kamarlari uchta nuqtada maxkamlanadi va kresloda to'gri holatda o'tirgan, xavfsizlik kamari taqilmagan haydovchi va yo'lovchilarning ushlanishini ta'minlaydi.

Uch nuqtada maxkamlanadigan/qulflanadigan va inversion g'altakka ega xavfsizlik kamarlari uzunliklarini o'zgartirilishini/ boshqarilishini talab qilmaydi va avtomobil xarakat tezligi doimiy bo'lganda xarakatlanish erkinligini ta'minlab beradilar.

Shunga qaramasdan, kutilmaganda birdan to'txash yoki tezlikni oshirish yoki sekinlashish yuz berganda xavfsizlik kamari, odam tanasining ushlab turilishini ta'minlash uchun avtomat ravishda blokirovka holatiga keladi. Albatta xavfsizlikga kerakli bo'lgan usulda:

1. Eshiklarni berkiting va qulflang.
2. O'rindiq suyanchigini vertikal holatga keltiring.
3. Xavfsizlik kamarini qulflaydigan xalqasini olib uni o'zingizdan, tortib o'tkazing. Xavfsizlik kamari buralib qolmaganiga ishonch xosil qiling. Tortiganda xavfsizlik kamari blokirovka

holatiga kelgan taqdirda unga galtak ichiga tortilish/kirish imkonini bering. Xavfsizlik kamarini yani kerakli bo'lgan, zinch yopishib turishini ta'minlaydigan uzunlikka torting.



S3W1061A

4. Yelka kamari - yelka o'tasidan va ko'krak qafasi ustidan o'tkazilishi lozim. Yelka kamari hech qachon bo'yinni ilintirib, o'rab olishi mumkin emas. To'qnashuv yuz organ taqdirda ushbu kamarning to'gri holatda bo'lishi og'irliqni yelkaga taqsimlanishini ta'minlaydi va qovurg'a va bo'yingga ta'sir o'tkazilishiga yo'l qo'ymasdan, ichki to'qima va organlarning og'ir shikast olishini oldini oladi.

5. Bel kamari pastdan o'tkazilgan bo'lib songa yopishib turgan bo'lishi va belga siljib ketmasligi lozim. To'qnashuv yuz bergen taqdirda ushbu kamarning to'gri holatda bo'lishi og'irlikni tananing toz suyagini son suyagi bilan bog'lanadigan qismiga taqsimlanishini ta'minlaydi va qorin bo'shlig'iga ta'sir

1-6 AVTOMOBIL O'RINDIQLARI VA PASSIV XAVFSIZLIK TIZIMLARI

o'tkazilishiga yo'l qo'ymasdan ichki to'qima va organlarning og'ir shikast olishini oldini oladi.


6. Qulflaydigan xalqani xavfsizlik kamarining qufiga xos chertki ovoz eshitilgan holda mexanizmni mahkamlang. Kamar o'zining qufiga biriktrilganiga ishonch xosil qiling. Qulfdagi ochish tugmachasi shunday holatda bo'lishi kerakki zaruriyat tug'ilgan vaqtida tezda ochish imkoniyatini yaratishi lozim.

7. Maxkamlanganlik darajasini tekshirish uchun xavfsizlik kamarini to'xtatadigan/stoporlaydigan xalqasini tortib ko'ring.

Xavfsizlik kamarini yechish uchun qulfdagi ochish tugmachasini bosing.

Kamar avtomat holatda tortiladi. Tortilayotganda kamarni ushlab turing, tuxtatacidan/stoporlaydigan xalqa salon yuzasiga shikast yetkazmasligi yoki odamlar shikast olishlarini oldini olish uchun.

S3W1062A



Xavfsizlik kamarlarini parvarishlash:


1. Barcha xavfsizlik kamarlarini, xos bo'lgan detallarni yoki tugunlarni vaqtı-vaqtı bilan tekshirib turing. Xavfsizlik kamarları, xos bo'lgan detallar yoki tugunlar buzilgan taqdirda ularنى TXK shaxobchalarida almashtiring. Vakolatlangan dilerga murojaat qilishingizni tavsisi etamiz.
2. Avariyalarda shikast olgan va cho'zilgan barcha kamarlarni va xos bo'lgan detallarni almashtirib turish lozim, garchi cho'zilganligi va shikast olganini vizual tarzda aniqlashni iloji bo'lmasa ham. Cho'zilgan kamar va shikast olgan detallar samarali himoya vositasi bo'la olmaydilar. Almashtirilganda faqatgina yangi kamarlar ishlatalishi lozim.
3. Avtomobil to'qnashuvi yuz bergandan so'ng biz xavfsizlik kamarlarining butun tugunini almashtirishni amalga oshirishni tavsiya etamiz. Agarda malakal mutaxassis xavfsizlik kamarları shikastlanganligi aniqlanmagan bo'lsa va ularning normal ishga yaroqli holatini tasdiqlasa unda ularni almashtirishni xojati yo'q. V a k o l a t l a n g a n d i l e r b i l a n maslahatlashishingizni tavsiya etamiz.
4. Xavfsizlik kamarlari va boshqa detallari shikast olgan avtomobilardan foydalanish xavf tug'diradi.

Orqadagi markaziy xavfsizlik kamari


Orqadagi markaziy xavfsizlik kamari tizimi inertsion xavfsizlik kamaridan, teshikli tukava, "CENTER" degan yozuv markirovka qilingan qizil knopkali ochadigan quifdan iborat. Orqadagi markaziy xavfsizlik kamarlarining quflari konstruksiysi qulflaydigan xalqalarni noto'gri o'rnatilishiga yo'l qo'yamadi.

Orqa o'rindiqning suyanchig'i vertikal holatda bo'lгandagina quflaydigan xalqani qufga ildiring. Qufllovchi xalqani faqat orqa o'rindiqning suyanchig'i yig'ishdan oldin chiqarib oling.

Orqadagi markaziy kamarni qistirishdan oldin xavfsizlik kamari uchidagi quflaydigan xalqa (1) qufga qistiring, va kamar buralib qolmasligini nazorat qilib boring. Kamarni qistirish uchun to'g'ri/ tik holatda, suyanchiqga tayanib o'trib oling, quflaydigan xalqani (A) o'zingizdan o'tkazing va (B) qufiga chertki chiqazib qistiring.




Kamarni yechish uchun (B) qulfidagi qizil tugmachani bosing, va kamar avtomat ravishda tortiladi.



Orqa o'rindiqli yig'ishda kalitni yoki mos keladigan ingichka asbobni kirgizing (1) va kamarni tortilishini kuting.

Orqa o'rindiqning suyanchig'ini vertikal holatga

o'nmatgandan so'ng xavfsizlik kamari uchidagi quflaydigan xalqa (1) qufga qistiring, va kamar buralib qolmasligini nazorat qilib boring.



G6W1003A

⚠ OGohlantirish!


To'qnashuv yuz berganda og'ir darajada shikast olish yoki halok bo'lish xavfini minimallashtirish uchun xavfsizlik kamarini albatta ikkala qufiga quflang.

Xavfsizlik kamarini balandligini boshqarish

Xarakatni boshlashdan oldin mos tartibga soluvchi yordamida xavfsizlik kamarini o'zingiz uchun qulay bo'lgan balandlikka o'rnatishing.

Shunday balandlikni tanlangki, kamarning yelka qismi markazlanishi ta'minlansin. Kamar odam va bo'ynidan ancha uzoq masofada

joylashgan, lekin yelkada tushib ketmasligi lozim. Yelka kamarining noto'gri joylashishi, uning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Kamarni pastga yoki yuqoriga siljitchish uchun, bo'shatish tugmasini bosib balandlik reguliyatorini kerakli holatga o'rnatting. Balandlik reguliyatorini bo'shatish tugmasini bosmasdan yuqoriga siljitchish mumkin.



S3W1071A

⚠ OGohlantirish!

Xavfsilik kamarining noto'gri boshqarilishi/ joylashushi, to'qnashuv sodir bo'lganida xavfsizlik kamarining samaradorligini pasayishiga olib keladi.

BOLALAR XAVFSIZLIK KRESLOLARI**⚠ OGohlantirish!**

Hech qanday vaziyatda noto'gri boshqarilgan/ joylashgan xavsizlik kamari bilan xarakatda bo'lmaning.

Shikast olishni oldini olish uchun quyidagi qoyidalarga qat'iy amal qiling:

- Xarakatni boshlashdan oldin xavfsizlik kamarining balandligini boshqarib oling/tartibga keltiring.
- Yelka kamari yelkaning ortasidan o'tgan bo'lishi lozim.
- Xavfsizlik kamarining qotirish tugenini maxkamlang.

Ushbu talabga ryoja qilmaslik to'qnashuv yuz berganda qattiq shikast olishga va xattoki halok bo'lishga olib kelishi mumkin.

Xavfsizlik kamarlarining xomilador ayollar tomonidan ishlatalishi

Xavfsizlik kamarlari barcha uchun mol'jallangan, shu qatorda xomilador ayollar uchun ham. To'qnashuv yuz bergenida, agarda xavfsizlik kamari taqilmagan bo'lsa, boshqalardan farqli o'laroq xomilador ayollar ko'proq og'ir shikastlar olishga moyildirlar. Bundan tashqari, to'g'ri taqilgan xavfsizlik kamari to'qnashuv yuz bergenida ayol xomilasining xavfsizligini ta'minlaydi.

Xavfsizlikning maksimal darajasini ta'minlash uchun xomilador ayol uch nuqtada maxkamlanadigan/qulflanadigan xavfsizlik

kamaridan foydalanishi lozim. Xomilador ayollarda kamarning belga oid qismi imkon boricha pastroqda bo'lishi lozim.

⚠ OGohlantirish!

Har xil o'lchamlardagi va konstruksiyalardagi bolalar xavfsizlik kreslolari taklif qilinmoqda. Salon va o'rindiq o'lchamlari va shakllariga qarab sizning avtomobiliingza faqat ma'lum turdagи bolalar xavfsizlik kreslolari to'g'ri kelishi mumkin.

Bolalar xavfsizlik kreslosining to'gri tanlanishi va talab darajasida avtomobiligizga o'rnatalishi uchun o'zingiz javobgardirsiz, va buning uchun unda xavfsizlik kamarlari va bolalar kreslolarni maxkamlash tizimlari ko'zda tutilgan.

Ushbu avtomobilda o'lchamlari to'g'ri kelmaydigan, bolalar xavfsizlik kreslolarni qo'llash, yoki avtomobilda kresloni noto'gri o'rnatish to'qnashuvni yuz bergan holatida bolaga va avtomobildagi qolgan odamlarga og'ir shikast yetkazilishiga olib kelishi mumkin.

Bolangiz uchun bolalar xavfsizlik kreslosini sotib olgach ishlab chiqaruvchining ushbu tizimni o'rnatish va ishlatalish bo'yicha yo'riqnomasini o'qib chiqing va qat'iy amal qiling. Bolaning xavfsizlik kreslesi – bolaning yoshiba, bo'yiga, vazniga mos kelishi va ma'lum bir avtomobilda maxkam o'rnatalishi lozim.

Har xil turdagи, turli yoshdagи bolalar uchun bo'y va vazni bo'yicha, avtomobilning xavfsizlik kamarlari tizimini to'g'ri/xavfsiz ishlata olmaydigan bolalar uchun xavfsizlik kreslolari ishlab chiqarilmoqda.

▲ OGohlantirish!

Sizning avtomobilingizda orqa o'rindiqning yon taraflaridagi joylarda universal bolalar xavfsizlik kreslolari o'rnatalishi ko'zda tutilgan.

- Universal bolalar xavfsizlik kreslolarni oldinda o'tiradigan yo'lovchilar joyiga va/yoki orqa o'rindiqning markaziy joyiga o'rnatish taqiqlanadi.

Avtomobil avariylar statistikasi shuni ko'ssatadiki bolalar uchun ko'proq oldingi emas, balki orqadagi o'rindiqlar xavfsizdir. Bolalar xavfsizlik kreslolari to'g'ri kelmaydigan katta yoshdagи bolalar orqa o'rindiqdan joy egallashlar lozim, va xavfsizlik kamarnini taqib olishilar, va ushbu xavfsizlik kamarlarning yelka qismi iloji boricha bo'yindan uzoqroqda, bel qismi esa songa yopishgan bo'lub pastdan o'tkazilishi lozim.

Xavfsizlikni ta'minlab turgan kamarlarni joyidaligini vaqtiga-vaqtiga bilan tekshirib turing. Agarda bola oldidagi o'rindiqla o'tirgan bo'lsa, yelka kamar bolaning boshi va bo'yindan o'tkazilmaganligini tekshiring. Buning uchun esa bolani avtomobil o'rindig'ida o'taroqqa olish talab qilinadi, xavfsizlik kamari bolaning yelkasidan o'tkazilgan bo'lishi uchun.

Harakat jarayonida bolaga oyog'ida tik turishga yoki o'rindiqla va avtomobilning boshqa joylari tizzada o'tirishiga ruxsat bermang. Agarda bolalar kreslosi ishlatalmagan taqdirda uni xavfsizlik kamari bilan maxkamlab qo'ying yoki uni avtomobildan olib tashlang.

▲ OGohlantirish!

- Hech qachon harakat jarayonida bolani qo'lda ushlab o'tirmang. Go'daklar va kichik yoshdagи bolalar mos keladigan bolalar xavfsizlik kreslolardida o'tirishlari lozim.

- To'qnashuv sodir bo'lganida vujudga keladigan og'irliklar ta'siri ostida bolani ushlab qolishining iloji bo'lmaydi. Masalan, soatiga 40 km tezlikda to'qnashuv yuz beraganida 5,5 kgli boladan qo'llarga boradigan bosim 110 kggacha bo'lishi mumkin.

- Go'daklar va kichik yoshdagи bolalarga mos keladigan xavfsizlik kreslolaringning ishlatishda talablarga rioya qilmaslik to'qnashuv yuz beraganida shikast olishiga yoki halok bo'lishga olib kelishi mumkin.

- Yo'l xodisisasi statistikasi shuni ko'ssatadiki, bola oldi tarafida emas, balki orqa o'rindiqla to'g'ri joylashtirilgan bo'lsa, bu bola uchun xavfsizroq bo'ladi.

- Agarda avtomobil, mos keladigan xavfsizlik yon yostig'i bilan jixozlangan bo'lsa, unda bolalar xavfsizlik kreslolarni oldinda o'tiradigan yo'lovchilar joyiga o'rnatish taqiqlanadi. Yanada batafsilroq ma'lumot «XAVFSIZLIK YON YOSTIQLARI» bo'limida keltirilgan.

- Juda xavfli! Suyanchig'i yuza/oldi tarafiga o'rnatalidigan bolalar xavfsizlik kreslosini oldida xavfsizlik yostig'i ko'zda tutilgan o'rindiqla ishlatish/o'rnatish taqiqlanadi!

▲ OGohlantirish!

Suyanchig'i yuza/oldi tarafiga o'rnatalidigan bolalar xavfsizlik kreslosini faqtgina orqa o'rindiqla o'rnatating.



S3W1101A


Bolalar xavfsizlik kreslolaringning maxkamlash pastki tugunlari va mahkamlanish yuqorida bog'laniladigan tugunlar.

Oldinlari bolalar xavfsizlik kreslolari o'rindiqlarga xavfsizlik kamarlari bilan maxkamlangan.

Shuning uchun, ko'p holatlarda kreslolarni o'rnatalishi yoki mahkamlanishi noto'g'ri bo'lub, kerakli darajada bolalar xavfsizligi ta'minlanmagan.

Bizning avtomobilimizda orqa o'rindiqning ikkita yon tarafidagi joylari bolalar kreslolarni

maxkamlash uchun pastki tugunlari bagaj bo'limida mahkamlanish yuqorida bog'lanadigan tugunlar bilan jixozlangan bo'lib, ular kresloni avtomobil kuzoviga maxkamlanishini ta'minlaydilar.



Bolalar kreslosini o'rnatishda to'plamga pastgi va yuqorida bog'laniladigan maxkamlagichlar kiradi, kreslo ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasiga va ushbu qo'llanmada keyinchalik keltiriladigan «Pastki va yuqorida bog'lanadigan bolalar kresolarini o'rnatish» tartibiga rioya qiling.

Qo'llanmada keltirilgan yo'riqnomalarni albatta o'qib chiqing va ularga rioya qiling, va shuningdek ushbu bolalar kresolarini ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga.

Siz bolalar xafsizligi uchun javobgarsiz!



Bolalar xavfsizlik kreslolari va ularni o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan barcha savollar bilan kreslo ishlab chiqaruvchisiga murojaat qiling. Agarda sizda bolalar kreslosini avtomobilga o'rnatishda xali ham muammolar mavjud bo'lsa vakolatlangan dilerga murojaat qilishingizni tavsiya etamiz.

⚠ DIQQAT!

Ishlatilmaydigan bolalar kreslolari tizimi oldinga silishi mumkin.
Ishlatilmaydigan bolalar kreslosi tizimini avtomobildan sug'urib oling yoki uni xavfsizlik kamarlari bilan maxkamlang.

⚠ OGohlantirish!

Pastki va yuqorida bog'lanadigan maxkamlagichlar faqatgina ular uchun belgilangan maqsadlarda ishlatalishlari lozim. Pastki va yuqorida bog'lanadigan maxkamlagichlar yuqori va pastki maxkamlash tugunlari bilan jixozlangan faqatgina bolalar kresolarini maxkamlash uchun mo'ljallangan.

- Yuqori va pastki bog'lanadigan maxkamlagichlarni kattalar uchun mo'ljallangan xavfsizlik kamarlari, o'tkazish bog'ichlar va avtomobilarning boshqa qism va jixozlarini maxkamlash uchun ishlatalish taqiqlanadi.

Yuqori va pastki bog'lanadigan maxkamlagichlar kattalar uchun mo'ljallangan xavfsizlik kamarlari, o'tkazish bog'ichlar va avtomobilarning boshqa qism va jixozlarini maxkamlash uchun ishlataliganda to'qnashuv yuz bergenida kerakli darajada xavsizlik ta'minlanmaydi, bu esa shikast yetkazilishiga yoki halok bo'lishga olib kelishi mumkin.

ESLATMA

Xavfsizlik kamari yoki bolalar kreslolari tizimi yopiq avtomobilarda juda qizib ketishi mumkinligi sabab bo'lib, bolani o'tkazishdan oldin kreslo qoplamini va quflagichlarni tekshirib ko'ring.

▲ OGOLANTIRISH!


Bolalar kreslosi tizimini oldingi o'rindiqa joylashtirish, bola jiddiy shikast olishiga yoki o'limiga olib kelishi mumkin. Hech qachon suyanchigi oldi tarafiga o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik kreslosini, oldinda o'tiradigan yo'lovchilar uchun xavfsizlik yostiqli avtomobilning oldingi o'rindig'iga o'rnatmang.

Agarda xavfsizlik yostig'ini yoyilgan/ishga tushgan taqdirda oldingi o'rindiqa o'rnatilgan bolalar kreslosida o'tirgan bola jiddiy shikastlar olishi mumkin.

Suyanchigi oldi tarafiga o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik kresloni orqa o'rindiqa maxkamlash lozim. Suyanchig'i bilan orqaga o'rnatiladigan bolalar kreslosini oldi o'rindiqa faqatkina juda zarur hollarda o'rnatish mumkin. Bolalar xavfsizlik kreslosini oldingi o'rindiqa o'rnatilgan taqdirda o'rindiqni imkonli boricha orqaga surib qo'ying.


Pastki va yuqorida bog'lanadigan maxkamlagichli bolalar kreslolarini o'rnatish

1. Kresloni o'rnatish uchun orqa o'rindiqda yon tarafidagi joyni tanlang.



2. Ikkita pastki maxkamlagichlarni toping
Bolalar kreslosini maxkamlagichlarni pastki tugunlari orqa o'rindiqning pastki qismida dumoloq belgi bilan belgilangan.

3. Pastki maxkamlagichlar atrofida va shuningdek kamar qulfi va kamarning atrofida begona narsalaryig'ilmasligini tekshirib turing.
Begona narsalar, bolalar kreslosining maxkamlanish tugunlarida kerakli darajada maxkamlanishiga xalaqt berishi mumkin.



4. Bolalar kreslosini o'rindiqa ikkita pastki maxkamlash tugunlari ustiga o'rnatish va uni ushbu kreslo ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasiga rioxay qilgan holda maxkamlang.

5. Bolalar kreslosi maxkamlagichlarini ushbu kreslo ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasiga rioxay qilgan holda tartibga solib tortib qo'ying.

6. Sedan kabi modellarda yuqoridagi bog'lanadigan maxkamlagichlarga, shu uchun orqa o'rindiq suyanchig'idagi plastik qopqoqlarni oching va maxkamlovchilarining yuqoriga olib chiqing.
Maxkamlagichlarni avtomobilning bolalar kreslosi o'rnatiladigan o'rindiq joylashgan tarafida bo'lisinga e'tibor berib boring.

7. Bolalar kreslosiga bog'lanadigan kamardagi qisqichni yuqoridagi bog'lanadigan maxkamlagichga biriktiring, bog'lanadigan kamar buralib qolmasligiga e'tibor bering.

Turli o'rindiqlar uchun bolalar kreslolari tizimini o'rnatish yaroqliligi jadvali

Og'irlik guruhi		O'rindiq (yoki boshqa joy)		
		Oldindagi yo'lovchilarning joylari	Orqa o'rindiqning yon joylari	Orqa o'rindiqning markaziy joyi
Guruh 0	10 kg gachar	X	U+	X
Guruh 0+	10 kgdan13 kggacha	X	U+	X
Guruh I	9 kgdan18 kggacha	X	U+	X
Guruh II	15 kgdan 25 kggacha	X	U	X
Guruh III	22 kgdan36 kggacha	X	U	X

Ushbu jadvalda qullanilgan harfiy kodlar:

U=ushbu og'irlik guruhidagi qo'llanilishi ko'zda utilgan «universal» bolalar kreslolari uchun mos keladi.

X=ushbu og'irlik guruhidagi bolalar uchun to'g'ri kelmaydigan joylar.

+ =universal kategoriyasiga kiritilgan va ushbu og'irlik guruhidagi qo'llanilishi mumkin bo'lgan, suyanchigi orqa tomonga o'rnataladigan, ISOFIX bolalar kreslolari tizimlari uchun to'g'ri keladi.

Izoh: Bolalar kreslolari tizimlarining yaroqliligi haqida qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lish uchun sotuvchilarga murojaat qiling.

BOSH TIRAGICHLAR

Ikkilangan usulda bog'lanadigan kamar ishlatsa, bolalar kreslosini boshqariladigan boshtiragich bilan jixozlangan o'rindiqa maxkamlashda kamarni boshtiragich atrofidan aylantirish lozim.

Bir qavatlari kamar ishlatilganda, bolalar kreslosini boshqariladigan boshtiragich bilan jixozlangan o'rindiqa maxkamlashda boshtiragichni ko'tarib, kamarni uning ustunlari/tayanchiqlari orasidan kamarni o'tkazish kerak.


⚠ OGOLANTIRISH!

Bolalar kreslosining bog'lanadigan kamaridagi qisqich yuqoridagi bog'lanadigan maxkamlagichga yaxshi biriktirilganiga ishonch xosil qiling.

Ularning yaxshi biriktirilmaganligi bog'lanadigan kamarning va yuqorida bog'lanadigan maxkamlagichning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

8. Bolalar kreslosining bog'lanadigan kamarni bolalar kreslosiga ilova qilingan yo'rqnomasiga riyoja qilgan holda tortib qo'ying.

9. O'rnatishni tugatgach, yaxshilab maxkamlanganligiga ishonch xosil qilish uchun, bolalar kreslosini xar tarafga egib ko'ring.



K5W1007A

Bosh tiragichlar to'qnashuv yuz berganida bo'yin shikast olish xavfini pasaytirish uchun mo'ljallangan.

Maksimal himoyani ta'minlash uchun, boshtiragichni yuqori yoki pastga shunday siljitingki bosh tiragichning yuqori chekkasi qulog'ingizning yuqori nuqtasi bilan tenglashsin.

Bosh tiragichlar holatining ko'tarish orqali yo'lli bilan to'g'irlab olish uchun, bosh tiragichlarni torting. Bosh tiragichlar holatining pastga tushurish orqali yo'lli bilan to'g'irlab olish uchun, bloklashdan ozod qilish tugmalarini bosib turib bosh tiragichlarni torting.


Bosh tiragichlarni tuzatish yoki tozalash maqsadlarida yechib olish uchun nina-to'gnagichni yoki otvertkani boshtiragichning yo'naltiruvchi vtulkasi asosida joylashgan teshigiga tiqing. Nina buragichni o'ngga burang va boshtiragichni yechib oling.

Orqadagi bosh tiragichlarni ham shu tariqa yechib olish mumkin.

⚠ OGOLANTIRISH!

Bosh tiragichlarning yechib olinishi yoki noto'gri boshqarilishi/joylashishi to'qnashuv yuz bergan taqdirda bosh bilan bo'yinning og'ir shikast olishiga olib kelishi mumkin.

O'RINDIQLAR



Oldindagi o'rindiqlarning boshtiragichlarini egiltirish uchun:



1. Vertikal holatini o'rnatib, tiralgunga qadar keltiring va qo'yib yuboring.
2. Ehtiyyotlik bilan boshtiragichni kerakli holatga kelguniga qadar oldinga siljiting.

Oldindagi o'rindiqlar

Oldindagi o'rindiqlarning bo'ylama holatini boshqarish



Oldingi o'rindiqlarni oldinga yoki orqaga siljishi uchun quyidagi larni bajaring:

1. Oldi tomonda oldingi o'rindiq ostida joylashgan dastakni yuqoriga ko'tarib ushlab turing.
2. O'rindiqnini qulay holatga keltiring.
3. Dastakni qoyib yuboring.



Oldingi o'rindiqlarning suyanchiq qiyaligini boshqarish

Oldinga yoki orqaga qayiltirish uchun, suyanchiqni ichkari tomonidan maxovikchani burab, sunyanchiqni qulay holatga keltiring.



⚠ OGOLANTIRISH!


To'qnashuv yuz berganida suyanchiqlari ortga tashlangan oldindagi o'rindiqlarda o'tirgan odamlarga, kamar ostida siljilishlar yoki xavfsizlik kamarlari noqulay bosilib turganligi hisobiga, suyanchiq va xavfsizlik kamarlari himoyani ta'minlab bera olmaydilar.

- Avtomobil xarakatlanayatgan paytda oldingi o'rindiqlarning suyanchiqlarini ortga tashlash ta'qiylanadi.

Bu ogir shikast yetkazilishiga, halok bo'lishga yoki avtomobildan otilib chiqib ketishga olib kelishi mumkin.

Haydovchi o'rindig'inining balandligini boshqarish *

Haydovchi o'rindiq yostig'ini holatini boshqarish uchun, o'rindiq yostig'ini tashqari tomonidan maxovikchani burab, yostiqni balandligi qulay bo'lgan holatga keltiring.



Orqa o'rindig'i

Orqa o'rindiqning suyanchig'ini yig'ish

⚠ OGOLANTIRISH!


- Bagaj yoki boshqa yuelingizni oldingi o'rindiqlar sathdan yuqori bo'lgan joyga joylashtirmang.
- Avtomobil xarakatda bo'lgan paytda yo'lovchilarga yig'ilgan suyanchiqlar ustida o'tirishga ruxsat bermang.
- Avtomobilarda bagaj va yo'lovchilarni tashish uchun maxsus joylar ko'zda tutilgan.
- Maxkamlanmagan bagaj yoki yig'ilgan suyanchiqlarda o'tirgan yo'lovchilar birdaniga to'xtalish yoki to'qnashuv yuz berganda o'z joylaridan yoki avtomobildan otilib chiqib ketishlari mumkin.

⚠ OGOLANTIRISH!

Bu ogir shikast yetkazilishiga yoki halok bo'lishga olib kelishi mumkin.

Orqa o'rindiqning suyanchiqlarini yig'ish uchun quyidagilarni bajaring:


1. Xavfsizlik kamarini ushlagich teshigidan xavfsizlik kamarini tortib oling.
2. Orqa o'rindiqning suyanchig'i yuqorisidagi ochadigan tutgichni yuqoriga torting.
3. Orqa o'rindiqning suyanchig'ini avval oldinga keyin esa pastga yig'ib qo'ying.



Orqa o'rindiq suyanchig'ini ilk holatiga qaytarish uchun:

1. Xavfsizlik kamarlarini tutgichga biriktiring, kamarlar qulflanish qismlari bilan ilinmasligi lozim.
2. Orqa o'rindiqning suyanchig'ini ko'taring va ilk holatiga keltirib qo'ying.

3. Xavfsizlik kamarlarini ushlagichdan yechib oling.
4. Suyanchiqni joyida, yuqori qismiga bosib turib maxkamlab qo'ying.
5. Yaxshi maxkamlanganligini tekshirish uchun suyanchiqni oldinga tortib ko'ring.
6. Xavfsizlik kamarini ushlagich teshigiga xavfsizlik kamarini o'rnatting.



7. Orqadagi markaziy xavfsizlik kamarini o'rnatting/otkazing.

⚠ DIQQAT!

- Xavfsizlik kamarlari ushlagichga ilinganligiga ishchonch xosil qiling.
Ushbu talabga rioya qilmaslik xavfsizlik kamari buzilishiga olib kelishi mumkin

⚠ OGOLANTIRISH!

- Orqa o'rindiqlarda o'tirgan yo'llovchilar bilan xarakatlanishdan oldin orqa o'rindiqning suyachiqlarini orqaga tashlangan holda maxkamlanganiga ishchonch xosil qiling
- Avtomobil xarakatda bo'lgan paytda o'rindiq suyachiqlari yuqorisidagi bo'shatadigan dastakni tortib olish taqilanganadi.
Ushbu bo'shatadigan dastaklarni avtomobil xarakatda bo'lgan paytda tortib olish shikast olishga olib kelishi mumkin

XAVFSIZLIK YOSTIQLARI

Sizning avtombillingiz, to'g'ri holatda o'tirgan va kamarlari taqilgan haydovchi va oldindagi yo'llovchini himoya qilishi uchun mo'ljallangan, (SRS) q'shimcha passiv xavfsizlik tizimining xavfsizlik yostiqlari bilan jixozlangan. Haydovchi va oldinda o'tirgan yo'llovchi o'rindiqlari uchta nuqtada maxkamlanadigan xavfsizlik kamarlari va boshqa xavfsizlik elementlariga q'shimcha tarzda xavfsizlik yostiqlari va yon yostiqlar bilan (agarda ular nazarda tutilgan bo'lsa) jixozlangan. Har bitta xavfsizlik yostig'i maxsus modulga joylashtirilgan, va avtomobil bilan faqat ma'lum bir tipdagisi, haydovchi va yo'llovchining jarohat olishlari va halok bo'lish xavf darajasi yuqori bo'lgan to'qnashuvlar yuz berGANIDA yostiqlar o'sha modullardan yuqori tezlikdagi kuch bilan otilib chiqib yoyiladi.


Haydovchi va oldindagi yo'llovchilarning xavfsizlik yostiqlari

Haydovchining xavfsizlik yostig'i Haydovchining xavfsizlik yostig'ining moduli rul gildiragini markazida joylashgan.

Oldindagi yo'llovchilarning xavfsizlik yostig'*

Oldindagi yo'llovchilarning xavfsizlik yostig'i qolqop kutchasi ustidagi asboblar panelida joylashgan.

Haydovchi Oldindagi yo'llovchining xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik yostiqlari



G6W1006A

⚠ OGohlantirish!

shikast olishlari yoki halok bo'lislari mumkin.

- Xavfsizlik kamarlari to'gri taqilmagan haydovchi va yo'llovchilar, to'qnashuv oldini olib xarakat mobaynida birdaniga to'xtalganda otilib ketishlari va xavfsizlik yostiqlarining moduli yonida yoki usha modular ustida bo'lib qolishlari mumkin. Bu esa ochilishidan olinadigan zarbadan qattiq shikast olishga olib kelishi mumkin.

⚠ OGohlantirish!

Xavfsizlik yostiqlari qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimi bo'lib va kamar bilan birga ishlataliganda ko'proq samara olib kelishi mumkin.


To'qnashuv yuz berganda og'ir darajada shikast olish yoki halok bo'lislari xavfini minimallashitirish uchun haydovchi va oldindagi yo'llovchi, ushbu joyda xavfsizlik yostiqlari mayjud yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar xavfsizlik kamarlarini taqib olishlari shart.

- To'qnashuvlar orqa bilan yoki yon tomon bilan ro'y berganda xavfsizlik yostiq yoyilmaydi. Hech xavfsizlik tizimlar haydovchi va yo'llovchilarga, kamarlar taqilmagan bo'lgan taqdirda himoyani ta'minlab bera olmaydilar, shuning uchun ham shunday to'qnashuvlarda ular og'ir

Xavfsizlik yostiqning ishlash prinsipi

Xavfsizlik yostiqlari bosh, bo'yin va ko'krak qafasini, frontal to'qnashuv yuz berganida, asbob paneliga, rul g'ildiragi yoki old tomondagi oynadan zarba olishdan saqlab turish uchun mo'ljallangan. Ular, urilish orqa tomoniga ag'darilganda va yon tarafga bo'ladiigan urilishlarning aksariyati da ishlamaydi/yoymaydi. Avtomobil soatiga 23 km tezlikda kelayotib qo'zg'almaydigan va deformatsiya bo'lmaydigan devor bilan kuchli zarba bilan frontal to'qnashganda, xavfsizlik yostiqlarining ochilishi amalga oshishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari tizimi juda og'ir frontal to'qnashuvlar yuz berganida ochilishi/yoymishi

mumkin yoki to'qnashuv burchagi to'gri chiziqdan 30° dan oshiq bo'limganda.



G6W1007A

Xavfsizlik yostiqlari yoyiladigan avtomobilarga tushadigan og'irlik darajasi statistik mal'umotlarga qaraganda frontal to'qnashuvlarda o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan zarba darajasidan oshiq bo'limgan darajada ishga tushishini/yoymishini ta'minlaydi. Amaliyotda avtomobillar kam holatlarda qo'zgalmaydigan devorlar bilan to'qnashadilar. Xavfsizlik yostiqlari ko'pincha avtomobillar o'zaro to'qnashgan paytda ishga tushadilar/yoyiladilar.

X a v f s i z l i k y o s t i q l a r i s h g a tushgandagi/yoymandagi real holatdagi tezlik odatda yuqoriroq bo'lishi mumkin, chunki odatda avariyalar bir nechta avtomobilarning burchak ostida va frontal bo'limgan (masalan,

yonma-yon), to'qnashuv obyektlari esa qo'zgalmaydigan obyektlar qatoriga kirmaydi.

ESLATMA

Xavfsizlik yostiqlari to'qnashuv sodir bo'limgan o'rtacha va yuqori darajadagi og'irliklarda yoyilishlari mumkin (masalan, avtomobilning shassi va boshqa qattiq komponentlari yo'dagi qoziqqa tushganda), agarda sekinlashtirish datchiklari qattiq yuza bilan soatiga 23 kmdan yuqori bo'lgan tezlikda to'qnashish signaliga ekvivalent signalni generatsiya qilganida.

Datchiklar xavfsizlik yostiqlari ochilishi/yoyilishi uchun yetarli zarbadagi frontal to'qnashuvlarni ro'yxatdan o'tkazganida xavfsizlik yostiqlar ochilishi/yoyilishi mumkin.

Bunday holatda sekinlashtirish datchiklari xavfsizlik yostig'ini ochilish/yoyilish signalini vujudga keltiradi. Yonilg'i tarkiblari – yonishni boshlab, xavfsizlik yostig' moduli ichida tezda yonib tugaydi, va xavfsizlik yostiqlari ochilishi/yoyilishi uchun yetarli miqdorda azot ishlab chiqaradilar ushbu kimyoiy jarayon va gaz shaklidagi azot avtomobildagi odamlar uchun bezardir.

To'qnashuv aniqlangach 0,045 soniya ichida xavfsizlik yostig'ini ishirish bosimi modulning plastmass panelini yorib yuboradi, modul esa rul g'ildiragi gupchagini quflab turgan metal

plankani yoki yo'lovchi tarafidagi anjomlar panelini ochib yuboradi.

Xavfsizlik yostiqlari to'liq ochiladi/yoyiladi va odam kallasi va tanasining yuqori qismini oldinga siljishini sekinlashtiradigan yuzani shakllantiradi. Odam xavfsizlik yostiqlari bilan aloqa qilganida, odamning siljishidan kelib chiqadigan og'irlik ta'sirini amortizatsiya qilib, gaz yostiq asosidagi teshiklardan chiqib ketadi.

ESLATMA

Xavfsizlik yostiqlari nafas olishga xalaqt bermaydi va xarakatlanish erkinligini chegaralamaydi. Xavfsizlik yostiqlarida amortizatsiya bo'lganidan so'ng gaz tezda chiqib ketadigan teshiklar mavjud.

Birlamchi aloqa bo'lib o'tishidan to'ochilishi/yoyilishi va gazni chiqarishgacha bo'lgan barcha jarayon ko'zingizni yumib ochguncha 0,2 soniya davomida bo'lib o'tadi. To'qnashuv bir laxzada bo'lib o'tadi, to'qnashgan avtomobilarning to'xtalishi esa birlamchi aloqadan so'ng 1-2 soniya davomida to'liq amalga oshadi. Shuning uchun ham haydovchi va yo'lovchilarni xavfsizligini ta'minlash uchun qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimi to'qnashuvni ro'yxatga olib va darrov xavfsizlik yostiqlarini ochishi/yoyishi lozim.

Xavfsizlik yostiqlari ochilgandan so'ng

Xavfsizlik yostiqlari ochilgandan/yo'yilgandan so'ng siz salonda kuyindi xidni sezishigiz, dud yoki oq kukun ko'rib qolishingiz mumkin. Bu normal holatdir. Kuyindi xid xavfsizlik yostiqlarini tuldirilishi va ochilishi uchun mo'ljallangan maxsus modda yonishi natijasida paydo bo'ladi. Oq kukun bu talk yoki soda asosidagi modda bo'lib, uning bilan ishiriladigan xavfsizlik yostiqga saqlanishda va ishirilishda ishqalanishini oldini olish uchun qoplanadi. Ushbu moddalar teri yalig'lanishiga olib kelishi mumkin bo'sada, ular zaharli emaslar.

SRS tizimiga texnik xizmat ko'rsatish

Nazariy jixatdan (SRS) xavfsizlik yostiqlari tizimi texnik xizmat ko'rsatilishiga muhtoj emas. Lekin, quyida keltirilgan sharoitlarning vujudga kelishi bilan darxol texnik xizmat ko'rsatish amalga oshirilishi lozim.

- Xavfsizlik yostiqlaridan birining ochilishi/yoyilishi.
 - Xavfsizlik yostig'i signalizatori buzilganligini ko'rsatib turibdi. Alfavit ko'rsatgichida «XAVFSIZLIK YOSTIQLARINING SIGNAL BERUVCHI CHIROG» ni ko'ring.
- V a k o l a t i a n g a n d i l e r b i l a n maslahatlashishingizni tavsiya etamiz.

ESLATMA

Avtomobil yon tarafida xavfsizlik yostiqlari bilan jixozlangan bo'lsa, yon tarafidagi xavfsizlik yostiqlari ochigandan/yoyligandan so'ng yig'ishda oldingi o'rindiqni almashtirish talab qilinadi. Batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun texnik xizmat ko'rsatish shaxobchalariga murojaat qiling.

Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishingizni tavsiya etamiz.

▲ OGohlantirish!

- Bir yoki bir nechta xavfsizlik yostiqlari yoki xavfsizlik kamarlari tortgichlari ochigandan/yoyligandan so'ng avtomobildan foydalanish taqilananadi.
- Ta'mir qilishga, qurilmaga aralashishga yoki avtomobildan xavfsizlik yostiqlarini mustaqil ravishda olib tashlashga urinmang.
- Yetarli darajada malakaga ega bo'lmasdan turib xavfsizlik yostiqlari tizimiga aralashish ularning portash tariqasida ochilishiga/yoylishiga olib keladi, bu esa ogir shikast yetkazilishiga yoki halok bo'lishga olib kelishi mumkin.
- Xavfsizlik yostiqlarining ochilishi/yoylishi ro'y berganida, avtomobilida xavfsizlik yostiqlari moduli zonasida yoki o'sha atrofda buzilishlar bo'lgan taqdirda, va shuningdek xavfsizlik yostiqlaridan birining buzilganligi aniqlangan taqdirda darxol texnik xizmat

▲ OGohlantirish!

ko'rsatish shaxobchalariga murojaat qilishingiz lozim. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishingizni tavsiya etamiz.

- Xavfsizlik yostiqlari yoki xavfsizlik kamarlari tortgichlari ochigandan/yoyligandan so'ng vakolatlangan diler shaxobchasi texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirmsadan avtomobildan foydalanish og'ir shikast yetkazilishiga yoki halok bo'lishga olib kelishi mumkin.



S3W1241A

Haydovchini va oldi o'rindiqa o'tirgan yo'lovchini xavfsizlik yostiqlari bilan himoyalash

To'qnashuv sodir bo'lganda haydovchi va yo'lovchilarning shikastlanishi odatda ularni qo'zgalmaydigan obyektlarga otib tashlanishi bilan bog'liq. Avtomobilning ichida rul gildiragi, asbor paneli yoki oldingi oyna, avtomobildan otilib tashlanganda esa – yo'llar tekkisligi yoki daraxt bo'lishi mumkin. Og'ir shikastlanishlar shuningdek to'qnashuv yuz bergenida vujudga keladigan zarbalı peregruzkalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, xattoki qo'zg'almaydigan obyekt yoki yuzaga urilmaganda ham.

Ushbu kabi barcha shikastlanishlar to'qnashuv yuz berib birdaniga to'xtalgandagi vujudga keladigan zarbalı peregruzkalar bilan bog'liq. Avtomobilga sekinlashish va to'xtash uchun talab qilinadigan vaqt va masofa, sezilarli daraja, haydovchi va yo'lovchilar uchun to'qnashuv oqibatlarining og'rilik darajasini belgilab beradi. Masalan, avtomobil sfteforning qizil chirogiga to'xtaganda haydovchi va yo'lovchilarning gavdasi inertsiya bo'yicha oldinga xarakatlanadi/siljydi.

Bu to'xtashdan oldin avtomobil va odamlar bir tezlik bilan xarakatda bo'lgani bilan bog'liqdir. Tormoz bosilganda avtomobil sekinlashadi, odamlar esa inertsiya bo'yicha qaysidir vaqt oldinga xarakatlanishi davom ettiradilar. Lekin kamarlarni taqgan, o'rindiqlarda to'g'ri holatni egallagan haydovchi va yo'lovchilarning

birdaniga to'xtalishda yoki tormoz bosilganda shikast olishlarda omon qolishlari mumkin.

Birdaniga tormoz bosilgan taqdirda ham avtomobilning to'xtalishi uchun yetarlicha vaqt va masofa mavjud. Odatda xavfsizlik kamarlarini tormozlanish paytida vujudga keladigan peregruzkalarga ishonchli darajada qarshilik ko'srata oladi.

To'lqo to'xtalgunga qadar qoladigan o'ta kam vaqt va masofa peregruzkalarning odamlarga bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi. Odamning tanasi bu kabi peregruzkalarga bardosh bera olmaydi. Xattoki xavfsizlik kamarlarini taqilgan va o'rindiqlarda to'g'ri holatni egallagan odamlarning kallasi, gavdasining yuqori qismi, qo'llari va sonlarining oldinga xarakatlanish tezligi avtomobilning to'qnashguniga qadar bo'lgan tezligiga tengdir. O'rtacha va yuqori kuchdagi frontal to'qnashuvlarda kamarlarini taqilgan odamlar ichki to'qima va organlarining jarohat olish xavfiga duchor bo'ladi, xattoki kalla yoki torsning qo'zg'almaydigan obyekt va yuzalarga urilgan bo'limgan taqdirda ham O'rtacha va yuqori kuchdagi frontal to'qnashuvlari, yoki shunga yaqin to'qnashuvlari ro'y berganida haydovchi va oldindagi yo'lovchining kallasi va gavdasining yuqori qismi to'lqo to'xtalishi uchun xavfsizlik yostiqlari qo'shimcha vaqt va masofa yaratib beradi.

Ushbu qo'shimcha vaqt va masofa hayotni saqlab qolishi va og'ir shikast yetkazilishini oldini olishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari dan foydalanish qoidalariiga rioya qiling!

Hayotni saqlab qolinishini ta'minlaydigan xavfsizlik yostiqlari tizimining ishlashi ayrim mumkin bo'lgan xavf-hatarlar bilan bog'liq. Xavfsizlik yostiqlaringin ochilish jarayoni ahamiyatga ega bo'lgan kuchilar-tezlik va kutilmaganlik bilan bog'liq, shuning uchun qo'shimcha passiv xavfsizlik tizimlarining xavfsizlik yostiqlарини ishlatalishi avtomobilida odamlar o'rindiqlarda to'g'ri holatni egallagan bo'lalar ko'proq samarali bo'lishi mumkin.

⚠ OGOLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqlaridan foydalanishning asosiy qoidalari:

- Suyanchig'i old tomonda o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik kreslosini oldindagi o'rindiqa joylashtirish taqilganadi.
- 12 yoshgacha bo'lgan bolalar iloji boricha orqa o'rindiqlarda joylashishlari lozim.
- Albatta xavfsizlik kamarlarini taqib oling, garchi avtomobil ishiriladigan yostiqchalar bilan jixozlangan bo'lgan taqdirda ham.

⚠ OGOLANTIRISH!

- O'rindiq suyanchigini imkon boricha ortga, qulay va xavfsiz holatga keltiring, salgina qiyaltiring va yelkangiz bilan suyanchiqqa og'ib o'tirib oling.

- Xavfsizlik yostiqlari modulida, yoki yonida va ustida har qanday narsalarni joylashtirish taqilganadi.

Ushbu narsalar, yostiqlar ochilganda otilib ketib og'ir shikast yetkazishlari mumkin.

- Xavfsizlik yostiqlari modullari panellara suyanish taqilganadi.

- Hagarda rul ustuni/kolonkasi chetki vertikal holatda bo'lsa, unda avtomobilni boshqarish tavsija etilmaydi.

Ushbu xavfsizli yostiqlaridan foydalanish talablariga rioya qilmaslik qattiq shikast olishga va halok bo'lishga olib kelishi mumkin.

Suyanchig'i old tomonda o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik kreslosini albatta maxkamlab oling.

Suyanchig'i old tomonda o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik kreslosini oldindagi o'rindiqa joylashtirish taqilganadi. Xavfsizlik yostiqlaringin ochilishi/yoylishi old o'rindiqa joylashtirilgan suyanchig'i old tomonda o'rnatiladigan bolalar xavfsizlik kreslosidagi bolaning og'ir shikast olishiga yoki halok bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bolalarni joylashtirish uchun orqadagi o'rindiqlar ko'zda tutilgan.

Avtomobillar avariyalari statistikasi shuni ko'rsatdiki, to'g'ri taqilgan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning xavfsizligi uchun orqadagi o'rindiqlar oldindagiga qaraganda xavfsizroq. Shuning uchun ham bolalar iloji boricha orqa o'rindiqlarga joylashishi shart. Bu faqatgina xavfsizlik yostiqlari ochilishida jarohat olish xavfi bilan bog'liq emas. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki xavfsizlik yostiqlari mavjud bo'lmaganda ham, orqadagi o'rindiqlar oldindagiga qaraganda bolalar uchun xavfsizroq.

Kattalar va o'spirinlarning to'g'ri holati.

Haydovchi va oldindagi yo'llovchilar o'rindiqlarida o'tirgan kattalar va o'spirinlar to'g'ri holatni egallagan o'zlarining xavfsizligini va xavfsizlik yostiqlarining samaradorligini yanada oshirishlari mumkin. Kattalar va o'spirinlarning to'g'ri holatin ta'minlash uchun:

Uch nuqtada maxkamlanadigan/ qulflanadigan xavfsizlik kamarlari doim taqilgan holatda bo'lishi lozim.

To'qnashuv yuz berganda og'ir darajada shikast olish yoki halok bo'lish xavfini kamaytirish uchun haydovchi va oldindagi yo'llovchi, ushbu joyda xavfsizlik yostiqlari ko'zda tutilgan yoki tutilmagan bo'lishidan qat'iy nazar xavfsizlik

kamarlarini taqib olishlari shart. Uriish orqa tomonga/dan va yon tarafga bo'lganda xavfsizlik yostiqlari ochilmaydi/yoymaydi. Xavfsizlik tizimi, xavfsizlik kamari taqilmagan haydovchi va yo'llovchiga himoyani hech ham ta'minlab bera olmaydi, shuning uchun ham bunday to'qnashuvlar yuz beradida ular og'ir shikastlanishlari yoki halok bo'lislari mumkin. Xavfsizlik kamarlar to'g'ri taqilmagan haydovchi va yo'llovchilar to'qnashuvdan oldin tormoz bosilganda xarakat mobaynida otlib xavfsizlik yostiqlari modulining yonida yoki modul ustida bo'lib qolishlari mumkin. Bu ochilgan xavfsizlik yostiqlaridan olinadigan zarbadan og'ir shikastlanishga olib kelishi mumkin.

- O'rindiq suyanchig'ini imkon boricha ortga, qulay va xavfsiz holatga keltiring. O'rindiqni xavfsizlik yostiqlari modulidan uzoqroqqa siljitish uning samaraliligiga ta'sir qilmaydi, o'rindiqni xavfsizlik yostiqlari modulidan uzoqroqqa siljitish xavfsizlik yostiqlari ochilgandagi kuch ta'siridan xavfsilikni oshirishga yordam beradi.

Rul gildiragi, pedal va qolgan boshqarish asbob va organlari bilan ishslash qulayligini yоqotmaslik uchun haydovchi o'rindigining suyanchig'ini juda uzoqqa tortmang.

- O'rindiq suyanchig'ini sal qiyalating, oldinga bukmang. O'rindiq suyanchigini sal qiyalating

suyanchiqqa yelkangiz bilan og'ib kresloga o'tirib oling.

Xavfsizlik yostiqlari moduliga 15 sm kam bo'lgan masofaga yondashmang va modul tomon egilmang. Xavfsizlik yostiqlari modulining plastmassa paneliga yoki yoni dagi yuzalarga (rul gildiragi gupchagiga yoki yo'llovchi tarafidagi qolqop qutichasi ustidagi anjomlar paneliga) suyanish taqilanganadi. Shunday holatda o'tirishga xarakat qilingki, kallangiz va gavdangiz xavfsizlik yostiqlaridan 25-30 sm masofada joylashgan bo'lins. Qancha uzoq bo'lsa – shuncha xavfsizroq.

⚠ OGOLHANTIRISH!

Himoyaning samarali bo'lislini ta'minlash uchun xavfsizlik yostiqlari birdaniga yoyilishi zarur. maksimal kuchlanish, birinchi 5-8 smlarda xavfsizlik yostiqlari qopqoqni yorib chiqib yoyilgandan so'ng vujudga keladi. Ushbu birinchi 5-8 smlar xavfsizlik yostiqlari qopqoqni yorib chiqib yoyila boshlaganda xavf zonasiga kiritiladi.

- Agarda xavfsizlik yostiqlari yoyilganda/ochilganda ushbu xavfi zonada odam mavjud bo'lsa, bu og'ir shikast yetkazilishiga, xattoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Modul qopqoqidan masofa kattalashib borgani sari yoyilayotgan yostiqning kuchi pasayishni boshlaydi.
- Xavfsizlik yostiqlari modulidan masofa kattalashishi ochilayotgan xavfsizlik

⚠ OGOLANTIRISH!

yostiqning ta'sir kuchi ostida xavfsizlik darajasi oshib borishini bildiradi.

Xavfsizlik yostiqlari moduli va sizning o'rtangizda hech qanday narsalar, bolalar va hayvonlar bo'lmasligi lozim.

Sizning avtombilingiz xavfsizlik yostiqlari moduli rul g'ildiragi va asboblar qutisida qol'qop qutichas ustida joylashgan. Xavfsizlik yostiqlari moduli plastmassa qopqoqlari ustida, va shuningdek yonida xar qanday narsalarni joylashtirish taqiqlanadi. Yostiqlar ochiganda ushbu narsalarni sizning yukingizga yoki tanangizga otib yuborishi mumkin, bu esa og'ir shikast olishga olib keladi.

Oldindagi yo'llovchining tizzalarida bolalar va hayvonlar bo'lmasligi lozim. Oldindagi yo'llovchining tizzalarida xavfsizlik yostiqlari ochiganda shikastlanishga olib keladigan hech qanday narsalar bo'lmasligi lozim.

Rul g'ildiragini pastga qiyaltirining (agar buning imkonи bo'lsa), ochiganda xavfsizlik yostiqlari kallaga yoki bo'yinga emas, ko'krak qafasiga yo'naltirilgan bo'lsin.

Rul g'ildiragini chetgi yuqori holatga keltirish/taqiqlanadi. Rul g'ildiragining ushbu holatini faqat o'tirib olishni va haydovchining avtombildan chiqishini osonlashtirish uchun ishlatalish lozim. Karakatni boshlashdan oldin rul g'ildiragini pasaytiring. Bu xavfsizlik yostiqlariga yoyilish yo'nalishini, odamning nozik joylari - kallasi va bo'yninga emas, balki ko'krak qafasiga yonaltilishini ta'minlaydi.

ESLATMA

To'qnashuv yuz berganda avtomobil shikastlanish darajasi bilan, xavfsizlik yostiqlari tizimi elementlari (yon tarafdag'i, oldindagi yostiqlar, xavfsizlik kamarlarini tortgichlari) ishga tushishi bilan bog'liqlik emas. Tizim ishga tushishining ko'satgichlari - bu avtombilning shikastlanganligi yoki to'qnashuvga chab o'lgan tezligi emas, balki to'qnashuv paytidagi tezlikni oshirish yuqori darajasidir. Xavfsizlik yostiqlari tizimi elementlarining ishga tushishi lozimligini visual ko'zdan kechirish orqali aniqlash noto'gridir. Esda tuting, haydovchi va yolovchilarning xavfsizligini, xavfsizlik yostiqlari ochilishi emas, balki birinchi navbatda avtomobil kontruksiyasi, komplektatsiyasi va xavfsizlik kamarlarining taqilganligi ta'minlaydi.


2

ASBOBLAR VA BOSHQARISH ORGANLARI

• ASBOBLAR VA BOSHQARISH ORGANLAR	2-2
• ASBOBLAR KOMBINATSIYASI	2-3
• BORT KOMPYUTERI	2-5
• AKKUMULYATOR BATAREYASINI QUVATSIZLANISHDAN HIMOYALOVCHI MOSLAMA	2-13
• ULAB-UZGICHILAR VA BOSHQARISH ORGANLARI .	2-13
• KALITLAR VA QULFLAR	2-17
• OYNAKO'TARGICHLAR	2-20
• BAGAJ QUTISINING QOPQOG'I	2-21
• KAPOT	2-23
• ELEKTR ASBOBLAR VA YORITISH	2-24
• AKSESSUARLAR VA YORDAMCHI ASBOSLAR	2-27
• ESLATMALAR	2-30


2-2 ASBOBLAR VA BOSHQARISH ORGANLARI

ASBOBLAR VA BOSHQARISH ORGANLARI



1. Yon tomon ventilyatsiya panjarası
2. Haydovchining xavfsizlik yostig'i *
3. Asboblar kombinatsiyasi
4. Raqamli indikatsiyali soat
5. Audiotizim *
6. Markaziy ventilyatsiya panjarası
7. Oldindagi yo'lovchining xavfsizlik yostig'i *
8. Qo'lqop qutisi
9. Avariyada chiroqli signalizatsiya tugmasi
10. Sigaret tutatgich*\Shtepsel rozetkasi*
11. Klimat-kontrol *
12. Kuldon
13. Stakandon
14. Akselerator tepkisi
15. Tormoz tepkisi
16. Ilashish tepkisi
17. Kapotni ochish dastasi
18. Faralarni tekislash almaslab ulagichi
19. Masofadan boshqarish oynalari *


ASBOBLAR KOMBINATSIYASI



1. BQT nosozligi signalizatori
2. Taxometr
3. Qayilish/ chiroqli avariya signalizatsiyasi ko'satkichlari indikatori
4. Harorat ko'satkichi
5. Yoqilg'i darajasi ko'satkichi
6. Spidometr
7. Tumanga qarshi orqa faralar yoqilgani indikatori
8. Tumanga qarshi oldi faralar yoqilgani indikatori
9. Faralarning uzoqni yoritish chirog'i indikatori
10. Minimal yoqilg'i zaxirasi signalizatori
11. Tormoz tizimi nosozligi signalizatori
12. Bort kompyuteri*
13. Ochiq eshik signalizatori
14. Nosozlik signalizatori
15. Akkumulyator batareyasini quvvatlash tizimi nosozligi signalizatori
16. Dvigatelni moylash tizimida moy darajasi signalizatori
17. Xavfsizlik kamari taqilmaganligi signalizatori
18. Xavfsizlik yostiqqlari nosozligi signalizatori
19. Shinalardagi bosim chirog'i
20. Elektron barqarorlashtirish tizimi (ESC) signalizatori*
21. Elektron barqarorlashtirish tizimini (ESC) o'chirish signalizatori*

Spidometr

Spidometr avtomobilning tezligini soatiga kilometrda ko'rsatadi (km/s).



G6D2006A

Odometr

Odometr avtomobil jami qancha yo'l bosib o'tganini kilometrda ko'rsatadi.

ODO 999999 km

Taxometr

Taxometr dvigatelning tirsakli vali aylanishi chastotasini bir daqiqada aylanish sonida ko'rsatadi (ayl./daq.). Yoqilg'i imkon qadar tejash uchun avtomobilni shunday boshqaringki, dvigatel aylanishning pastki diapozonida ishlasi: 2000 dan 3000 ayl./daqiqagacha.


Dvigatel aylanishini taxometr qizil zonaga kiradigan darajada ko'paytirmang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Dvigatelning tirsakli vali aylanishi chastotasini keragidan ortiq ko'paytirish dvigatelga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

- Dvigatel taxometr strelkasi qizil zonaga kiradigan juda yuqori aylanishda ishlashiga yo'l qo'y mang

Aks holda serxarj ta'mir talab etilishi mumkin bo'lib, bunday ish ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyati bilan qoplanmaydi.



G6D2003A


Yoqilg'i darajasi ko'rsatkichi

Yoqilg'i bakida qolgan yoqilg'i miqdorini ko'rsatadi.

Yoqilg'i quyilib, dvigatel ishga tushirilgandan so'ng yoqilg'i darajasini ko'rsatkichning strelkasi asta-sekin yangi darajaga mos keladigan holatga keladi.


Tormoz berganda, tezlik oshirilganda va qayilishlardan o'tayotganda bakdag'i yoqilg'i qalqiganida yoqilg'i darajasini ko'rsatkichning strelkasi tebranishi mumkin. Yoqilg'i darajasini ko'rsatkichning strelkasi bakdag'i yoqilg'i miqdorini taxminan aniqlash uchun xizmat qiladi va undan aniq asbob sifatida foydalanib bo'lmaydi.

BORT KOMPYUTERI



Harorat ko'rsatkichi

O't oldirgich yoqiq bo'lqanda dvigatelndagi sovituvchi suyuqlikning haroratini ko'rsatadi.



⚠ DIQQAT!

- Agar dvigatelndagi sovituvchi suyuqlikning harorat ko'rsatkichi qizil zonaga o'tgan bo'lsa, harakatni davom ettirish man etiladi. Bu harorat dvigatel qizib ketganidan dalolat beradi.

Dvigatel qizib ketganida yurish avtomobilingizga zarar yetishiga olib keladi. Keyinchalik qilinadigan ta'mir ishlari ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi. Qarang: "Qizib ketish" bo'limi.

Bort kompyuteri haydovchini transport vositasining o'ttacha yoqilg'i sarfi, joriy yoqilg'i sarfi, o'ttacha tezligi, odometrga ko'ra qancha yo'l bosib o'tilgani, atrof muhit harorati, yoqilg'i bo'yicha qolgan masoфа kabi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Bort kompyuterining tugmasi har safar bosilganda displayndagi ko'rsatkichlar quyidagi tartibda o'zgaradi: o'ttacha yoqilg'i sarfi → joriy yoqilg'i sarfi, → o'ttacha tezligi, odometrga ko'ra qancha yo'l bosib o'tilgani, → atrof muhit harorati, → yoqilg'i bo'yicha qolgan masoфа → shinalardagi bosim → shinalardagi bosim ko'rsatkichini moslashtirish.

Bort kompyuterining tugmasi spidometrning pastki chap qismida joylashgan.

O'ttacha yoqilg'i sarfi

Bu display har 100 km yo'lga litrda taxminan qancha yoqilg'i sarflanayotganini ko'rsatadi (l/l_{100} km). Bu miqdor ko'rsatkichlar so'nggi marta nolga tushirilgandan so'ng l/l_{100} km qiymati asosida hisoblanadi. O'ttacha yoqilg'i sarfi ko'rsatkichini nolga tushirish uchun bort kompyuteridagi tugmani bir soniyadan ortiq vaqt bosib turing.



Joriy yoqilg'i sarfi

Bu display joriy yoqilg'i sarfini ko'rsatadi (l/100km).



Transport vositasining o'rtacha tezligi

Bu display avtomobilning o'rtacha tezligini ko'rsatadi. O'rtacha tezlik ko'satkichini nolga tenglashtirish uchun bort kompyuteridagi tugmani bir soniyadan ortiq vaqt bosib turing.



Odometr bo'yicha bosib o'tilgan yo'l

Bu display ko'satkichlar so'nggi marta nolga tenglashtirilgandan so'ng bosib o'tilgan masofani ko'rsatadi.

Odometr bo'yicha bosib o'tilgan yo'l hisoblagichini nolga tenglashtirish uchun bort kompyuteridagi tugmani bir soniyadan ortiq vaqt bosib turing.

TRIP

9999.9 km

Atrof muhit harorati

Bu rejimda displayda tashqaridagi harorat aks ettilirildi.

10 °C

Yoqilg'i bo'yicha qolgan masofa

Bu rejimda yoqilg'i baki butkul bo'shamaguncha avtomobil qancha yo'l bosib o'tishi mumkinligi taxminan ko'rsatiladi.

ESLATMA

- Harakat sharoitiga qarab qolgan yoqilg'ida avtomobil qancha masofa bosib o'tishi ko'satkichdagidan farq qilishi mumkin.
- Qolgan yoqilg'ida avtomobil bosib o'tishi mumkin bo'lgan masofa harakat sharoitiga, yurish tarziga va avtomobilning tezligiga qarab o'zgaradi.



Shinalardagi bosim va shinalar bosimi datchigini moslashtirish

Bu display shinadagi havo bosimi darajasini va TPMS (shinalardagi bosim nazorati tizimi) yordamida ko'rsatadi. Qarang: "TPMS" bo'limi. Tezlik soatiga 1 km bo'lganda bu rejim ishlamaydi va o'rtacha yoqilg'i sarfi opsiyasiga qaytish yuz beradi.



TIRE
LEARn

Minimal yoqilg'i zaxirasi signalizatori

 mazkur signalizator yoqilg'i bakida yoqilg'i darjasini pasayib ketganda yonadi.

⚠ DIZQAT!

- Yoqilg'i butkul sarflanishiga yo'l qo'y mang. Bu katalitik neytralizator zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin, bu holda ta'mirlash ishlari ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Agar signalizator yongan bo'lsa, imkon qadar tezroq bakni yoqilg'iga to'ldiring. Qarang: "YOQILG'I" bo'limi.

BQT nosozligi signalizatori*

(AB) o't oldirish yoqilganda BQT signalizatori qisqa vaqtga yonadi. Shu tariqa u tizim o'zini sinash amalga oshirilganidan va signalizatorning chirog'i sozligidan dalolat beradi. Signalizator taxminan 3 soniyadan keyin o'chishi lozim.

Agar BQT nosozligi signalizatori o'zini quyidagicha tutsa, avtoservisga murojaat qiling:

- O't oldirish yoqilganda yonmasa;
- O'chmasa;
- Harakat chog'idá yonса.

Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.

⚠ OGohlantirish!

• BQT signalizatori yonib turgan bo'lса, avtomobilda harakatni davom ettirish man etiladi.

• BQT signalizatori yonib turishi tormoz tizimidagi nosozlik alomati bo'lishi mumkin.

Avtomobilning tormozlarini lozim ishchi holatda saqlash bo'yicha talablar bajarilmasligi avariyaga olib kelishi mumkin. Avariya shikastlanishga, avtomobil zarar ko'rishiga va boshqa moddiy zararlarga olib keladi.

Agar BQT signalizatori harakat vaqtida yonsa, BQT tizimida nosozlik bo'lishi mumkin. BQTsiz ham avtomobil normal ishlashi mumkinligiga qaramay, keskin tormoz berganda, g'ildiraklar blokka tushib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda tekshirish va ta'mirlash uchun zudlik bilan Vakolatlangan dilerga murojaat qilish zarur. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.

Qarang BLOKLANIB QOLISHGA QRASHI TORMOZLASH TIZIMI.

Xavfsizlik yostiqlari ishdan chiqqani to'g'risida signalizator

 Xavfsizlik yostiqlari tizimining ishdan chiqqani to'g'risida signalizator o't oldirishni yoqganda bir necha marotaba miltirab so'ng o'chayapti. Shunday qilib u signalizator va xavfsizlik yostiqlari tizimi to'g'ri ishlayatgani to'g'risida bildirmoqda.

⚠ OGohlantirish!

Agar harakat vaqtida xavfsizlik yostiqlari nosozligi signalizatori lipillasa yoki yonib tursa, bu xavfsizlik yostiqlari tizimi nosoz ekanidan dalolat beradi. Xavfsizlik yostiqlari tizimi o'chiriladi va avariya yuz berganda ishlamasligi mumkin.

⚠ OGohlantirish!

Zudlik bilan tizimni avtoservisda tekshirtiring. Avtorlashtirilgan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz. Xavfsizlik yostiqlari tizimi nosoz bo'lganda harakatlanish shikastlanishga va, hatto, halok bo'lishga olib kelishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari tizimi nosoz bo'lganda signalizator:

- O't oldirish yoqilganda yonmaydi;
 - Bir necha marta chaqnagandan so'ng yonib turishni davom ettiradi.
 - Avtomobil harakati davomida yonib-o'chib turadi.
 - Harakat vaqtida doimiy yonib turadi.
- Xavfsizlik yostiqlari tizimi va boshqa passiv xavfsizlik tizimlarining tavsifini 1-bo'limdа o'qing.

Tormoz tizimi nosozligi signalizatori

(1) Tormoz tizimi nosozligi signalizatori dvigatel ishga tushirilishidan oldin o't oldirish yoqilganda yonadi.

Bu signalizator normal yonayotganini anglatadi. Dvigatel ishga tushganidan so'ng signalizator qisqa vaqt ichida o'chishi kerak.

Tormoz tizimi nosozligi signalizatori qo'l tormozi yoqilganda ham yonadi. Qo'l tormozi qo'yib yuborilganidan so'ng signalizator o'chadi. Joydan qo'zg'alishdan oldin qo'l tormozi butkul qo'yib yuborilganiga ishonch hosil qiling.

Joydan qo'zg'alishdan oldin qo'l tormozi butkul qo'yib yuborilganiga ishonch hosil qiling.

⚠ DIQQAT!

- Tormoz tizimi nosozligi signalizatori yonib turgan bo'lsa, harakatlanish man etiladi:
- Bu signalizatorning yonib turishi tormoz tizimi nosozligidan dalolat berishi mumkin.
- Tormoz tizimining nosozligi to'qnashuvga olib kelishi va shikastlanishga, avtomobilingiz zarar ko'rishiga yoki boshqa moddiy zararlarga sabab bo'lishi mumkin.

Agar qo'l tormozi butkul qo'yib yuborilgandan keyin ham tormoz tizimi nosozligi signalizatori yonib tursa, bu tormozlar gidroyuritmasi bakidagi tormoz suyuqligining darajasi pastligidan dalolat berishi mumkin.Bu holda quyidagi amallarni bajaring:

1. Ehtiyyotlik bilan yo'lning qatnov qismidan chetga o'ting va to'xtang.
 2. Tormozlar gidroyuritmasi bakidagi tormoz suyuqligining darajasini tekshiring.
 3. Tavsiya etiladigan tormoz suyuqligini MAX belgisigacha quying.
- Qaralsin:"TORMOZLAR/ILASHISH TIZIMIGA SUYUQLIK QUYISH"
4. Sharoit quyidagicha bo'lsa, xavfsiz tezlikda va ehtiyyot choralarini ko'rib, avtoservisga borish kerak:

- Tormozlar yaxshi ishlasa;
- Tashqi belgilarga ko'ra tormoz tizimi avtomobilning xavfsizligini ta'minlasa. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.
- 5. Sharoit quyidagicha bo'lsa, avtomobilni tekshirish va ta'mirlash uchun avtoservisga evakuatsiya qilish kerak:
- Tormoz tizimidan suyuqlik oqayotgani ma'lum bo'lsa;
- Tormoz tizimi nosozligi signalizatori chirog'i yonib tursa;
- Tormozlar lozim tarzda ishlamasida; Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.

⚠ DIQQAT!

- Agar qo'l tormozi yoqilib, o't oldirish yoqiq turganda tormoz tizimi nosozligi signalizatori yonmasa, avtomobildan foydalanish man etiladi.
- Signalizatorning chirog'i ishga yaroqli ekaniga ishonch hosil qiling. Agar qo'l tormozi yoqilib o't oldirish yoqiq turganda tormoz tizimi nosozligi signalizatori yonmasa, signalizatorning chirog'i ishlasa ham tormoz tizimini tekshirtilish uchun avtoservisga murojaat qilish kerak.

⚠ DIQQAT!

Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz. Mazkur alomatlar tormoz tizimida nosozlik borligidan dalolat beradi. - Tormoz tizimini ishga yaroqli holda saqlash bo'yicha talablariga rioya etmaslik to'qnashuvga olib kelishi va shikastlanishga, avtomobilingiz zarar ko'rishiga yoki boshqa moddiy zararlarga sabab bo'lishi mumkin.

Akkumulyator batareyasini quvvatlantirish tizimi ishdan chiqqani to'g'risida signalizator

[-+] akkumulyator batareyasini quvvatlantirish tizimi nosozligi signalizatori akkumulyator batareyasida quvvat yo'qligidan dalolat beradi. O't oldirilganda signalizator yonishi kerak. Dvigatel ishga tushirilgandan so'ng signalizator o'chishi kerak.

⚠ DIQQAT!

Bu signalizator akkumulyator batareyasini quvvatlantirish tizimida nosozlik borligidan dalolat beradi.

- Akkumulyator batareyasini quvvatlantirish tizimi nosozligi signalizatori yonib turgan avtomobildan foydalanish man etiladi. Quvvatlantirish tizimi nosoz avtomobilda harakatlanish avtomobil zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin.

Akkumulyator batareyasini quvvatlantirish tizimi nosozligi signalizatori yonsa, quyidagi larni bajaring:

- 1.Ehtiyyotlik bilan yo'lning qatnov qismidan chetga o'ting.
- 2.Avtomobilni to'xtating.
- 3.Yuritma kamari bo'shab qolmaganiga va uzilmaganiga ishonch hosil qiling. Qarang: "Yuritma kamari".
4. Agar yuritma kamari ishga yaroqli holatda bo'lsa-yu, akkumulyator batareyasini quvvatlantirish tizimi nosozligi signalizatori yonib turaversa, bu quvvatlantirish tizimida nosozlik borligidan dalolat berishi mumkin. Zudlik bilan avtomobilingizni ta'mirlash uchun avtoservisga olib boring.
- Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsya etamiz.

Dvigatelni moylash tizimidagi bosimni tushib ketish signalizatori

 dvigatelni ishga tushirishdan oldin avtomobil o't oldirilganda dvigatelni moylash tizimidagi bosim pasayishi signalizatori yonadi. Bu mazkur indikatorning chirog'i normal ishlayotganidan dalolat beradi.

Dvigatel ishga tushirilgach, signalizator o'chishi kerak.

Agar mazkur signalizator harakat vaqtida yonsa, bu dvigatelni moylash tizimidagi bosim xavfli darajada pasayganidan dalolat beradi. Zudlik bilan dvigatelni o'chiring va moy darajasini tekshiring.

⚠ DIQQAT!

Dvigatelni moylash tizimidagi bosim pasayishi xavfli bo'lishi mumkin.

- Dvigatelni moylash tizimidagi bosim pasayishi signalizatori yonib turgan avtomobildan foydalananish man etiladi. Moy bosimi past avtomobilda harakatlanish avtomobil jiddiy zarar ko'rishiga va keyinchalik ta'mirlash talab etilishiga olib kelishi mumkin. Bunday ta'mirlash ishlari ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlar bilan qoplanmaydi.

Moy bosimi past bo'lsa, tavsya etilgan sifatli moyni kerakli darajagacha quyying. Qarang: "MOTOR MOYINI VA MOY FILTRINI ALMASHTIRISH".

Agar moy darajasi normada bo'lsa, avtomobilni moylash tizimini tekshirish uchun avtoservisga murojaat qiling. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsya etamiz.

Ishdan chiqqanlik to'g'risida signalizator

 dvigatelni ishga tushirishdan oldin avtomobil o't oldirilganda nosozlik signalizatori qisqa vaqtga ishga tushadi. Bu mazkur indikatorning chirog'i normal ishlayotganidan dalolat beradi. Dvigatel ishga tushirilgach, signalizator o'chishi kerak."

⚠ DIQQAT!

Mazkur signalizatorning yonishi diqqat talab etiladigan muammo borligidan dalolat beradi. Nosozlik signalizatori yonib turgan avtomobilda harakatlanish chiqindi gaz zahrini kamaytirish tizimi zarar ko'rishiga olib kelishi va yonilg'i tejashga, avtomobilning harakatlanish xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Mazkur nosozlikni bartaraf etish uchun zudlik bilan avtoservisga murojaat qiling. Avtorlashtirilgan diler bilan maslahatlashishni tavsya etamiz.

Mazkur nosozlik signalizatori (MIL) zaharlilikni kamaytirish tizimi komponentlari va u bilan bog'liq kichik tizimlar nosozligida yonadi.

Boshqaruvni elektron bloklash tizimi (ECM) nosozlikni qayd etar ekan MIL signalizatori yonishda davom etadi. MIL signalizatori chirog'i yonib turgan avtomobilda harakatni davom ettirish katalitik neytralizator zarar ko'rishiga va ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlar bilan qoplanmaydigan qimmatbaho ta'mirlash ishlari olib kelishi mumkin. Agar akseleratorning tepkisi signalizatorning yonishi to'xtab, MIL indikatori doimiy yonib turish rejimiga o'tadigan darajagacha qo'yib yuborilsa, harakatni davom ettirish mumkin.

Ammo, imkoniyat bo'lishi bilan mazkur nosozlikni bartaraf etish uchun avtoservisga murojaat qiling. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.

Agar MIL signalizatori qisqa vaqtga yonsa va so'ng yana o'chsa, demak tizim normal ishlayapti va nosozlik yo'q. Agar avtomobil avtomatik uzatmalar qutisi bilan jihozlangan bo'lsa, qarang: "AVTOMATIK UZATMALAR QUTISINI ALMASHLAB ULASH AVARIYA DASTURI".

Ochilib qolgan eshik to'g'risida signalizator

Eshiklardan biri zich yopilmagan bo'lsa, ochiq eshik signalizatori yonadi

Shinalardagi havo bosimi indikatori

Mazkur avtomobil opsiyasiga shinalardagi havo bosimini nazorat qilish tizimi kirishi mumkin (TPMS).

Shinalarda bosim pastligi indikatori avtomobilning shinalarida havo bosimi sezilarli darajada tushib ketganidan xabardor qiladi. Agar nazorat chirog'i yonsa, zudlik bilan avtomobilni imkon qadar tezroq to'xtatib shinalarning bosimi avtomobilga qancha yuk ortilganini to'g'risidagi tablichkada ko'satilgan tavsiya etiladigan bosimgacha havoga to'dirish kerak. Shinalardagi bosim normal holatga kelmaguncha nazorat chirog'i yonib turaveradi.

Shinalarda havo bosimi pastligi chirog'i sovuq havoda, avtomobil o't oldirilganida yoqilishi mumkin va avtomobil harakatga kelganda o'chadi. Bu shinalardagi havo bosimi pasayayotganidan va shinalar kerakli bosimgacha to'dirilishi kerakligidan dalolat beradi.

TPMS shinalarga odatiy oylik qarashning orrnini bosmaydi. Shinalarda bosim tavsiya etilgan darajada bo'lishini kuzatib boring.

Osma qattiqligini rostlash tizimi

Elektron barqarorlashtirish tizimi (ESC) / Sijimasdan aylanishga qarshi tizim (TCS)

Chiroq yonishini namoyish etish uchun ESC indikatori avtomobil o't oldirilganda qisqa vaqtga yonadi. Agar harakat vaqtida indikator yonsa, demak ESC avtomobilga yo'l qoplamasи va barqarorlikni saqlashda faol yordam beryapti.


Agar ESC chiroqli indikatori yonib, keyin porlab tursa, bu tizim ishlamayapganini va haydovchiga barqarorlikni nazorat qilishda yordam bermayatganini anglatadi. Mazkur mashinani boshqarish xavfsiz, ammo avtomobilni boshqarishga tegishli tuzatish kiritilishi lozim.

Agar ESC chiroqli indikatori yonib, keyin porlab tursa, iltimos, tizimni tekshirish va barcha zarur ta'mirlash va diagnostika ishlarini bajarish

uchun eng yaqin rasmiy dileriga iloji boricha tezroq murojaat qiling.

Tizimni o'chirish

 chiroq yonishini namoyish etish uchun ESC off indikatori avtomobil o't oldirilganda qisqa vaqtga yonadi. ESC off indikatori ESC tizimi o'chirilganda yonadi. ESC off tugmasini indikator o'chmaguncha bir necha soniya bosib turing.



Tumanga qarshi oldi faralar indikatori*

 Tumanga qarshi oldi faralar yoqilganda yonib turadi.

Qarang: "TUMANGA QARSHI OLDI FARALAR".

Tumanga qarshi orqa faralar indikatori

Qazganda tumanga qarshi orqa faralar indikatori, tumanga qarshi orqa faralar yоqilganda yonib turadi. Qarang: "Tumanga qarshi orqa fonar".

Taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori

Avtomobil o't oldirilgandan so'ng taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori 5 soniya davomida yonib turadi, so'ng 2 soniyaga o'chadi. Bu tizim o'zini o'zi tekshirayotganini anglatadi.

Shundan so'ng, agar haydovchining xavfsizlik kamari mahkam taqilgan bo'lса, signalizator 90 soniya davomida o'chib-yonib turadi, so'ng haydovchining xavfsizlik kamari taqilmaguncha doimiy yonib turadi.

So'ng, agar tezlik soatiga 22 kilometrdan oshsa, signalizator yana o'chib-yonishni boshlaydi va bunda 90 soniya davomida ogohlantiruvchi ovozli signal beriladi.

ESLATMA

Agar signalizator o'chib-yonishni yoki yonib turishni boshlaganidan va tizim o'zini tekshirganidan so'ng haydovchi xavfsizlik kamarini taqsa, taqilmagan xavfsizlik kamari signalizatori o'chadi.

Qayilish / avariyyada chiroqli signalizatsiya ko'rsatkichi indikatori

◀ ➡ qayilish / avariyyada chiroqli signalizatsiya ko'rsatkichi indikatori qayilish yoki avariyyada chiroqli signalizatsiya ko'rsatkichlari sozligini ko'rsatadi.

Rul tagidagi qayilish ko'rsatkichlari boshqarish richagini yoki avariyyada chiroqli signalizatsiya tugmasini bosganda yashil strelnka yonib-o'chmasa, eruvchan saqlagich va qayilish ko'rsatkichlarining chirog'ini tekshiring. Zarurat bo'lса, saqlagich va chiroqlarni almashtiring.

ESLATMA

Indikator tez-tez yonib-o'chishi qayilish ko'rsatkichi chirog'i kuyganini va uni almashtirish kerakligini anglatadi.

DIQQAT!

Mazkur indikatorlar harakatlanish xavfizligini ta'minlash uchun zarus

- Qayilish / avariyyada chiroqli signalizatsiya ko'rsatkichi indikatorlari chiroqlarini zudlik bilan almashtiring.

Mazkur indikatorlarning chirog'i kuyishi to'qnashuvlarga sabab bo'lishi va shikastlanishga, avtomobil zarar ko'lishiga va boshqa moddiy zararlarga olib kelishi mumkin.

Faralarning uzoqni yoritish chirog'i indikatori


Faraklarning uzoqni yoritish chirog'i indikatori faralarning uzoqni yoritish chirog'i yоqilganda yonadi.

O'g'irlashga qarshi tizim indikatori

O'g'irlashga qarshi tizim indikatori o'g'irlashga qarshi tizim yоqilganda yonib-o'chadi.

Eshik kalit bilan yoki masofadan boshqarish pulti yordamida ochilganda, o'g'irlashga qarshi tizim indikatori o'chadi.

Eshik masofadan boshqarish pulti yordamida yopilganda o'g'irlashga qarshi tizim yonib-o'chadi. Qarang: "MASOFADAN BOSHQARILADIGAN MARKAZIY QULF". Qarang: "IMMOBILAYZER".



O'g'irlashga qarshi tizim indikatori

G6W2008A

AKKUMULYATOR BATAREYASINI QUVVATSIZLANISHDAN HIMOYALASH MOSLAMASI

Bu moslama akkumulyator batareyasini elektrsizlanishdan himoyalaydi.

Agar yoritish ulagichini “” yoki “” holatida qoldirib, o't oldirish kalitini chiqarib, haydovchining eshigi ochilsa, faralar avtomatik ravishda o'zi o'chadi.

ESLATMA


Agar salondagi tepe plafon yoqiq bo'lsa, o't oldirish kalitini chiqarib, haydovchining eshigi ochilsa, u o'chmaydi.

ULAB-UZGICHALAR VA BOSHQARISH ORGANLARI

Markaziy chiroq ulab-uzgichi

Faralarni, orqa gabarit yoki turish chiroqlarini yoqish yoki o'chirish uchun rul kolonkasidagi ko'p funksiyali richagning boshini burang. Markaziy chiroq ulab-uzgichi uchun quyidagi funksiyalarni ishga tushiruvchi uchta holat ko'zda tutilgan:

- **OFF:** Barcha tashqi yoritish moslamalarini o'chirish.
- Turish va orqa gabarit chiroqlarni, raqam belgisi va asboblar panelini yoritish chiroqlarini yoqish.
- Faralarning yaqinni yoritish chiroqlarini va yuqorida ko'satilgan barcha chiroqlarni yoqish.



O't oldirish kaliti LOCK yoki ACC holatiga qo'yilganda faralar avtomatik ravishda o'chadi.

Qayilish ko'rsatkichlarini boshqarish richagi


Qayilish

O'NGGA: qayilish ko'rsatkichlarini boshqarish richagini tepaga o'tkazing.

CHAPGA: qayilish ko'rsatkichlarini boshqarish richagini pastga o'tkazing.

Qayilib bo'lgandan so'ng qayilish ko'rsatkichi avtomatik ravishda o'chadi va richag normal holatga qaytadi.

Harakat chizig'i o'zgartirganda, qayilish ko'rsatkichlarini boshqarish richagini qisman yonga burang va ushlab turing. Qo'yib yuborilsa, richag normal holatga qaytadi.



Faralarning uzoqni yoritish chiroqlarini ulab-uzgich

Faralarning uzoqni yoritish chiroqlarini yoqish uchun quyidagilarni bajaring:


- Faralarning yaqinni yoritish chirog'i yoqilganiga ishonch hosil qiling.

- Ko'p funksiyali boshqarish richagini asboblar paneli tomon burang.

Faralarning uzoqni yoritish chiroqlari yoqilganda, faralarning uzoqni yoritish chiroqlari indikatori yonadi. Uzoqni yoritish chiroqlaridan yaqinni yoritish chiroqlariga o'tish uchun ko'p funksiyali boshqarish richagini normal holata kelguncha o'zingiz tomonga torting.

DIQQAT!


- Oldinda ketayotgan avtomobilarga yaqinlashganda albatta yoritish chiroqlaridan yaqinni yoritish chiroqlariga o'ting. Faralarning uzoqni yoritish chiroq'i boshqa haydovchilarining ko'zini olishi va to'qnashuvga sabab bo'lishi mumkin.



G9E2015A

Faralarning uzoqni yoritish chiroqlari bilan signal berish

Faralarning uzoqni yoritish chiroqlari bilan signal berish uchun ko'p funksiyali boshqarish richagini o'zingizga torting va qo'yib yuboring. Qo'yib yuborganda richag normal holatga qaytadi. Ko'p funksiyali boshqarish richagi tortilgan holatda turar ekan, faralarning uzoqni yoritish chiroqlari yonib turadi.




G9E2016A

Tumanga qarshi oldi faralarni ulab-uzgichi*

Tumanga qarshi faralarni o'chirish uchun:

- Markaziy chiroq ulab-uzgichi "⊗⊗" yoki "⊗" holatida turganiga ishonch hosil qiling.
- Chiroq ulab-uzgichi richaginining o'tasidagi halqali almashlab ulagichni ⚡ holatga burang. Qo'yib yuborilganda halqali almashlab ulagich avtomatik ravishda normal holatga qaytadi.

Tumanga qarshi faralar yoqilganda asboblar panelida tumanga qarshi faralar indikatori yonadi. Tumanga qarshi faralarni o'chirish uchun richagni yana ⚡ holatiga qaytaring. Tumanga qarshi oldi fonarlari indikatori o'chadi.




G9E2017A

Tumanga qarshi orqa fonar ulab-uzgichi

Tumanga qarshi orqa fonarni yoqish uchun yaqinni yoritish chiroq'i yoqiq bo'lganda yoki tumanga qarshi oldi fonar yoqiq bo'lganda peshoyna tozalagich richaginining uchini burang. Tumanga qarshi oldi fonar yoqilganda asboblar panelida tegishli indikator yonadi.

Tumanga qarshi orqa fonarni o'chirish uchun peshoynani tozalagich richaginining uchini burang.




O'ynatozalovchilar

⚠ DIQQAT!

- Haydovchi yo'lni yaxshi ko'rmasligi to'qnashuvga olib kelishi hamda odamlar va avtomobilning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar peshoyna quruq bo'lsa yoki peshoyna tozalagichning ishlashi qor yoki muz yopishgani tufayli qiyinlashgan bo'lsa p e s h o y n a t o z a l a g i c h n i yoqmang. Peshoynada to'siq bo'lgan holda peshoyna tozalagichni ishlatish cho'tkalar va peshoyna tozalagichning elektrdvigateli, shuningdek peshoynanining yuzasi shikastlanishiga olib keladi.


⚠ DIQQAT!

- Sovuq havoda peshoyna tozalagichni yoqishdan avval cho'tka peshoynaga yopishib qolmaganiga ishonch qiling.
- Cho'tkasi peshoynaga yopishib qolgan peshoyna tozalagichni ishga tushirish cho'tkalari va peshoyna tozalagichning elektrdvigateli, shuningdek peshoynanining yuzasi shikastlanishiga olib keladi. Mazkur zararlar ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.



G8D2003A

Peshoyna tozalagichni yoqish uchun avtomobilni o't oldiring va peshoynani tozalagich richagini tepaga ko'taring. Kerakli tezlikni tanlash uchun INT holatdaligida qadamba-qadam boshqarish kamarini tepastga aylantiring.



G8D2001A

ESLATMA

Eskirgani sayin peshoyna tozalagichning cho'tkalari peshoynani lozim darajada tozalash qobiliyatini yo'qotib boradi va ko'rinish yomonlashadi.
Peshoyna tozalagichning cho'tkalarini almashtiring.


Qisqa muddatli yoqish

Ozgina yomg'ir yoki tumanda peshoyna tozalagichini yoqish uchun shamol to'sadigan oynani tozalagichning richagini INT holat tomon ozgina suring va qo'yib yuboring.
Qo'yib yuborilganda richag avtomatik ravishda normal holatga qaytadi. Bu holatda cho'tkalar bir siki ishlaydi.

Peshoyna yuvgich**⚠ DIQQAT!**

- Haydovchi yo'lni yaxshi ko'rmasligi to'qnashuvga olib kelishi hamda odamlar va avtomobilning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga sabab bo'lishi mumkin.
- Sovuq kunda peshoyna yuvgichning suyuqligini peshoynaga sepmang.
- Peshoyna yuvgichini yoqishdan oldin peshoynani isiting.

Peshoyna yuvgichning suyuqligi peshoynaning yuzida muzlab, ko'rishni yomonlashtirishi mumkin.



Peshoyna yuvgichning suyuqligini peshoynaning yuziga sepish uchun:

- Avtomobilni o't oldiring.
- Peshoyna tozalagich-yuvgichning richagini o'zingizga torting.
Agar richag 0,6 soniyadan kam ushlab turilsa:
 - Yuvgichning suyuqligi peshoynaga sepiladi (peshona tozalagichning cho'tkalari ishlamaydi);
Agar richag 0,6 soniyadan ko'p ushlab turilsa:
 - Yuvgichning suyuqligi peshoynaga sepiladi.
 - Peshoyna tozalagichlar ikki siki ish bajaradi, bir soniya tanaffus qiladi va yana bir siki ish bajaradi

⚠ DIQQAT!

- Peshoyna yuvgich 10 soniyadan uzoq vaqt uzlusiz ishlashiga, shuningdek yuvgich baki bo'sh bo'lganida ishlashiga yo'l qo'y mang.
Bu yuvgichning elektrdvigateli qizib ketishiga olib keladi va qimmatbaho ta'mirlash ishlari talab etiladi.


Yuvivchi bochogni to'ldirish

Yuvgichning bakini to'ldirish bo'yicha tavsiyalar "PESHOYNA YUVGICHINING SUYUQLIGI" bo'limida keltirilgan.

Avariya chiroqli signalizatsiya

Avariya chiroqli signalizatsiyadan quyidagi hollarda foydalilanildi:

- Harakatning boshqa ishtirokchilarini favqulodda vaziyat to'g'risida ogohlantirish uchun.
 - Yo'lda xavf tug'ilganda.
- Avariya chiroqli signalizatsiyani avtomobil o't oldirilgan holatda ham, o't oldirilmagan holatda ham yoqish mumkin.
Yoqish uchun avariya chiroqli signalizatsiya tugmasini takror bosing.



Faralarning yaqinni yoritadigan chirog'ini tutamining burchagini rostlash


Faralarning yaqinni yoritadigan chirog'ini yozing va nur tutamining yo'nalishini avtomobilning yukiga qarab to'g'rilang.

0 = Haydovchi o'rindig'ida bir kishi. Oldingi o'rindiqlarda ikki kishi (haydovchi va oldingi yo'lovchi).

1 = Barcha o'rindiqlar band (salonda 5 kishi).

2 = Salonda 5 kishi va bagaj bo'limida yuk.

3 = Haydovchi o'rindig'ida bir kishi va bagaj bo'limida yuk.



Kunduzi harakatlanish chiroqlari*

(agar shu tizim ko'zda tutilgan bo'lسا) dvigatel ishga tushirilganda avtomatik ravishda yoqiladi. Kunduzi harakatlanish chiroqlari quyidagi hollarda yoqiladi:

- Dvigatel o'chirilganda;
- Turish chiroqlari yoqilganda;
- Faralarning uzoqni yoritish chiroqlari yoqilganda;
- Faralarning yaqinni yoritish chiroqlari yoqilganda.


KALITLAR VA QULFLAR

Yangi avtomobil komplektida ikkita kalit beriladi. Bitta kalitni zaxirada saqlash tavsiya etiladi. Kalitning raqami maxsus birkaga bosiladi.

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida kalitning raqamli birkasini avtomobildan tashqaridagi ishonchli joyda saqlang. Bundan tashqari, kalitning raqamini yozib olish va uni ham ishonchli joyda saqlash lozim.

Bu narsa kalit nusxasini ruxsatsiz tayyorlash ehtimolini istisno etadi.

Kalitning raqamli birkasi



G6D2016A


OGohlantirish!

Kalitni avtomobilda qoldirmang.

- Avtomobilni qulflab yuring;
- Kalitni o'zingiz bilan olib yuring.

ESLATMA
<p>Kalit yo'qotilgan taqdirda mazkur kalitning raqamiga qarab avtorlashtirilgan dilerlarga kalitning nusxasini tayyorlashga buyurtma berish mumkin. O'g'irlashdan himoya qilish uchun avtomobilingizda immobilayzer elektron tizimi o'rnatilgan. Avtomobilni ishga tushirish uchun faqat to'g'ri elektron kodli kalitdan foydalanish mumkin.</p> <p>Elektron kod noto'g'ri bo'lsa, dvigatel ishga tushmaydi, hatto kalit profil bo'yicha to'g'ri kelsa ham. Zaxira va qoshimcha kalitlarni faqat vakolatlangan dilerga buyurtiring.</p> <p>Qarang: "IMMOBILAYZER".</p>

Eshik qulflari
Kerakli boshqarish rejimini tanlash uchun, ovozni sozlash menyusida funksional tugmani bosing.

Dinamiklar orasidagi kerakli balansni tanlash uchun, [Ø] dastasini burang.

Stereo balansni sozlash (Balance)

1. MENU / OVOZ tugmasini bosing va ushlab turing.

2. Audio displayda Bal aks ettirilganda, funksional tugmani bosing.

3. Chastotani -15 dan +15 gacha oralig'ida sozlash uchun, [Ø] dastasini burang.

Feyderni sozlash Fad

1. MENU / OVOZ tugmasini bosing va ushlab turing.

2. Audio displayda Fad aks ettirilganda, funksional tugmani bosing.

3. Chastotani -15 dan +15 gacha oralig'ida sozlash uchun, [Ø] dastasini burang.

Ekvalayzerning sozlashlari EQ

Ekvalayzer rejimining sozlashlarini tanlang. Ovozni eshitirish uslubini (Pop / Rok / Kantri / Vokal / Jaz / Klassika) tanlash uchun

1. MENU / OVOZ tugmasini bosing va ushlab turing.

2. Audio displayda "P-EQ" aks ettirilganda funksional tugmani bosing.

3. Displayda Pop / Rok / Kantri / Vokal / Jaz / Klassika aks ettiriladi

4. Ovozni eshitirish uslubini tanlash uchun funksional tugmani bosing.

5. Tanlangan avvaldan belgilangan ekvalayzer rejimini bekor qilish uchun, "P-EQ" da funksional tugmani yana bir marta bosing va ushbu amallarni takrorlang.

Radiostansiyalarini sozlash

Siz bir betda 6 ta sevimli radiostansiyani, va jami 36 tagacha AM va FM stansiyalarini saqlashingiz mumkin.

1. Kerakli radiostansiyani toping yoki uning chastotasiga qo'lda sozlaning.
2. Tanlangan betni tanlash uchun 1 dan 6 gacha TANLANGAN [FAV] tugmasini bosing.
3. Siz ushbu radiostansiyani xotiraga saqlab yozmoqchi bo'lgan raqam ostidagi funksional tugmasini bosib, 1 soniyadan uzoqroq ushlab turing.
- Aks ettiriladigan sevimli betlarning sonini o'zgartirish uchun.
1. MENU / OVOZ tugmasini bosing.
2. Audio displayda aks ettirilganda, FAV 1 dan 6 gacha tugmasini bosing.
3. Sizga kerakli radiostansiya saqlab qolningan tanlangan uyaning raqami ostidagi funksional tugmani bosing.
4. Radiostansiyani saqlab qolish uchun, FAV tugmasini bosing.
- Xotirada saqlangan radiostansiyani tinglash
1. Audio displayda aks ettirilganda, FAV 1 dan 6 gacha tugmasini bosing.
2. Audio displayda aks ettirilganda, funksional tugmani bosing.

Radio ma'lumot tizimi (RDS)

AF (avtosozlanish) yoqilgan / o'chirilgan

AF funksiyasi doimo radiopriyomnikni eng aniq signali bo'lgan stansiyaga sozlab turadi.
MENU / OVOZ rejimida "radio" tugmasini bosing, va radiopriyomnik radio menyusini aks ettiradi.

RDS ostidagi funksional tugmani bosing, axborot - ko'ngil ochar tizimi RDS menyusini aks ettiradi.

AF yozuvি ostidagi funksional tugmani bosing. Siz ushbu funksional tugmani bosganingizda, AF funksiyasi yoqiladi va o'chiriladi.

Mintaqaviy eshittirish yoqilgan / o'chirilgan

Mintaqaviy stansiya funksiyasi axborot-ko'ngil ochar tizimini mahalliy stansiyaga o'tkazadi ("Mintaqaviy stansiya o'chirilgan").

"Radio" rejimida MENU / OVOZ tugmasini bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi radio menyusini aks ettiradi.

RDS ostidagi funksional tugmani bosing, axborot - ko'ngil ochar tizimi RDS menyusini aks ettiradi.

REG yozuvি ostidagi funksional tugmani bosing, mintaqaviy eshittirish funksiyasi

Funksiya tugmasini har bir bosishda yoqiladi / o'chiriladi.

Yo'l vaziyati haqidagi xabarlarni qabul qilish

Yo'l yangiliklari kanalining xabarlarini tinglash uchun TP / INFO tugmasini bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi yo'l vaziyati haqidagi xabarlarni yoqadi.

Agar axborot-ko'ngil ochar tizimi yo'l vaziyati haqidagi xabarlar rejimida bo'sa, yo'l vaziyati xabarlari kanalini o'chirish uchun TP / INFO tugmasini bosing.

Yo'l vaziyati haqidagi xabarlarni beruvchi stansiyani izlash

Yo'l vaziyati haqidagi xabarlar kanali bo'limgan radiostansiyani tinglash paytida TP / INFO tugmasini bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi yo'l vaziyati xabarlarini uzatib turuvchi keyingi stansiyani izlashni amalga oshiradi.

Yordamchi moslamalar

USB-tashuvchilardan qayta eshittirish USB-tashuvchilar bilan ishlashda ehtiyoj choralari

- USB-tashuvchilarning ichki o'rnatigan qattiq disk bilan, shuningdek USB-adapter orqali ulangan CF yoki SD kartalar bilan ishlay olishi kafolatlanmaydi.
- Flesh-xotirasi bo'lgan USB-tashuvchidan foydalaning.
- USB-tashuvchini ularshda va o'chirishda statik elektr razryadlarga yo'l qo'yamng. Moslama qisqa vaqt ichida ko'p marta yoqilganda va o'chirilganda, moslama bilan aloqa yuzasidan muammolar yuzaga kelishi mumkin.
- Metalldan yasalmagan uya orqali USB-moslamalarning ulanishi kafolat qilinmaydi.
- i-Stick turidagi USB-moslamalarning ulanishi avtomobilning tebranishi sababli ishonchli bo'lmasi mumkin; bunday moslamalarning ishlashi kafolatlanmaydi.
- USB-uyaga tegmang, va unga begona buyumlar bilan tegmang.
- Faqat FAT 16/32 fayl tizimi bo'lgan USB-moslamalar tanib olinadi. Faqat sektor o'chami 512 yoki 2048 bayt bo'lgan moslamalar qo'llab-quvvatlanadi. NTFS va boshqa fayl tizimlari tanib olinmaydi.

- Tanib olish payti USB-moslamaning tur va sig'imiga, va yozib olingen fayllarning turiga bog'liq bo'ladi. Bu tizimning nosozligiga bog'liq emas; uni tanib olishning tugashini kutib turing.
- Ba'zi USB-moslamalarda fayllar mos kelish muammolar tufayli tanib olinmasligi mumkin. Xotira kartalaridan axborot o'qish moslamalari va USB-konsentratorlar qo'llab-quvvatlanmaydi. Moslamadan foydalanishdan avval, avtomobilda uning ishlashini tekshiring.
- Tashqi disk rejimida ulangan MP3-pleyerlar, mobil telefonlar, raqamli fotoapparatlar va boshqa moslamalar tegishli ravishda ishlasmasligi mumkin.
- USB-moslamani qayta eshittirish paytda ajratib olmang. Bu tizimning shikastlanishiga yoki USB-moslamaning nosozligiga olib kelishi mumkin.
- O't oldirish o'chirilganda, ulangan USB-moslamani o'chiring. USB-moslama ulanganda o't oldirish yoqilganda, moslama shikastlanishi mumkin yoki uning ishlashi buzilishi mumkin.

D/QQAT!

USB-tashuvchilarni tizimga faqat musiqa fayllarini qayta eshittirish uchun ularash mumkin.
USB tizimining uyasidan USB-moslamalarni zaryadlash uchun foydalanish kerak emas, chunki USB-uyanigan qizishi ishslashning yomonlashuviga yoki tizimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Agar USB - tashuvchi mantiqiy disklarga bo'lingan bo'lsa, faqat birinchi mantiqiydiskdagi musiqa fayllari qayta eshittiriladi. Shuning uchun musiqa fayllarini moslamaning birinchi mantiqiy diskida saqlash kerak. Agar unda dasturiy ta'minot uchun alohida bo'lim ajratilgan bo'lsa, USB-tashuvchidan ovozli fayllarni qayta eshittirishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin.
- DRM himoyasi bo'lgan musiqa fayllarini qayta eshittirish mumkin emas.

USB rejimini tanlash

Boshqa rejimidan USB ga o'tish uchun, SRC/PAUSE tugmasini bosing.

USB moslamasini ularash

USB fayllarini avtomatik qayta eshittirish uchun, USB moslamasini USB uyasiga ulang.

USB moslamasini chiqarib oling
USB moslamasini USB-uyasidan chiqarib oling.

Pauza

USB moslamalaridan qayta eshittirish paytida pauzaga qo'yish uchun, SRC/PAUSE tugmasini bosing va ushlab turing.
Displayda "PAUSE" aks ettiriladi.

USB moslamalaridan yana qayta eshittirish uchun, SRC / PAUSE tugmasini bosing va ushlab turing.

- Agar axborot-ko'ngil ochar tizimiga AUX jihoz-uskunasi ulangan bo'lса, bu holda pauza funksiyasi ishlamaydi.

Qayta eshittirilayotgan trekni o'zgartirish
Keyingi yoki avvalgi trekni qayta eshittirish uchun,◀ TUNE yoki ▶ TUNE tugmasini bosing.

Qayta eshittirish joyini o'zgartirish
Oldinga yoki orqaga aylantirish uchun,◀ TUNE yoki ▶ TUNE tugmasini bosing va ushlab turing, keyin esa qo'yib yuboring.
Siz tugmani qo'yib yuborganingizda, fayl normal rejimda qayta eshittirila boshlaydi.

USB-moslamasida qayta eshittirish papkasini o'zgartirish
Keyingi yoki avvalgi papkaga o'tish uchun, ◀ SEEK yoki ▶ SEEK tugmasini bosing.

Qayta eshittirish rejimi (RPT/RDM/INT)
RPT (TAKRORLASH) yozuvni ostidagi **funktsional tugmani** bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi joriy treknini qayta eshittirishni doimiy takrorlab turadi. Bu funksiyasini bekor qilish uchun, **RPT** belgisi ostidagi **funktsional tugmani** yana bir marta bosing.

RDM (TASODIFIY TARTIB) yozuvni ostidagi **funktsional tugmani** bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi treklarni tasodifiy tartibda qayta eshittira boshlaydi.

Ushbu funksiyani bekor qilish uchun, **RDM** belgisi ostidagi **funktsional tugmani** yana bir marta bosing.

INT yozuvni ostidagi **funktsional tugmani** bosing, va axborot-ko'ngil ochar tizimi har bir trekning birinchi bir necha soniyasini ketma-ket qayta eshittira boshlaydi.

Ushbu funksiyani bekor qilish uchun, **INT** belgisi ostidagi **funktsional tugmani** yana bir marta bosing.

Orqaga / odlinga tez aylantirish
Menyuning kerakli bandiga o'tish uchun, ◀ IZLASH ▶ belgisi ostidagi **funktsional tugmani** bosing, keyin ENT belgisi ostidagi tugmani bosing.

Bekor qilish yoki avvalgi amal
Avvalgi amalgा qaytish uchun, ◀ belgisi ostidagi tugmani bosing.

Tashqi audio signal manbai (AUX)
Axborot-ko'ngil ochar tizimining yuza panelining o'ng pastki tomonida bitta 3,5 mm diametrli qo'shimcha kirish uyasi bor.
Bu audio chiqish emas, audio qulqoliklarni oldingi qo'shimcha uyaga ulamang.
Boshqa moslamalarни ulash audio tizimning nosozligiga va shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
Mashinani boshqarishning xavfsizligiga ta'sir qiladigan bিор-биr moslamalardan foydalanmang.

TELEFON

AUX IN rejimini tanlash

Boshqa qayta eshittirish rejimida SRC/PAUSE tugmasini bosing.

Agar qo'shimcha uyada shteker borligi aniqlanmasa, bu rejim yoqilmaydi.

AUX rejimini tanlash:

1. AUX uyasiga moslamani ulang.

2. SRC/PAUSE tugmasini bosing.

3. Moslamani yoqing.

4. Ovoz balandligini oshirish yoki kamaytirish uchun, sozlash dastasini sozlang.

ESLATMA

Moslamani audio tizimning tugmalari yordamida boshqarish mumkin emas.

Telefonni Bluetoothga ularash

Moslamalarni bog'lash tartibi

BLUETOOTH [*] tugmasini bosing. Moslamalarni bog'lash amallari ishga tushiriladi.

1. Displaydagи "PAIRING" (BOG'LASH) yozuviga ostidagi **funktional tugmani** bosing.

2. Telefonda moslamalarni izlashni bajaring va "CAR AUDIO" (AVTOMOBIL AUDIO TIZIMI) nomi ostidagi moslamani tanlang.

Audio tizimning displayida 3 soniya ichida ulangan moslamaning nomi aks ettirilishi kerak. Bog'lash yakunlanidan keyin audio tizim Mode Selection (rejimini tanlash) rejimiga o'tadi va displayda BT yozuviga aks ettiriladi.

Bluetooth ularishi telefonning modeliga bog'liq holda, vaqt-vaqt bilan uzilishi mumkin.

Uni yana ularash uchun, ushbu yo'l-yo'rqliqlarga amal qiling.

- Telefon orqali Bluetooth funksiyalarini yoqing va o'chiring, va yana urinib ko'ring.
- Telefonni yoqing va o'chiring, va yana urinib ko'ring.
- Telefondan batareykani chiqqarib oling, uni qayta yoqing va yana urinib ko'ring.
- Ushbu moslamani qayta yoqing va yana urinib ko'ring.
- Barcha ulangan moslamalarni, juftlarni yo'q qiling va yana urinib ko'ring.

Avtomatik ularish

1. Ta'minot yoqilganda axborot-ko'ngil ochar tizimi Bluetooth orqali avval ulangan moslamaga avtomatik ularishga urinib ko'radi.

2. Agar bog'langan moslama Bluetoothning ta'sir etish zonasidan tashqariga chiqib ketgan bo'lса (10m), keyin esa yana shu zonaga qaytgan bo'lса, axborot-ko'ngil ochar tizimi avtomatik ravishda ular bilan aloqani tiklashga urinadi.

Ajratib olish tartibi

Axborot-ko'ngil ochar tizimi Bluetooth moslamasiiga ulanganda, [*] (Bluetooth) tugmasini bosing.

Keyin Bluetooth menyusi paydo bo'ladi.

1. "UNPAIRING" yozuviga ostidagi tugmani bosing.

2. Bluetooth moslamasini ajratish uchun "YES" yozuviga ostidagi tugmani bosing.
"NO" tanlab olinganda, axborot-ko'ngil ochar tizimi Bluetooth moslamasi bilan ularishni davom ettiradi.

Audio bluetooth

A2DP rejimi

AUDIO PLAY yozuviga ostidagi **funktional tugmani** bosing.

PLAY

Ulagan Bluetooth moslamasidan fayllarni qayta eshittirishni boshlash uchun, displayda

belgisi ►/|| ostidagi **funktional tugmani** bosing.

Pauza

Eshittirilayotgan MP3-faylni qayta eshittirishni to'xtatish uchun, displayda ►/|| belgisi ostidagi **funktional tugmani** bosing.

Keyingi / avvalgi trek

Displayda belgilari ▲/▼ ostidagi funksional tugmalarini bosing, va keyingi / avvalgi treknini qayta eshittirish boshlanadi.

Baland ovozli aloqa moslamasi bo'lgan telefon

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish

Qo'ng'iroq qilish

1. Displayda **Call (Chaqirish)** yozuvini ostidagi **funktional tugmani** bosing.

2. Displayda **Last Call (Oxirgi chaqirish)** yozuvini ostidagi **funktional tugmani** bosing.

Displayda audio tizimning "Dialing..." (raqam terilmoxda) va Connected (aloqa o'rnatildi) xabari aks ettiriladi.

Kiruvchi qo'ng'iroq

Audio tizimda 3 soniya davomida "Incoming Call" (Kiruvchi qo'ng'iroq) xabari aks ettiriladi, keyin displayda **JAVOB BERISH** yoki **JAVOB BERMASLIK** yozuvini ostidagi funksional tugmasi bosilmaguncha "Kiruvchi qo'ng'iroqning raqami" aks ettiriladi.

1. Displayda **JAVOB BERISH** yozuvini ostidagi funksional tugmani bosing, va audio tizim abonentlarning ularishini amalga oshiradi.

2. Displayda **JAVOB BERMASLIK** yozuvini ostidagi funksional tugmani bosing, va audio tizim boshlang'ich rejimga qaytadi.

Suhbat paytida

Telefon orqali suhbat paytida displayda **MIC MUTE (MIKROFONNI O'CHIRISH)** yozuvini ostidagi **funktional tugmani** bosing, va mikrofon o'chiriladi.

Telefon orqali suhbat paytida displayda **PRIVATE** (Maxfiy rejim) yozuvini ostidagi **funktional tugmani** bosing, va audio tizim maxfiy rejimga o'tadi.


Telefon orqali suhbat paytida displayda **HANG UP (SUHBATNI YAKUNLASH)** yozuvini ostidagi **funktional tugmani** bosing. Audio tizim boshlang'ich rejimga qaytadi.

Rul chambaragidagi masofadan boshqarish organlari*

Audio tizimning asosiy amallari rul g'ildiragidagi o'tkazgichlarning yordamida ham bajarilishi mumkin.

ESLATMA

Agar qo'shimcha AUX uyasida (tashqi signalning manbai) shteker mavjud bo'lmasa, AUX rejimi yoqilmaydi.



N5G4001A

Tugmalar	Funksiyalar
PWR	<p>Bu qismida elektr ta'minot yoqilganda:</p> <p>Qisqa vaqtga bosish: Ovozsiz rejimni yoqadi</p> <p>Uzoq bosish: Elektr ta'minotni uzatishni o'chiradi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Bu qismida elektr ta'minot o'chirilganda: <p>Ushbu tugmani bosish bu qismida elektr ta'minotni yoqadi.</p>
MODE	<p>Audio rejimni tanlash uchun foydalilaniladi.</p> <p>AM ® FM ® (AUX) ® AM ga qaytadi.</p>
SEEK	<ul style="list-style-type: none"> • Radio rejimida <p>Qisqa vaqtga bosish: Keyingi tanlangan stansiyaga o'tadi</p> <p>Uzoq bosish: Avtomatik sozlashni boshlaydi</p>
VOLUME (+) (-)	<ul style="list-style-type: none"> + tomoniga: Ovoz balandligini oshiradi - tomoniga: Ovoz balandligini kamaytiradi

6

AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH

• AVTOMOBIL ASBOBLARI	6-2
• SHIKASTLANGAN G'ILDIRAKNI ALMASHTIRISH	6-2
DVIGATELNI BOSHQA AVTOMOBILNING	
• AKKUMULYATOR BATAREYASIDAN ISHGA TUSHIRISH	6-5
• AVTOMOBILNI SHATAKKA OLİSH	6-7
• QIZIB KETISH	6-10
• ESLATMALAR	6-12

AVTOMOBIL ASBOBLARI

Zaxira g'ildirak, domkrat va boshqa asboblар yukxona bo'limida saqlanadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Saqlash paytida domkrat, zaxira g'ildirak, asboblар va jihozlar o'z joylarida mahkamlangan bo'lishi lozim.

- Zaxira g'ildirak, domkrat yoki boshqa asboblarni avtomobilning salonida goldirmang.

Kerakli tarzda mahkamlanmagan asboblар avtomobilni shoshilinch tormozlash yoki yo'l-transport hodusasi holatida yo'llovchilar uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Domkrat va boshqa asboblар yukxona bo'limida saqlanishi kerak.

Asboblар ularni topish oson bo'ladijan qilib joylashtirilishi lozim.

Qo'shimcha axborotni olish uchun "G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR" bo'limiga qarang.

Domkratning texnik xususiyatlari

Eng yuqori ish yuklanishi: 650 kg

ESLATMA

Avtomobilning harakati paytida begona shovqinlar paydo bo'lshining oldini olish uchun domkrat, domkrat dastasini va boshqa asboblarni yukxona bo'limining poli ostiga qo'yish kerak.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Ushbu domkrat avtomobilning bu modeli uchun maxsus ishlab chiqilgan.

- Undan avtomobilarning boshqa modellari uchun foydalanish tavsiya etilmaydi.
- Domkrat bilan ishlaganda uning maksimal yo'l qo'yiladigan yuklanishidan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ushbu domkratdan boshqa avtomobillar uchun foydalanish uning buzilishiga yoki avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi, shuningdek tan jarohatlariga sabab bo'lishi mumkin.

SHIKASTLANGAN G'ILDIRAKNI ALMASHTIRISH

Shikastlangan g'ildirakni almashtirishdan avval quyida keltirilgan xavfsizlik bo'yicha yo'rqnoma bilan tanishib chiqish kerak.

G'ildirakni almashtirishda ehtiyoj choraları


G'ildirakni almashtirishda ehtiyoj choraları

1. Avariiali yorug'lilik signalizatsiyasini yoqing.
 2. Avtomobilni asosiy harakat yo'lidan yetarli uzqollikdagi joyda to'xtating.
 3. Uni tekis va qattiq asosi bo'lgan joyda to'xtatib goldirish kerak. "AVTOMOBILNI TO'XTATIB QOLDIRISH".
 4. Motorni o'chiring va o't oldirish kalitini chiqarib oling.
 5. To'xtatib turish tormozini o'nating.
 6. Barcha yo'llovchilar avtomobilning salonidan chiqishi va undan xavfsiz masofaga uzqlashishi kerak.
 7. Almashtirilayotgan g'ildirakga nisbatan diagonal yo'nalishda joylashgan g'ildirak ostiga ikki tomonidan ponalarни, yog'och bo'laklarini yoki katta toshlarni qo'ying.
- Ushbu xavfsizlik qoidalariга rioxal qilmaslik avtomobil domkratdan sirg'alib ketishiga olib kelishi mumkin, bu o'z navbatida jiddiy tan jarohatlariga sabab bo'lishi mumkin.

Shikastlangan g'ildirakni almashtirish

1. Yukxona bo'limidan zaxira g'ildirakni, domkratni va boshqa asboblarni oling.
2. G'ildirak kaliti yoki yassi otvertka yordamida g'ildirakdan (mavjud bo'lganda) qalpoqni yechib oling.


Agar avtomobil g'ildirakning burab mahkamlanadigan qalpoqlari bilan jihozlangan bo'lsa, g'ildirak kalitining yordamida to'rtta plastik qalpoqchani bo'shating va g'ildirakning qalpog'ini yechib oling.



⚠ DIQQAT!


G'ildirak ko'tarilmaguncha g'ildirakdan gaykalarni va boltlarni chiqarib olmang.

3. G'ildirak kaliti bilan g'ildirakning har bir boltini bitta aylanaga burab bo'shating.
4. Domkratning dastasini va g'ildirak kalitini domkratga o'rnatiting.
5. G'ildirakni ko'tarish uchun domkratning dastasini soat milining yo'nalishida aylantiring.
6. Domkratni quyidagi rasmda ko'satilgan holatiga o'rnatiting. Avtomobilning oldingi va orqa eshiklari tagidagi eshiklar ostida domkrat uyasi mavjud.



⚠ DIQQAT!

Domkrat o'rnatilmaguncha va to'g'ri holatida ishonchli mahkamlanmaguncha avtomobilni ko'tarishiga urinmang.



⚠ DIQQAT!

- Avtomobilni ko'tarish paytida domkratning ishonchli joylashganiga ishonch hosil qilish kerak, aks holda u avtomobilning tagidan sirg'alib chiqib ketishi mumkin.

ESLATMA

Avtomobilni g'ildirakni almashtirish uchun zarur bo'lgan, lekin undan yuqori bo'lмаган balandlikka ko'tarish lozim.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Domkratga o'rnatilgan avtomobilning tagida turmang va dvigateli ishga tushirmang.

Domkrat sirg'alib chiqib ketishi mumkin, buning oqibatida jiddiy jarohatlar yoki o'lim yuzaga kelishi mumkin.

9. G'ildirak kalitini soat miliga qarshi yo'nalishda aylantirib, barcha gaykalarni va boltlarni oxirgacha bo'shating, keyin esa ularni g'ildirakdan chiqarib oling.

10. G'ildirakni yechib oling.

11. G'ildirak o'qiga zaxira g'ildirakni o'rnatung.

⚠ DIQQAT!

- Hech qachon g'ildirakning gaykalari yoki boltlarini moy yoki moylash vositasi bilan moylamang.

Doimo faqat g'ildirakka mos keladigan gaykalar va boltlardan foydalaning.

Asboblar to'plamining ichida yetkazib beriladigan g'ildirak kalitining yordamida, g'ildirakdagagi gaykalarni va boltlarni ishonchli tortib mahkamlang.


Gaykalarni va boltlarni spetsifikatsiyalarga muvofiq holda tortib mahkamlash uchun imkonи boricha tezroq avtoservis markaziga murojaat qilish lozim.

Agar gaykalar yoki boltlar noto'g'ri tortib mahkamlansa, ular vaqt o'tishi bilan bo'shab qolishi mumkin. Vakolatlangan dilerga murojaat qilishni tavsya etamiz.

12. G'ildirakning gaykalari va boltlarini o'rnatning va g'ildirak kalitini soat milining yo'nalishida aylantirib, sal mustahkamlang.

13. Avtomobilni yerga qo'yish uchun, domkratning dastasini soat miliga qarshi yo'nalishda aylantiring.

14. G'ildirakning gaykalari va boltlarini 140 Nm momenti bilan, diagonal tartibida, 1→2→3→4→5 ketma-ketligida ishonchli tortib mahkamlang; (quyidagi rasmga qarang).



⚠ OGOHLANTIRISH!

Ishonchli tortib mahkamlangan gaykalar va boltlar barcha kerakli talablarga mos kelishiga ishonch hosil qiling.

Tavsya etilmagan detallardan foydalanish yoki boltlarni yetarlichcha tortib mahkamlamaslik ularning buralib, tushib ketishiga olib kelishi mumkin.

15. G'ildirak qalpog'ini, agar kerak bo'lsa, mahkamlang. Qalpoqli g'ildirakka boltlarni o'rnatishda quyidagi amallarni bajaring:

- G'ildirak qalpog'ini o'rnatning;
- Plastmassa qalpoqchalarni qo'lda o'rnatning;
- Ularni 6 Nm momenti bilan ballon kaliti bilan tortib mahkamlang, keyin ballon kalitini yana 90° ga burang.

⚠ DIQQAT!

G'ildirak qalpog'ini vaqtinchha zaxira g'ildirakka qo'y mang). Qalpoq yoki g'ildirak shikastlanishi mumkin.

16. Domkratni, asboblarni va shinasingin havosi chiqqan g'ildirakni ular uchun mo'ljallangan joyga olib qo'ying.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Domkratni yoki asboblarni avtomobilning salonida qoldirmang.

Kerakli tarzda mahkamlanmagan asboblar avtomobilni shoshilinch tez tormozlash holatida yoki yo'l-transport hodisasi bo'lganda yo'lovchilar uchun xavfli bo'lishi mumkin.

**DVIGATELNI BOSHQA
AVTOMOBILNING AKKUMULYATOR
BATAREYASIDAN ISHGA TUSHIRISH**

⚠ DIQQAT!

Domkratda ko'tarilgan avtomobil o'z barqarorligini yo'qotadi, bu esa avtomobilga zarar yetkazishi va kishilarning jarohatlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Faqat yetkazib beriladigan, to'g'ri holatda o'rnatilgan domkratdan foydalanish kerak.
- Domkrat yerga perpendikulyar holda o'rnatilgan bo'lishi kerak.
- Domkratga o'rnatilgan avtomobilning tagida turish mumkin emas.
- Domkratga o'rnatilgan avtomobilning dvigatelni ishga tushirish mumkin emas.
- Avtomobilni domkratga o'rnatishdan avval barcha yo'lovchilar avtomobilning salonidan chiqib ketishi va xavfsiz masofaga (shu jumladan boshqa transportdan) ketishilozim.
- Domkratdan faqat g'ildiraklarni almashtirish uchun foydalanish lozim.
- Domkratni nishabli yoki sirpanchiq yuza ustida turgan avtomobilning tagiga o'rnatish xavfli bo'ladi.
- Domkratni bevosita almashtirish lozim bo'lgan g'ildirakning yonida o'rnatish kerak.
- Almashtiriladigan g'ildirakka nisbatan diagonali bo'yicha joylashgan g'ildirakni bloklash kerak.
- Avtomobilni domkrat bilan ko'tarishdan avval to'xtab turish tormozini tortib ko'taring, birinchi yoki orqa uzatmani

⚠ DIQQAT!

yoqing (mexanik uzatmalar qutisi) yoki uzatmalarni o'zgartirish dastagini «P» holatiga o'rnatning (avtomatik uzatmalar qutisi).

- G'ildirakni almashtirishni harakatlanayotgan transport yaqinida bajarmang.

⚠ DIQQAT!

G'ildirakni almashtirish uchun sharoit bo'lmaganda yoki o'z kuchingiz va imkoniyatingizga ishonmasangiz, avtomobillar ustaxonasiga murojaat qiling

⚠ DIQQAT!

- Avtomobilni itarib yoki shataffa olib, dvigatelni ishga tushirishga urinmang. Bu katalitik neytralizator, avtomatik uzatmalar qutisining shikastlanishiga, shuningdek kishilarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanganda, dvigatelni ishga tushirish uchun boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan foydalanish mumkin.

⚠ OGOLANTIRISH!

Akkumulyator batareyalari portlashdan xavfli bo'ladi.

Elektrolit tufayli kuyish yoki qisqa tutashuv bo'lishi mumkin, bu esa og'ir jarohatlar olishta yoki avtomobilning detallari shikastlanishiga olib keladi.

- Akkumulyator batareyalaridan alanga yoki uchqunlar manbalaridan yaqin joyda foydalanmang.
- Boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan dvigatelni ishga tushirishda, akkumulyator batareyasini chetga og'dirmang.
- Simlarning qisqa tutashuviga yo'l qo'yamang.
- Akkumulyator batareyasining yonida ishlaganda himoya ko'zoynakni taqish lozim.

⚠ OGOLANTIRISH!

- Elektrolitning ko'zga, teriga, kiyim ustiga yoki bo'yalgan yuzalarga tegishiga yo'l qo'y mang.
- Ikkala avtomobilning akkumulyator batareyalari bir xil nominal ularishiga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Zaryadsizlangan akkumulyator batareyasini qismalgarda ajratmang.

Ushbu xavfsizlik choralarini bajarmaslik yoki boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan uzaytirish simlari yordamida dvigatelni ishga tushirish yuzasidan quyidagi yo'l-yo'rqliarga et'tibor bermaslik akkumulyator batareyasining portlashiga, elektrolit tufayli kuyishga yoki qisqa tutashuvga olib kelishi mumkin.

Bularning barchasi ikkala avtomobilning elektr tizimlari jiddiy shikastlanishlariga olib kelishi, shuningdek og'ir tan jarohatlari olinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan dvigatelni ishga tushirishdan avval:

- To'xtab turish tormozini yoqing.
- Avtomatik uzatmalar qutisi mavjud bo'lganda PARK uzatmasini yoqing, mexanik uzatmalar qutisi bo'lganda uzatmalar qutisining dastagini neytral holatiga o'tkazing.
- Barcha elektr asboblarini o'chiring.

⚠ DIQQAT!

- Boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasidan dvigatelni ishga tushirishdan avval audiotizimni o'chirish kerak. Aks holda bu uning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
Bunday nosozliklarni bartaraf etish ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlar bilan qoplanmaydi.

⚠ OGOLANTIRISH!


- Uzaytirish simlari motor bo'llimidagi aylanadigan detallarga tegmasligini nazorat qiling.
Bu ushu detallarning jiddiy buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Uzaytirish simlарини улаш.

Uzaytirish simlari quyidagi tartibda ulanadi:

- Birinchi uzaytirish simining qisqichini yordamchi akkumulyator batareyasining musbat chiqishiga ulang (akkumulyator batareyasining korpusi ustidagi yoki chiqishning o'zidagi «+» belgisidan aniqlanadi).
- Bu simning boshqa uchi zaryadsizlangan akkumulyator batareyasining musbat chiqishiga ulanadi (+ belgisi qo'yilgan).
- Ikkinci uzaytirish simining birinchi qisqichini yordamchi akkumulyator batareyasining manfiy chiqishiga ulanadi (batareyasining

korpusi ustidagi yoki chiqishning o'zidagi «-» belgisidan aniqlanadi).

**⚠ OGOLANTIRISH!**

Ikkinci uzaytirish simining qolgan uchini zaryadsizlangan batareyaning manfiy (-) chiqishiga ulamang.

- Bu qisqichni dvigatelning biror-bir metall kronshteyniga mahkamlash kerak.
- Bu kronshteyn akkumulyator batareyasidan imkonli boricha uzoqroq joylashishi kerak.

Oxirgi qisqichni zaryadsizlangan akkumulyator batareyasining manfiy chiqishiga ularish elektr yoyining hosil bo'lishi yoki akkumulyator batareyasining portlashiga olib kelishi mumkin.

Bu kishilarning jarohatlanishiga va avtomobilning detallari shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

AVTOMOBILNI SHATAKKA OLİSH

4. Ikkinci uzaytirish simining ikkinchi uchini boshqa avtomobilida yerga tutashtirishga, masalan, motorning blokiga boltlar bilan mahkamlangan po'lat kronshteyngan ulanadi.

5. Zaryadsizlangan batareyani zaryadlash davomida, dvigateli ishga tushirish qaysi avtomobilning batareyasidan bajarilsa, uning dvigatelining ishlashiga yo'l qo'yiladi.

ESLATMA

Akkumulyator batareyasi zaryadsizlangan avtomobilning dvigatelinini ishga tushirishga urinish orasidagi vaqt kamida bir daqiqa, har bir urinishning davomiyligi esa - ko'pi bilan 15 soniya bo'lishi kerak.

Dvigatel muvaffaqiyatlari ishga tushirilganidan keyin:

1. Minusli (manfiy) simning uchlarni ehtiyoj bo'lib ajratib oling. Akkumulyator batareyasi zaryadsizlangan avtomobildan boshlash lozim. Avtomobilning dvigatelinini o'chirmang.

2. Manfiy simning qisqichini boshqa avtomobilning akkumulyator batareyasining manfiy chiqishidan ajratib oling.

3. Ikkala akkumulyator batareyalarining musbat chiqishlaridan sim qisqichlarini ajratib oling. Uzaytirish simlarini yukxonaga, zaxira g'ildirakning yoniga qo'ying.

4. Dvigateli ishga tushirishdan keyin avtomobil kamida 20 daqiqa harakatlanishi kerak. Bu akkumulyator batareyasining zaryadlanishi uchun kerak bo'ladi.

5. Agar akkumulyator batareyasi takroran avvalgidek zaryadsizlangan bo'lsa, avtoservis markaziga murojaat qiling. Vakolatlangan dilerga murojaat qilishni tavsiya etamiz.

Avtomobilni shatakka olish zarur bo'lganda, avtoservis markaziga yoki maxsus tashish xizmatiga murojaat qilish tavsiya etiladi. Vakolatlangan dilerga murojaat qilishni tavsiya etamiz.



G6W5001A

⚠ OGOLANTIRISH!

- Yo'lovchilarни shatakka olingen avtomobilda tashish taqiqlanadi.
- Avtomobilni shatakka olishda xavfsiz tezlik yoki ushbu holatlarda ruxsat etilgan tezlikdan oshib ketish taqiqlanadi.
- Detallari nosoz bo'lgan, avtomobilda yoki uning salonida to'liq mahkamlanmagan avtomobilni shatakka olish taqiqlanadi. Ushbu xavfsizlik choralariga rioya qilmaslik og'ir tanjarohatlariga olib kelishi mumkin.


Avtomobilni qisman yuklash usuli bilan shatakka olish

1. Avariyalı yorug'lık signalizatsiyasını yoqing.
2. O'toldırish kalitini ACC holatiga burang.
3. Mexanik uzatmalar qutisining dastagini yoki avtomatik uzatmalar qutisining o'tkazgichini neytral holatiga (NEUTRAL) o'rnateng.
4. Avtomobilda to'xtab turish tormozini pastga tushiring.
5. Oldingi g'ildiraklar ostiga shatakka olish aravachasini o'rnatishtdan keyin avtomobilni shatakka olish mumkin bo'ladi.


⚠ DIQQAT!

Avtomobilning orqa o'qini evakuatorga yuklash usuli bilan shatakka olishda, oldingi g'ildiraklar ostiga shatakka olish aravachasini o'rnatish lozim.

- Shatakka olish faqat ko'tarilgan oldingi g'ildiraklari bilan amalga oshirilishi mumkin. Oldingi g'ildiraklari yo'lga tayananidan avtomobilni shatakka olish avtomobilning u z a t m a l a r q u t i s i n i n g j i d d i y shikastlanishlariga olib kelishi mumkin
- Avtomobilni shatakka olish uchun stropalardan foydalanish mumkin emas.
- Buning o'rniga yassi platformali ko'targichdan foydalaning.



G6W5002A




G6W5003A

Shoshilinch holatlarda shatakka olish

Evakuatorni chaqirish mumkin bo'lmaganda, avtomobilni shatakka olish avtomobilning bamperi ostidagi zo'g'otalariga biriktiriladigan avariyalı shatakka olish trosining yordamida amalga oshiriladi.

Avtomobilning oldindi qismidagi shatakka olish zo'g'otalari

Shatakka olish zo'g'otalari avtomobilning bamperi ostida joylashgan. Shatakka olingan avtomobilning ruli va tormozlarini boshqarish uchun, unda haydovchi bo'lishi kerak.



G6D5006A

Bunday usulda shatakka olish faqat qattiq qoplamlari yo'lda, qisqa masofalarga va kichik tezlikda amalga oshirilishi mumkin.

Bunda avtomobilning g'ildiraklari, g'ildirak o'qlari, transmissiyasi, rul boshqarishi va tormoz mexanizmlari soz va yaxshi ishlaydigan bo'lishi kerak.

⚠ DIQQAT!

Avtomobilni shatakka olish trosining yordamida shatakka olish paytida avtomobilning ba'zi detallari buzilishining ehtimoli bo'ladi. Avtomobilni shatakka olishda, sodir bo'lgan shikastlanishlar ishlab chiqaruvchining kafolatlari bilan qoplanmaydi.


Buzilislarga yo'l qo'ymaslik uchun:

- Oldi tarafdagi bumper zo'g'otalariga biriktirib shatakka olish, faqat boshqa shatakka olish jihozlari bo'limganda amalga oshirilishi kerak.
- Avtomobilni, uning oldindi qismiga biriktirib shatakka olish tavsija etiladi.
- Shatakka olish trosi bamperga tegmasligi lozim.
- Shatakka olish trosining ikkala uchi zo'g'otalar ichida ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Buning uchun shatakka olish trosini tortib ko'ring.
- Shatakka olish trosining yordamida shatakka olish avtomatik uzatmalar qutisining buzilishiga olib kelishi mumkin. Avtomatik uzatmalar qutisi bo'lgan avtomobilni shatakka olish uchun yassi platformali evakuatordan yoki ko'targichdan foydalanish tavsiya etiladi.
- Avtomobil o'ttacha tezlik bilan va keskin tortishlarsiz harakatlanishi kerak.

⚠ OGOLANTIRISH!

Ehtiyoj bo'ling, chunki tros bilan shatakka olishda shatakka olingen avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qotilishi mumkin.

- G'ildiraklari, o'qlari, uzatmalar qutisi, rul boshqarish tizimi va tormozlari shikastlangan avtomobilni shatakka olishni amalga oshirish mumkin emas.
- Avtomobilni shatakka olish paytida o't oldirish moslamasini o'chirmang, chunki bu rul kolonkasining bloklanishiga va avtomobilni boshqarish imkoniyati yo'qotilishiga olib keladi.



G6D5007A

Tiqilib qolgan avtomobilni «oldinga-orqaga» chayqatish


Agar avtomobil qor, loy ichida yoki boshqa qattiq bo'limgan yo'l qoplamasi ichida tiqilib qolgan bo'lsa, quyidagi harakatlarni bajaring.

1. Rul g'ildiragini avval o'ngga, keyin chapga oxirigacha burang. Bu oldingi g'ildiraklarning atrofidagi yo'l izini tozalashga imkon beradi.
2. Uzatmalarni orqaga yurishdan oldinga yurish uzatmalariga ketma-ket o'tkazib turing.

Orqa shatakka olish ilmog'i

Avtomobilning orqa qismidagi shatakka olish ilmog'i boshqa avtomobilarni shatakka olish uchun foydalilanadi. Undan faqat shoshilinch holatlarda (masalan, boshqa avtomobilni ariqdan, qor uyumidan yoki loydan olib chiqish uchun) foydalananish kerak.

Shatakka olishda kuch yo'nalishi faqat avtomobilning markazi o'qi bo'ylab yo'naltirilishi kerak. Avtomobilning o'qiga biror burchak ostida kuch ishlatilishiga yo'l qo'y mang. Avariyalarga yo'l qo'ymaslik uchun tros tortilishining keskin bo'shashishiga yo'l qo'y mang.



3. G'ildiraklarning joyida sirpanishini minimal darajada saqlab turishga harakat qiling.

4. Uzatmalarни o'tkazish paytida akselerator pedalini qo'yib yuboring.

5. Uzatmalar yoqilganda, akselerator pedalini sal bosing.

Agar yuqorida ko'rataligan harakatlar biror natija bermasa, balki, shatakka olishni amalga oshirish kerak bo'ladi. Ushbu bo'limdagi yuqorida «AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH» bandiga qarang.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Avtomobil tiqilib qolganda uni «oldinga-orqaga» chayqatish paytida:

- Avtomobilning yonida kishilar, binolar yoki boshqa ob'yektlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Chayqatish paytida avtomobil to'satdan yurib ketishi mumkin, bu esa atrofdagi ob'yektlarga zarar yetkazilishiga yoki yonida turgan kishilarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

ESLATMA!

Avtomobilni «oldinga-orqaga» chayqatib olib chiqishga urinishda, uzatmalar qutisining yoki avtomobilning boshqa qismalarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun ma'lum ehtiyoj choralariga amal qilish lozim.

- Uzatmalarni o'tkazishda, yoki talab etilgan uzatmaning to'liq yoqilishigacha akselerator pedalini bosmang.
- Avtomobilning dvigatelini ishga tushirmang va g'ildiraklarni aylantirmang.
- Agar o'z kuchingiz bilan avtomobilni chiqara olmagan bo'lsangiz, balki, shatakka olishni amalga oshirish kerak bo'ladi.

QIZIB KETISH

Agar sovutuvchi suyuqligi haroratining ko'satkichi dvigatelning o'ta qizib ketganligini ko'satsa, yoki o'ta qizib ketishning boshqa belgilari mavjud bo'lganda:

1. Avtomobilni to'xtating.
2. Havoni konditsionirlash tizimini o'chiring.
3. Dvigatelning bir necha daqiqa davomida harakatsiz ishlashini kutib turing.
4. Dvigatelning sovutish tizimi shamollatgichining ishlashini tekshiring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Bug' paydo bo'lganda avtomobildan xavfsiz masofaga chiqib keting va dvigatelning sovushini kutib turing.

Bug' jiddiy kuyishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Hech qachon tizimda ortiqcha bosim yo'qolmaguncha, sovutish tizimining tijinini ochmang!

Aks holda Siz kuyib qolish xavfida qolasiz, avtomobilning sovutuvchi suyuqligi esa kamayib ketadi!

ESLATMA!

Havoni konditsionirlash tizimi tog'li joyda harakatlanish paytida, yoki og'ir yo'l sharoitlarida yoqilgan bo'lsa, bu dvigatelning o'ta qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

Agar shamollatgich aylanmasa va bug' paydo bo'lsa:

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Avtomobildan chiqib keting va kapotni ochmasdan, undan uzoqroq turing.
3. Dvigatel sovushini ma'lum vaqt kutib turing.
4. Kapotning ostidan bug' chiqishi to'xtaganidan keyin kapotni ehtiyyot bo'lib oching.

Sovutuvchi suyuqlikning sathini tekshiring va zarur bo'lganda, uning sathini me'yorigacha yetkazing.

5. Imkonи boricha tezroq vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Agar shamollatgich ishlaydigan bo'lsa va bug' paydo bo'lmasa:

1. Kapotni ehtiyyot bo'lib oching.
2. Dvigatelni sovimaguncha harakatsiz ishlashini qoldiring.

3. Sovutuvchi suyuqlikning sathini tekshiring. Zarur bo'lganda, sovutuvchi suyuqligining sathini me'yorigacha yetkazing.

Agar shamollatgich ishlaydigan bo'lsa, lekin dvigatelnинг harorati kamaymasa:

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Kapotni ehtiyyot bo'lib oching.
3. Dvigatelnинг sovushini kutib turing.
4. Sovutuvchi suyuqlikning sathini tekshiring.

Zarur bo'lganda, sovutuvchi suyuqligining sathini me'yorigacha yetkazing. Sovutuvchi suyuqlikning sathi past bo'ganda quyidagi joylarda oqib ketishi bor-yo'qligini tekshiring:

1. Radiator.
2. Radiatorning naylari.
3. Radiatorning ularishlari.
4. Isitgichning naylari.
5. Isitgichning ularishlari.
6. Sovutish tizimining suvli nasosi.

Zarur bo'lganda, sovutuvchi suyuqlikning sathini me'yoriga keltiring.

Suyuqlikning oqib ketishi yoki boshqa nosozligi aniqlanganda, yoki sovutuvchi suyuqligining sathi pasayishdan davom etganda, zudlik bilan vakolatlangan dilerga murojaat qiling. Nosozliklar bartaraf etilmaguncha avtomobildan foydalanish taqiqilanadi. Dvigatelnинг o'ta qizib ketishi oqibatida yuzaga kelgan shikastlanishlari ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmaydi.

OGOHLANTIRISH!

Sovutish tizimi ichida issiq sovutuvchi suyuqligi va bug' yuqori bosim ostida bo'ladi. Sovutuvchi suyuqlikning yoki bug'ning chiqib ketishi jiddiy jarohatlar olinishiga olib kelishi mumkin.

- Dvigatel issiq bo'lganda kengaytiruvchi bakning yoki radiatorning qopqog'ini ochmang.



ESLATMALAR

7

SERVIS ISHLARI VA AVTOMOBILGA XIZMAT KO'RSATISH

• UMUMIY MA'LUMOT	7-2	• LAMPALARNI ALMASHTIRISH	7-31
• AVTOMOBILNI TEKSHIRISH	7-3	• AVTOMOBILGA XIZMAT KO'RSATISH	7-34
• G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR.....	7-17	• O'T O'CHIRGICH UCHUN JOY	7-36
• ELEKTR ASBOBLAR	7-24		

UMUMIY MA'LUMOT

Har qanday tekshiruv o'tkazilganda yoki avtomobilga texnik xizmat ko'rsatilganda shikastlanish va qismlarga zarar yetishini oldini olish uchun ehtiyoj choralarini ko'ring.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatganda umumiyl xavfsizlik choralarini:


- Ta'mirlash uchun dvigatel sovushini kuting.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Ishlatilgan gazlar katalitik neytralizatori va chiqarish tizimining boshqa komponentlari dvigatel ishlab turgan vaqtida juda qizib ketishi mumkin. Dvigatel ishlab turganda tegishli qismlarga qo'l tekkizish qattiq kuyishga olib kelishi mumkin.

- Domkratga qo'yilgan avtomobil tagida turmang. Avtomobilning tagida ta'mirlash ishlari olib borish zarurati tug'ilsa, xavfsizlik tayanchlari o'rnatalishi kerak.
- Tutayotgan, yonayotgan moddalar va uchqunlar akkumulyator batareyasiga, yoqilg'iga va yoqilg'i apparaturasi qismlariga tushishiga yo'l qo'y mang.
- O't oldirish yoqilqigida akkumulyator batareyasini yoki boshqa har qanday elektron/elektr komponentlarni o'rnatmang va yechmang.

- Yodda tutish kerakki, avtomobilning akkumulyator batareyasi, o't oldirish simlari va elektr birikishlar yuqori tok ostida yoki kuchlanishi katta. Tok urmasligi uchun ehtiyoj choralarini ko'ring.



⚠ OGOHLANTIRISH!

- Kapotni ochishdan oldin o't oldirishni o'chiring va kalitni chiqaring. O't oldirish yoqilqigida tok o'tadigan qismlarga tegish tok urishiga yoki kuyishga olib kelishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Motor bo'limi bilan ishlaganda, dvigatelning harakatdagi qismlari ilib olinishi mumkin bo'lgan keng kiyimlarni va taqinchoqlarni yeching, ventilator, kamarlarga va boshqa harakatdagi qismlarga tegmang

- Akkumulyator batareyalarining simlarini ularsha ularning qutbiga ahamiyat bering. Musbat simni manfiy simga ulamang va aksincha.
 - Dvigatel yopiq joyda, masalan garajda ishlaganda, yetarli darajada ventilatsiyani ta'minlang.
 - Ishlatilgan moy,sovutish suyuqligi va boshqa texnik suyuqliklarni bolalar va uy hayvonlari yeta olmaydigan joyda saqlang.
 - Moy yoki boshqa texnik suyuqliklardan bo'shang yoki ichida ishlatilgan moy yoki suyuqlig' bo'lgan bankalarni maishiy chiqindilar bilan birga tashlamang.
- Faqat mazkur mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utilizatsiya qilish usullaridan foydalaning.
- Agar dvigatel ishlab turganida kapotni ochishingiz kerak bo'lsa, avtomobil bexosdan yurub ketishini oldini olish choralarini ko'ring. Agar avtomatik transmissiya bo'lsa, uzatma qutisi selektorining richagini PARK yoki

AVTOMOBILNI TEKSHIRISH

NEYTRAL holatiga o'tkazing va qo'l tormozini yoqib qo'ying. Mexanik uzatma qutisi bor bo'lsa, richagni neytral holatga o'tkazing va avtomobilni qo'l tormoziga qo'ying. Shikastlanishni oldini olish uchun motor bo'limida ishlashdan oldin o't oldirishni o'chirish va kalitni chiqaring, alohida holatlar bundan mustasno. Agar texnik xizmat ko'rsatish uchun motor bo'limidagi ishlar dvigatel ishlab turganida bajarilishi talab etilsa, dvigatelning harakatdagi qismlari ilib ketishi va shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan keng kiyimlarni va taqinchoqlarni yeching.

Dvigatelning sovutish tizimi ventilyatori

⚠ DIQQAT

Motor bo'limida joylashgan sovutish tizimining elektr ventilyatori datchik orqali boshqariladi. Bu ventilyator istalgan vaqt ishlashni boshlashi mumkin.

- Qo'l, barmoq, kiyim va hokazolar ventilyator parraklaridan yetarlicha uzoqda bo'lishiga qarab turing.

⚠ OGOLANTIRISH!

Motor bo'limida joylashgan sovutish tizimining elektr ventilyatori datchik orqali boshqariladi. Bu ventilyator istalgan vaqt ishlashni boshlashi mumkin.

- Qo'l, barmoq, kiyim va hokazolar ventilyator parraklaridan yetarlicha uzoqda bo'lishiga qarab turing.

Motor bo'limida joylashgan sovutish tizimining elektr ventilyatori parraklaridan shikastlanishning oldini olish uchun motor bo'limida ishlashni boshlashdan oldin ventilyator ishlab ketmasligi uchun dvigatelin o'chirib qo'ying.

Bundan tashqari, yoddan chiqarmaslik kerakki, elektron o't oldirish tizimidagi kuchlanish standart tizimdagidan yuqoriroq. Shuning uchun o't oldirish yoqiq bo'lganida tok o'tadigan qismlarga tegish o'ta xavfli.

Avtomobildan xavfsiz va ishonchli foydalaniш uchun uning tashqi qismlarini, saloni va motor bo'limini muntazam tekshirib turish lozim.

Tashqi qismlar

Shinalar

- Shinalardagi bosim talabga javob berishini tekshiring. (Qarang: "G'ildiraklar va shinalar" bobি).
- Shina protektori va yon tomonlarida (xususan, yonboshida) darz ketgan, kesilgan joylar va boshqa zarar yetgan joylar yo'qligini tekshiring.
- Protektorga yot narsalar tiqilib qolganini tekshiring.

G'ildiraklar

- Gayka va boltlar mahkam buralib qo'yilganini tekshiring (Qarang: "Zarar ko'rgan g'ildirakni almashtirish").

Yoritish asboblari

- Oldi va orqa faralar, gabarit chiroqlar, qayilish ko'rsatkichlari, stop-signallar va tumanga qarshi faralar to'g'ri ishlayotganini tekshiring.

Suyuqliklar

- Motor bo'limining barcha rezervuarlaridagi suyuqlik darajasini tekshiring.

Peshoyna tozalagichi

- Oyna tozalagichlar va ularning rezina cho'tkalarini holatini tekshiring (agar bo'lsa, orqa oyna tozalagichini yoqib).

Salonda

Rul bilan boshqarish

- Rul chambaragini o'ralig'ini (lyuft) tekshiring.

Qo'l tormozi

- Qo'l tormozining richagi harakatchanligini tekshiring.

Boshqaruv paneli

- Boshqaruv panelidagi barcha asboblar, ko'rsatkichlar va signal chiroqlari to'g'ri ishlayotganini tekshiring.

Ko'zgular

- Uchchala ko'zguning aks ettiradigan yuzasi toza va tekisligiga ishonch hosil qiling.
- Ko'zgular rostlagichlarini tekshiring.

Boshqarish organlari

- Tormoz mexanizmi va ilashish tepkilari erkin harakatlansishi va kuchlanishini tekshiring.

Motor moyi

Dvigatel normal ishlashini ta'minlash uchun motor moyi darajasini tekshirib turish lozim.

Dvigatel ishlaganda ma'lum miqdorda motor moyi sarflanadi.


Shuning uchun motor moyi darajasini muntazam, masalan, har safar yoqilg'i quyliganda tekshirib turish kerak.

Moy darajasi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun dvigatel qizitilgan bo'lishi, avtomobilesa gorizontal holatda bo'lishi kerak.

Agar boshqarish panelida joylashgan dvigateldagi moy bosimi indikatori (↗) yonsa, zudlik bilan dvigateldagi moy darajasini tekshirish kerak.


Motor moyi darajasini tekshirish

- Avtomobilni tekis, gorizontal joyda to'xtating.
- Dvigatel to'xtagandan so'ng bir necha daqqa davomida moy karterga oqishini kuting. Dvigatel souvuq bo'lsa, moy karterga oqib tushishi uchun ko'proq vaqt ketadi.
- Moy cho'pini chiqaring va arting.
- Moy cho'pini oxirigacha shtutserga tiqing.
- Moy cho'pini yana chiqaring.




6. Moy cho'piidagi moy shaffofligiga ishonch hosil qiling.

7. Moy cho'pidagi moy darajasini tekshiring. Moy darjasasi **MIN** va **MAX** belgilari oraliq'ida bo'lishi kerak.




**Motor bo'limi
dvigatel 1.5 DOHC**



1. Havo filtri
2. Motor moyi quyiladigan og'iiz qopqog'i
3. Dvigatelning moy cho'pi
4. Ilashish gidro yuritmasining tormoz mexanizmi/baki
5. Sovutuvchi suyuqlik rezervuari.
6. Rul kuchaytirgichi ishchi suyuqligining rezervuari.
7. Saqlagich va relelar bloki
8. Akkumulyator batareyasi
9. Yuvgich baki

8. Agar moy darajasi MIN belgisidan pastda bo'lса, moyni maksimal darajagacha ko'tarish uchun sifati va yelimshoqligi dvigatelagi moyniki bilan bir xil bo'lgan moy quying. MAX belgisidan oshirib yuborish mumkin emas. Moy dvigateleaning moy quyiladigan og'zi orqali quyiladi. Batafsil ma'lumot yuqorida keltirilgan bo'limning "MOTOR BO'LIMI" bandida keltirilgan.

Motor moyining tavsiflari to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun "Moylash xaritasи" bobiga qarang.



Moy quyiladigan og'iz qopqog'i

⚠️ OGohlantirish!

Motor moyi zararli modda bo'lib, organizmga tushganda kasallikka va, hatto, o'llimga sabab bo'lishi mumkin.

- Sovutish suyuqligini bolalarning qo'li yetmaydigan joyda saqlang.
- Motor moyi muntazam yoki uzoq vaqt teringiz bilan aloqaga kirishishiga yo'll qo'y mang.
- Motor moyi bilan ishlagandan so'ng terining ochiq joylarini sovun yoki maxsus tozalash vositasi bilan yuvung.

ESLATMA

Motor moyi zararli modda bo'lib, organizmga tushganda kasallikka va, hatto, o'llimga sabab bo'lishi mumkin.

- Sovutish suyuqligini bolalarning qo'li yetmaydigan joyda saqlang.
- Motor moyi muntazam yoki uzoq vaqt teringiz bilan aloqaga kirishishiga yo'll qo'y mang.
- Motor moyi bilan ishlagandan so'ng terining ochiq joylarini sovun yoki maxsus tozalash vositasi bilan yuvung.

⚠️ OGohlantirish!

Motor moyini keragidan ortiq quyish dvigateleaning ishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

- Moy cho'pidagi MAX belgisidan ortiq moy quyilishiga yo'll qo'y mang.

Motor moyi maksimal darajadan ko'p quyilishi quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

⚠️ OGohlantirish!

- Moy ko'p sarflanishiga.
- O'toldirish shamlari ifloslanishiga.
- Dvigatelda haddan ko'p qurum hosil bo'lishiiga.

Motor moyi va moy filtrini almashtirish.

⚠️ OGohlantirish!

Bu ish maxsus tayyorgarlik, vosita va asbob-uskuna talab etadi. Ishni bajarishdan avval tegishli malaka boriliga ishonch hosil qiling.

- Agar mazkur ishni xavfsiz amalga oshirishga amin bo'lmasangiz, moyni texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasida almashtiring.

Aks holda shikastlanish yoki avtomobilning qismalariga zarar yetkazish mumkin. Vakolatlangan diler bilan maslahatiashishni tavsija etamiz.

Ifloslangan motor moyi o'zining moylash xususiyatini yo'qotadi. Motor moyi texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga muvofiq almashtirilishiha qarab turing. Har safar motor moyi almashtirilganda, filtr ham almashtirilishi lozim.

Og'ir sharoitda foydalanganda motor moyi va filtr oddiy texnik xizmat ko'rsatish reglamentida

tavsiya etilganiga nisbatan ikki marta tezroq almashtirilishi lozim. Ogi'ir foydalanish sharoiti degana quyidagilar nazarda tutiladi:

- Dvigatelni qizdirmasdan turib harakatni boshlash.
- Yaqin masofalarga tez-tez qatnash.
- Tashqi harorat noldan past bo'lganda ko'p haydash.
- Dvigatel uzoq muddat salt yurishi.
- Ko'pincha past tezlikda haydash.
- Chang yo'llarda haydash.

⚠ OGOLANTIRISH!

Motor moyi va moy idishlari xavflidir.

- Motor moyi bilan muntazam va uzoq vaqt aloqaga kirishishdan qoching.
- Motor moyi bilan ishlagandan so'ng, teri va tirnoqni sovun yoki maxsus tozalash vositasi bilan tozalang. Motor moyi va boshqa zaharli moddalarni bolalarning qo'lli yetmaydigan joyda saqlang.

Motor moyi terini qichishtiradi, yutib yuborilsa zaharlanishga yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT

Tavsiya etilmagan motor moyi yoki kimyoivy qo'shimchalardan foydalanish dvigatel buzilishiga olib kelishi mumkin.
 • Qo'shimchalardan foydalanishdan oldin vakolatlangan dilerga murojaat qiling.


⚠ DIQQAT

• Ishlatilgan moy va filtrlarni maishiy chiqindilar bilan birga utilizatsiya qilmang. Mazkur mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utilizatsiya qilish usullaridan foydalaning.
 Ishlatilgan moy va filtrlarning tarkibida zaharli moddalar bor bo'lib, ular inson salomatligi va atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin.

Sovutish suyuqligi

Tarkibiy qismlari nisbati to'g'ri belgilangan taqdirda, ushbu suyuqlik isitish vasovutish tizimini korroziya va muzlashdan samarali himoya qiladi.

Dvigatel sovuq holdaligida kengaytirish bakidagi sovutish suyuqligining darajasi MIN va MAX belgilari o'tasida bo'lishi kerak. Dvigatel qizishi bilan sovutish suyuqligining darajasi ortadi, sovushi bilan pasayadi.



⚠ DIQQAT

Sovutish tizimiga vodoprovod suvini yoki noto'g'ri komponentlarni qo'shish sovutish tizimiga zarar yetkazishi mumkin

- Sovutish suyuqligi sifatida vodoprovod suvidan, spirli yoki metanolli antifrizdan foydalanmang.
- Faqat distillangan suv bilan mazkur avtomobilga mos keladigan tegishli antifrizning 56:44 nisbatida aralashmasidan foydalanish mumkin.

Aks holda dvigatel qizib ketishi yoki yonib ketishi mumkin.

Agar sovutish suyuqligining darajasi MIN belgisidan pastga tushib ketgan bo'lsa,

kengaytirish bakiga to'g'ri nisbatda hosil qilingan tegishli sovutish suyuqligini quying, faqat dvigatel sovugan bo'lсин.

Juda sovuq iqlimda avtomobilni himoya qilish zarurati tug'ilsa, suv va antifriz 48:50 nisbatda aralashtiriladi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Qaynoq sovutish suyuqligi va bug'dvigatelning sovutish tizimidan katta bosim ostida chiqib ketishi mumkin, bu esa jiddiy shikastlanishga olib keladi.

- Dvigatel qizib turganida kengaytirish bakining yoki radiatorning qopqog'inи yechmang.

⚠ DIQQAT

Sovutish suyuqligi zaharli texnik suyuqlik hisoblanadi.

- Sovutish suyuqligi bilan muntazam va uzoq muddat aloqaga kirishmaslikka harakat qiling.
- Sovutish suyuqligi tegib ketgandan so'ng teringizni oqib turgan suvda chaying, teri va tironqlaringizni sovun yoki maxsus tozalash vositasi bilan yuvung.
- Bolalarни qo'l yetmaydigan joyda saqlang.
- Sovutish suyuqligi teri qizarishiga olib keladi, yutib yuborilsa, zaharlanishga yoki o'limga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT

Sovutish suyuqligining darajasi ko'pi bilan bir yilda to'rt marta tiklanishi kerak. Odatda, bu sovutish suyuqligining tabiiy bug'lanishi bilan bog'liq. Sovutish suyuqligini bundan ko'ra tez-tez quyish zaruratining tug'ilishi dvigatelin sovutish tizimida nosozlik chiqqanidan dalolat beradi. Sovutish tizimini tekshirish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.

Ilashish uzatmasining tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligi*

Avtomobilda ilashish uzatmasining tormoz suyuqligi uchun ham, ishchi suyuqligi uchun ham bitta rezervuar ko'zda tutilgan.

Avtomobilda ilashish uzatmasining tormoz suyuqligi uchun ham, ishchi suyuqligi uchun ham bitta rezervuar ko'zda tutilgan.

Tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligi namlikni tortishi mumkin tormoz suyuqligida namlik me'yordan oshib ketishi tormoz mexanizmi va ilashishning gidravlika tizimi samaradorligini pasaytirishi mumkin. Gidravlika tizimi korroziyaga uchrashini oldini olish uchun suyuqlikni mazkur yo'rqnynomada keltirilgan mal'umotlarga muvofiq almashtirish lozim.

Faqat bizning kompaniyamiz tomonidan tavsya etilgan ilashish uzatmasining tormoz

suyuqligi va ishchi suyuqligidan foydalanish lozim. Rezervuar zarur darajagacha to'lib turishi kerak. Suyuqlik darajasi MIN belgisidan kamayishiga va MAX belgisidan ko'payishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Tormoz suyuqligi rezervuarida suyuqlik darajasi pastligi tormozlash tizimidan suyuqlik oqib chiqayotganidan yoki tormoz kolodkasi, yoki koplamasi eskirib ketganidan dalolat beradi.

Gidravlik tormozlash tizimini ta'mirlash talab etilishini bilish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling. Ta'mirlash ishlari tugatilgandan so'ng qo'shimcha tormoz suyuqligi quying (agar zarur bo'lса). Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsija etamiz.

Tormoz suyuqligi darajasi yo'l qo'yiladigan darajadan tushib ketgan taqdirda, tormozlash tizimidagi nosozlik signalizatori yoqiladi (○). Qarang. "TORMOZLASH TIZIMIDAGI NOSOZLIK SIGNALIZATORI" bobi.


Ilashish uzatmasining tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligini to'ldirish

1. Rezervuar qopqog'i atrofidagi barcha kirlarni tozalang.

⚠ DIQQAT

- Rezervuarning qopqog'ini yechishdan oldin qopqoq atrofi butkul tozalanganiga ishonch hosil qiling. Tormoz suyuqligi havodan namlikni juda tez tortadi, shuning uchun qopqoqni faqat zarurat bo'lganda va qisqa vaqtga oching.

Ilashish uzatmasining tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligi ifloslanishi tizim ishini izdan chiqarishi mumkin, bu holda qimmatbaho ta'mirlash ishlarni bajarishga to'g'ri keladi.



2. Bak qopqog'ini burab chiqaring.

3. Rezervuarni tavsiya etilgan ilashish uzatmasining tormoz suyuqligi/ishchi suyuqlik bilan MAX belgisigacha to'liring. Ehtirot

bo'ling, suyuqlik bo'yalgan yuzalarga to'kilib ketmasin.

Suyuqlik bo'yalgan yuzalarga to'kilib ketsa, zudlik bilan sovuq suv bilan chaying.

⚠ D/QQAT

Ilashish uzatmasining tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligi keragidan ortiq quyilishi yong' uchqishiga olib kelishi mumkin.

- Rezervuarni to'ldirib yubormang. Dvigatelda o't chiqishi shikastlanishga, avtomobil yoki boshqa mulkka zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

⚠ D/QQAT

Ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilmagan tormoz suyuqligidan foydalinish tormoz tizimining komponentlari korroziya uchrashiga olib kelishi mumkin.

Korroziya tormozlash tizimining ishiga yomon ta'sir qilishi va avariylarga sabab bo'lishi mumkin.

4. Rezervuarning qopqog'ini burab qo'ying.

⚠ D/QQAT

- Ilashish uzatmasining ishlatilgan tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligini maishiy chiqindilar bilan birga utilizatsiya qilmang.

⚠ DIQQAT

- Faqat mazkur mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utilizatsiya qilish usullaridan foydalaning.

Ilashish uzatmasining ishlatilgan tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligi va ularning idishlari potensial xavfli. Ular inson salomatligiga va atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin.

⚠ DIQQAT

Ilashish uzatmasining ishlatilgan tormoz suyuqligi va ishchi suyuqligi zaharli texnik suyuqlik hisoblanadi va teriga, ko'zning shilliq qatlamiga zarar yetkazishi mumkin.

- Mazkur suyuqliklar teriga yoki ko'zga tushsa, zudlik bilan zarar ko'rgan joyni sovunli suv bilan va maxsus tozalash vositasi bilan yuvинг.

Manekik uzatmalar qutisi moyi**Manekik uzatmalar qutisidagi moy darajasini tekshirish**

Manekik uzatmalar qutisidagi moy darajasini tekshirishga zarurat yo'q.

Transmissiya suyuqligining oqib ketishi moy kamayishining yagona sababi bo'lishi mumkin. Moy oqsa, avtomobilni ta'mirlash uchun vakolatlangan dileriga imkon qadar tezroq murojaat qiling.

Avtomatik transmissiyaning ishchi suyuqligi *

Avtomatik transmissiyaning ishchi suyuqligini qanday tekshirish mumkin?

Avtomatik transmissiyaning ishchi suyuqligini tekshirishga zarurat yo'q.

Transmissiya suyuqligining oqib ketishi suyuqlik kamayishining yagona sababi bo'lishi mumkin. Suyuqlik oqsa, avtomobilni ta'mirlash uchun vakolatlangan dileriga imkon qadar tezroq murojaat qiling.

Avtomobil transmissiya suyuqligi darajasi ko'satkichi bilan jihozlanmagan.

Transmissiya suyuqligi darajasini tekshirish va almashtirish uchun maxsus taomil bor. Bu taomil murakkab bo'lib, dilerlik korxonasida bajarilishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot uchun o'z dilerlingizga murojaat qiling.

Rul kuchaytirgichining ishchi suyuqligi**Rul kuchaytirgichining ishchi suyuqligi darajasini tekshirish**

Rul kuchaytirgichining ishchi suyuqligi darajasini muntazam tekshirib turing.

Rul kuchaytirgichining ishchi suyuqligi rezervuari akkumulyatorning oldi tomonida joylashgan.

⚠ DIQQAT

- Rul kuchaytirgichining ishchi suyuqligi yetarli darajada bo'lmasa, avtomobilni haydamang.

Bu kuchaytirgichli rul uzatmasi tizimiga zarar yetkazishi mumkin, oqibatda qimmatbaho ta'mirlash ishlarini bajarishga to'g'ri keladi.


- Dvigatelni o'chiring.
- Suyuqlik darajasini tekshiring. Rezervuardagi suyuqlikning darajasi **MIN** va **MAX** belgilari o'tasida bo'lishi kerak.
- Agar past **MIN** bo'lsa quyida keltirilgan taomilga muvofiq suyuqlik qo'shing.

⚠ DIQQAT

Juda mayda iflosantiruvchi zarrachalar rul boshqaruvi tizimiga zarar yetishiga olib kelishi mumkin, bu esa uning ishiga salbiy ta'sir qiladi. Suyuqlik rezervuari qopqog'i / daraja ko'rsatuvchisiga yoki rezervuarga

⚠ DIQQAT

iflosantiruvchi zarrachalar tushishiga yo'l qo'y mang.

**Rul kuchaytirgichining suyuqligini to'ldirish**

- Rezervuarning qopqog'i va tepe qismini tozalang.
- Qopqoqni yechib oling.
- Rul kuchaytirgichi suyuqligini qo'shing. Suyuqlik **MIN** va **MAX** belgilari o'tasigacha quyliganiga ishonch hosil qiling.
- Qopqoni yoping.

⚠ DIQQAT

Me'yordan ortiq quylgan suyuqlik o't chiqishiga olib kelishi va lakbo'yoq qoplama ko'chishiga sabab bo'lishi mumkin.

 DIQQAT


- Rezervuarni to'ldirib yubormang. Dvigatelda yong'in chiqishi shikastlanishga, avtomobilning qismlari va boshqa mulkka zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

Peshoyna yuvgich suyuqligi

Harakatni boshlashdan oldin peshoyna yuvgich suyuqligi rezervuari tegishli tarkib bilan to'rtdan uch qismidan ko'proq darajada to'ldirilganiga ishonch hosil qiling.

Havo sovuqligida peshoyna yuvgich suyuqligi rezervuarini to'rtdan uch qismidan ko'pga to'ldirmang.

Harorat pastligida peshoyna yuvgich suyuqligi muzlashi va hajmi oshishi mumkin. Rezervuar to'ldirib yuborilgan bo'lsa, hajmi kattalashgan suyuqlik sig'ishi uchun joy qolmaydi, bu esa rezervuar yorilib ketishiga yoki deformatsiya bo'lishiga olib kelishi mumkin.

** OGOLANTIRISH!**

- Peshoyna yuvgich suyuqligi to'ldirilganda:
- Buning uchun faqat ishlatalishga tayyor bo'lgan yuvgich suyuqligidan foydalaning.
 - Rezervuarga vodoprovod suvini quymang. Vodoprovod suvi tarkibidagi mineral moddalar peshoyna yuvgich suyuqligi rezervuarining teshiklarini yopib qo'yishi mumkin.
 - Agar havo harorati 0 darajadan pastga tushishi kutilayotgan bo'lsa, muzlamaydigan suyuqlik quyish lozim bo'ladi.

 DIQQAT

- Peshoyna yuvgich suyuqligi rezervuariga suv yoki radiatorning sovitish suyuqligini quymang. Bu suyuqlik muzlashiga va peshoyna yuvgichiga zarar yetishiga olib kelishi mumkin. Radiatorning sovitish suyuqligi peshoyna yuvgichiga va avtomobil bo'yog'iga zarar yetkazishi mumkin.

Peshoyna tozalagichlar

To'g'ri ishlaydigan peshoyna tozalagichlar yaxshi ko'rish va xavfsiz haydash uchun zarur. Peshoyna tozalagichning cho'tkalarini muntazam tekshirib turing. Qattiq, darz ketgan, zarar ko'rgan yoki juda kir cho'tkalarni almashtiring.


Peshoynadagi yoki cho'tkalardagi begona narsalar, tozalash samaradorligini pasaytiradi. Agar cho'tkalar kirni lozim darajada tozalamayapgan bo'lsa, peshoyna va peshoyna tozalagichning cho'tkalarini yumshoq tozalash vositasi bilan yuving.

Ularni suv bilan yaxshilab chaying. Zarur bo'lsa bu holatni takror tozalang.

Oynadagi silikon izlari tozalashning imkoniy yo'q. Shuning uchun avtomobilning peshoynasi uchun tarkibida silikon bor bo'lgan, polirovkalash vositalaridan foydalanganmang, aks holda oynada ko'rishni yomonlashtiradigan chiziqlar qoladi.

Peshoyna tozalagichining cho'tkalarini almashtirish

1. Peshoyna cho'tkasini tutqichini qising va ushlab turing.
2. Peshoyna tozalagichning cho'tkasini qisib turuvchidan chiqarib oling.
3. Peshoyna tozalagichga yangi cho'tka o'rnatiting.



Havo filtri


Havo filtrini muntazam ko'zdan kechiring va mazkur yo'rqnoma da keltirilgan texnik xizmat ko'rsatish reglamentiga muvofiq almashtiring.

⚠ DIQQAT

- Dvigatel normal ishlashi uchun toza havo kerak.
- Havo filtri o'rnatilmagan avtomobilni haydamang.

⚠ DIQQAT

Havo filtri to'g'ri o'rnatilmagan yoki ishlab chiqaruvchi tavsiya etmagan havo filtri o'rnatilgan avtomobilni ekspluatatsiya qilish avtomobil buzilishiga olib keladi, bunda qimmatbaho ta'mirlash ishlari kerak bo'lishi mumkin. Bunday ta'mirlash ishlari esa ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.




Havo filtrini tozalash

Agar havo filtri elementi ifloslangan bo'lsa, havo filtrini almashtiring yoki uni quyidagi tarzda tozalang:

1. Ustdagi changni tushirish uchun havo filtri elementini silkiting.
2. Havo filtrini ichidan tozalang.
3. Elementni tozalash vaqtida filtrning ochiq korpusiga nam latta tashlab qo'ying.

4. Havo filtrini tozalash uchun unga havoning odatiy harakatiga qarshi yo'nalishda havo oqimini yo'naltiring.



O't oldirish svechalari

O't oldirish tizimi.

⚠ OGohlantirish!

O't oldirishning elektron tizimlari oddiy tizimga nisbatan katta kuchlanish ostida.

- O't oldirish tizimi elementlariga tegmang. O't oldirish tizimi elementlariga tegish tok urishiga, tanaga jiddiy jarohat yetkazilishiga va, hatto, o'limga olib kelishi mumkin.

Agar siz avtomobilning quvvati kamayganini yoki yoqilg'i ko'p sarflanayotganini sezsangiz, o't oldirish svechalarini tekshirish va tozalash tartibiga rioya qiling.

⚠ DIQQAT

Dvigatelning o't oldirish shamlari juda yuqori haroratgacha qizib ketishi va jiddiy shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin.

- Qizib turgan o't oldirish shamlariga tegmang.

O't oldirish svechalarini tekshirish va almashtirish

1. Dvigatel ishslash uchun yetarli darajada sovugandan so'nq, kabeldan emas konnektordan tortib svecha simlarining chilvirini uzing.

2. O't oldirish svechalarini dvigateldan chiqarish uchun 16 mmli kallakdan foydalaning. O't oldirish shamlari teshigiga begona narsalar tushishiga yo'l qo'y mang.

3. O't oldirish svechalarini izolyatsiyasi butunligini tekshiring. Izolyatsiya buzilgan yoki zarar ko'rgan bo'lса, almashtiring. Yo bo'lmasa, izolyatsiyani arting va tozalang.

4. Ustki kontakt va elektrodlarni tozalash uchun sifatli simli cho'tkadan foydalaning. Tozalagandan so'nq teshikni spetsifikatsiyaga muvofig mahkamlang.

O't oldirish svechalar turi va teshigi to'g'risida

to'liq ma'lumot olish uchun "AVTOMOBILNING TEHNIK TAVSIFLARI" bobiga qarang.

5. O't oldirish svechalarini taqlalguncha qo'lda ornating.

⚠ OGOLANTIRISH!

O't oldirish svechalarini komplekt holda almashtish zarur.

6. Har bir o't oldirish shamini 20Nm gacha tortib qo'ying.

7. O't olirish shamlariga simlar chilvirini chertki eshitilmagunga qadar mahkam ulang, chertki ular to'g'ri joylashganini anglatadi. O't oldirish shamlarining simi to'g'ri tartibda o'rnatilganiga ishonch hosil qiling.



J200618A

⚠ DIQQAT

- Agar o't oldirish svechalar haddan ziyyod mahkam buralsa, silindrlar bloki kallasidagi rezbasiga zarar yetishi mumkin.

- Agar o't oldirish svechalar yetarli darajada mahkam buralmasa, shamlar qizib ketadi. Svechalarini haddan ziyyod mahkamlash ham, yetarli darajada mahkamlamaslik ham dvigatelga zarar yetkazishi mumkin.

Uzatma kamari

O'zgaruvchan tok generatori, rul boshqaruvi kuchaytirgich nasosi va konditsioner kompressori normal ishlashi uchun uzatma kamari yaxshi holatda bo'lishi va lozim tarzda rostlangan bo'lishi kerak.

Eskirgan, yorilib-yorilib ketgan yoki ishqalanib ketgan uzatma kamarini almashtirish kerak.

⚠ DIQQAT

Kalit o't oldirish qulfidha turishi, dvigateli tasodifin ishga tushib ketishi olib kelishi mumkin.


- Uzatma kamarini tekshirayotganda kalitni o't oldirish qulfidha qoldirmang.

Motor bo'limidagi harakatlanadigan qismalar jiddiy shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin.

Uzatma kamarini tekshirish

Uzatma kamari tarangligini tekshirish uchun:

1. Uzatma kamarining ikkita val o'tasidagi eng uzun bo'lak o'tasini boshmaldoq bilan bosing. Taxminan 10 kgm kuch ishlatalishi kerak.
2. Kuch ishlatganda uzatma kamari taxminan 100 mmga botishi kerak.
3. Agar kamar bo'shab ketgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida uni to'g'rilatish kerak. Vakolatlangan dilerga murojaat qilishni tavsiya etamiz.



Akkumulyator batareyasi

Avtomobilga maxsus xizmat ko'rsatish talab etilmaydigan akkumulyator batareyasi o'rnatilgan

⚠ OGOHLANTIRISH!

- O't yoki uchqun chiqmasligi uchun a k k u m u l y a t o r b a t a r e y a s i n i tekshirayotganda unga tutab turgan materiallar tushishiga yo'l qo'y mang. Bu portlashi mumkin bo'lgan gazlar to'planishiga olib kelishi mumkin.
- Akkumulyator batareyasining portlashi avtomobilga zarar yetkazishi, jiddiy shikastlanishga va, hatto, o'limga olib kelishi mumkin
- Akkumulyator batareyasi teriga tegishiga yo'l qo'y mang, chunki o'ta xavfli oltingugurt kislotosi teriga jiddiy shikast yetkazadi. Oltingugurt kislotosi teriga tushsa, shu joyni suv bilan yuvинг va zudlik bilan tibbiy yordamga murojaat qiling.
- Akkumulyator batareyalarini bolalardan narida saqlang, chunki ularda oltingugurt kislotosi va gaz bor. Kislota ko'z, teri, kiyim yoki bo'yoq bilan aloqaga kirishiga yo'l qo'y mang.
- Akkumulyator batareyasini ochmang va og'dirmang.

Akkumulyator batareyasining qutb chiqarmalarini tozalash

1. O't oldirishni o'chiring va o't oldirish kalitini chiqaring.
2. Gaykali kalit bilan batareya simlarining qismasini bo'shating va chiqarib oling. Doimo avvaliga manfiy simni (-) bo'shatish lozim.
3. Qutb chiqarmalarini qattiq cho'tka yoki maxsus asbob bilan tozalang.
4. Akkumulyator batareyasining qutb chiqarmalarida korroziya alomati hisoblanadigan oq yoki ko'kish kukun yo'qligini tekshiring.
5. Korroziya joylarini oziq-ovqat sodasi va suv eritmasi bilan tozalang. Eritma ko'piklashib jigarang holatga kelishi zarur.
6. Eritma ko'pirishdan to'xtagandan so'ng, uni suv bilan yuvib tashlang va akkumulyator batareyasini qog'ozli salfetka yoki latta bilan arting.
7. Simlarni oldiniga musbat (+) chiqarmaga, so'ng manfiy (-) chiqarmaga ulang. Manfiy sim doim oxirida ulanishi kerak.

DIQQAT

- Simlarni akkumulyator batareyasiga ularanayotganda qismalar to'g'ri o'rnatilganini, so'ng mahkamlash boltlari bilan mahkam qotirliganini tekshiring.
- Simlarni ulash tartibiga rioya etilishini kuzatib turing: qizil sim batareyaning musbat (+) chiqazuvchiga, qora sim manfiy (-) chiqaruvchisiga ularadi.

Simlarni qutb chiqarmalariga noto'g'ri ulash shikastlanishga, avtomobil qismalari va boshqa mulkka zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

Akkumulyator batareyasi noto'g'ri ulanishi oqibatida elektr uskunalarga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchining majburiyatlari kafolat bilan qoplanmaydi.

8. Korroziyani oldini olish uchun qutb chiqarmalariga texnik vazelin yoki maxsus moy surtib qo'ying.

ESLATMA

Yodda tuting, ulaganda birinchi musbat (+) chiqarma, uzunganda manfiy (-) chiqarma birinchi bo'ladi.

Akkumulyator batareyasiga texnik xizmat ko'rsatish

Akkumulyator batareyasining xizmat qilish muddatini uzaytirish uchun:

- Akkumulyator batareyasi to'g'ri o'rnatilishi lozim
- Akkumulyator batareyasining ustki qismi toza va quruq bo'lishi kerak.
- Qutb chiqarmalari va sim qismalari toza va ishonchli mahkamlangan, maxsus moy yoki vazelin surtilgan bo'lishi kerak.
- To'kilgan har qanday elektrolitik suv va oziq-ovqat sodasi eritmasi bilan zudlik bilan yuvilishi kerak.
- Agar avtomobil uzoq vaqt davomida haydalmasa, simni manfiy (-) chiqarmadan uzb qo'yish kerak.
- Chiqarib qo'yilgan akkumulyator batareyasi har olti haftada quvvatlantirilishi kerak.

ESLATMA

Akkumulyator batareyasining tarkibida zaharli moddalar bor. Ishlatilgan akkumulyator batareyalari inson salomatligi va atrof muhit uchun zararli bo'lishi mumkin.


- Akkumulyator batareyalarini maishiy chiqindilar bilan tashlamang.

Faqat mazkur mintaqada ruxsat etilgan avtomobil chiqindilarini utilizatsiya qilish usullaridan foydalaning.

Tormoz tepkisi**Tormoz tepkisi erkin harakatlanishini tekshirish**

Tormoz tepkisi erkin harakatlanishi teng bo'lishi kerak bo'lgan qiymat: 1~8 mm.

- Dvigatelni o'chiring.
- Tormoz tepkisini tormozlash tizimida vakuum qolmaguncha bir necha marta bosing.
- Tormoz tepkisini oraliqni o'lchab qarshilik sezguncha qo'lingiz bilan bosing.
- Agar tepkining erkin harakatlanishi mazkur yo'riqnomada ko'rsatilganidan farq qilsa, uni to'g'rilash uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling.




Ilashish tepkisi

Ilashish tepkisi erkin harakatlanishini tekshirish

Ilashish tepkisi erkin harakatlanishini tekshirish uchun:

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Ilashish tepkisini qo'l bilan bosib, qarshilik sezmaguningizcha tepki surilishi masofasini o'lchang.
3. Agar tepkining erkin harakatlanishi mazkur yo'rqnoma da ko'rsatilganidan farq qilsa, ilashish tepkisini yoki richagli yuritmani to'g'rilash uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Vakolatlangan dilerga murojaat qilishni tavsiya etamiz.



S3W6371A

Qo'l tormozi

Qo'l tormozi avtomobilni keskin qiyalikda to'xtatish turishi kerak.

Qo'l tormozining siljishini tekshirish

Qo'l tormozining richagi joyini o'zgartirishi teng bo'lishi kerak bo'lgan qiymat:

taxminan 20 kgs kuch ishlataliganda 5~11 paz. Qo'l tormozining joyi qanchaga o'zgarishini tekshirish uchun:

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Pazlar chertkisini sanagan holda qo'l tormoziga qo'ying. Agar chertkilar soni yuqorida ko'rsatilganidan farq qilsa, qo'l tormozini to'g'rilash uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling. Vakolatlangan dilerga murojaat qilishni tavsiya etamiz.

Katalitik neytralizator

DIQQAT

Avtomobilga katalitik neytralizator o'rnatilgan.

- Ushbu avtomobil uchun yoqilg'i sifatida etillangan benzindan foydalanmang.

Katalitik neytralizator o'rnatilgan avtomobilarning yoqilg'i baki og'zi juda tor bo'lib, bu etillangan benzin quyish uchun ishlatalidigan pistoletdan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.



DIQQAT

Ishlatilgan gazlar katalitik neytralizatori yoqilg'i to'liq yonmasligi oqibatida buzilgan bo'lishi mumkin. Yoqilg'i to'liq yonmasligiga avtomobilni o't oldirishda muammo tug'ilganda akselerator tepkisini bosib turib dvigatelni ishga tushirish sabab bo'ladi.

DIQQAT

- Dvigatel ishlashida muammo paydo bo'lganda yoki quvvat yetishmagan holatda avtomobilni haydamang. Bu jiddiy mexanik muammolar borligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatda avtomobilni haydash katalitik neytralizatorga va avtomobilning boshqa qismlarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin, keyin talab etiladigan ta'mirlash ishlari ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlar bilan qoplanmaydi.

G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR

Quyidagi vaziyat yuzaga kelganda vakolatlangan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling:

- O'toldirishda uzilish bo'lса;
- Past haroratda avtomobil qiyin ishlasa.
- Avtomobil quvvat yo'qotsa.
- Avtomobil noodatiy ishlasa, bu o't oldirish tizimida muammo borligidan dalolat beradi. Dvigatel ishlaganda "Dvigatel servisi" chirog'i doim yonib, miltirab tursa.

Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.

▲ DIQQAT

- Dvigatel qizimasdan turib harakatni boshlamaslikka harakat qiling.
- Avtomobilni harakatlanirishga urinayotganda o't oldirish kalitini 15 soniyadan ortiq yoqiq ushlab turmang.
- Avtombildan bak to'liq bo'shanguncha foydalanmaslikka harakat qiling.
- Avtomobilni itarib yoki shatakka olib ishga tushirishga urinmang.

Avtomobilni qo'shimcha akkumulyator batareyasi yordamida ishga tushirishga harakat qilib ko'ring.

▲ DIQQAT

Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik avtomobilning dvigateli, yoqilgi yoki gaz chiqishi tizimi buzilishiga olib kelishi mumkin. Keyin talab etiladigan qimmatbaho ta'mirlash ishlari ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha ishlar bajarilganiga ishonch hosil qiling. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.

Bu:

- avtomobilning barcha qismlari to'g'ri ishlashini;
- avtomobilning zararli chiqindilari miqdori kam bo'lishini;
- avtomobilning katalitik neytralizatori tizimi yana uzoq yillarda xizmat qilishini kafolatlaydi.

▲ DIQQAT

Mos kelmaydigan g'ildirak yoki shinallardan foydalinish YTHga olib kelishi mumkin.

- Original shinallarni almashtirishdan oldin texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Aks holda shinallarni almashtirish shikastlanishga, avtomobilga va boshqa mulkka zarar yetishiga olib kelishi mumkin. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.


Texnik xizmat ko'rsatish

▲ OGohlantirish

- Avtomobilga ortiqcha yuk ortmang.
- Avtomobilning shinallariga zarur darajagacha havo urilgan bo'lishi kerak.
- Havo bosimi shinalar sovuqligida tekshiriladi (atrof muhit haroratidalgida).

Shinalardagi havo bosimi shinaning yorlig'ida ko'rsatilgan ko'rsatkichga mos kelishi avtomobilni haydash qulay bo'lishini, xavfsizlik va ekspluatatsiya ko'rsatkichlari yuqori

bo'lishini ta'minlaydi. Shinalardagi bosimni o'chash uchun aniq monometrдан foydalaning. Shinadagi havo bosimini o'lchagandan so'ng klapanning himoya qalpoqchalarini mahkam burab qo'ying.



S3W6401A

ESLATMA

Havo bosimi shinalar sovuqligida tekshiriladi. Qizigan shinalarda bosim ko'tariladi. Shinalar 1,6 km yo'l bosib o'tgandan keyin qizib ketishi mumkin. Sovush uchun esa uch soat ketadi (avtomobil to'xtaganidan so'ng).

Qarang: Shinalardagi bosim yaxshi bo'lishi uchun "Avtomobilning spetsifikatsiyasi".
Har safar yo'lga chiqishdan oldin shinalarni ko'zdan kechiring va har bir yoqilg'i quyish shoxobchasida yoki kamida bir oyda bir marta shinalardagi bosimni tekshiring.

Shinalardagi havo bosimi yetaricha bo'lmasligi:

- Shinalarga tushadigan yukni ko'paytiradi;
- Avtomobil boshqarilishini va haydash xavfsizligini yomonlashtridi;
- Haydash qulayligiga ta'sir qiladi;
- Yoqilg'i sarfini ko'paytiradi.

Shinalardagi havo bosimi yetaricha bo'lmasa, shinalar qizib ketishiga, ichiga zarar yetishiga, protektor qatlamlariga ajralishiga va, hatto, yuqori tezlikda ketayotganda shinalar yorilib ketishiga olib kelishi mumkin. Bosimi past shinalardan foydalanganidan so'ng, keyinchalik normal bosim bilan foydalanganda ham shinalarga zarar yetishi mumkin.

Shina va g'ildiraklarning holatini diqqat bilan kuzating.

Shina va g'ildiraklarning holatini diqqat bilan kuzating. Shina va g'ildirakka zarar yetkazishi mumkin bo'lgan o'tkir narsalarni aylanib o'ting. Agar ayrim o'tkir narsalarni aylanib o'tish imkon bo'lmasa, ularning ustidan sekin va imkon qadar to'g'ri burchak ostida o'ting.

Vaqti-vaqti bilan shinalarda:

- Ko'zga tashlanadigan zararlar;
- Protektorda begona narsalar;
- Teshilgan;
- Kesilgan;
- Darz ketgan joylar;
- Yon tomonida shishib qolgan joylar yo'qligini tekshiring.

G'ildiraklarga zarar yetmaganini tekshiring.

Shinadagi nuqsonlar, shu jumladan yuqorida bayon etilgan nuqsonlar avtomobil boshqaruvu ustidan nazorat yo'qotilishiga, va buning natijasiga yo'l transport hodisasiga sabab bo'lishi mumkin. Shina va g'ildiraklarga zarar yetsa yoki protektorlar yomon holatda bo'lса, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Vakolatlangan dilerga murojaat qilishni tavsiya etamiz.

Mazkur avtomobilga radial shinalar o'rnatilgan. Shinalarni almashtirganda xuddi shu hajmdagi radial shinalardan foydalinish tavsiya etiladi.

OGohlantirish!

Turli hajmli yoki tipli shinalardan foydalanganda avtomobilni boshqarish yomonlashishi, bu esa avariyaga sabab bo'lishi mumkin.
Shuningdek, turli hajmli shinalardan foydalinish avtomobilga zarar yetishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilga bir xil hajmli va tipli shinalar o'rnatilishina ta'minlang.

Protektor oxirigacha yeyilganini ko'rsatuvchi ichiga o'rnatilgan indikator

Protektor oxirigacha yeyilganini ko'rsatuvchi ichiga o'rnatilgan indikator yordamida shina protektorlarining chuqurligini muntazam o'lchab turing.

Protektor oxirigacha yeyilganini ko'rsatuvchi ichiga o'rnatilgan indikatorning qayerda joylashgani yon boshdagi maxsus markirovka ko'rsatilgan.

DIQQAT!


- Shinalari eskirgan yoki zarar ko'rgan avtomobilni haydamang.

Bu avtomobil boshqaruvi ustidan nazorat yo'qotilishiga, to'qnashuvga olib kelib, jiddiy jarohatlarga, avtomobil yoki boshqa mulkka zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

Protektor oxirigacha yeyilganini ko'rsatuvchi ichiga o'rnatilgan indikator yonishi bilan shinalarni almashtiring. Agar protektorning chuqurligi 1,6 mm va undan kam bo'ssa, indikator protektor chuqurchalarining orasida paydo bo'ladi.

ESLATMA

Eskirgan shinalarni mahalliy atrof muhitni himoya qilish qoidalariga muvofiq utilizatsiya qiling.




Shinalarning joyini almashtirish

Oldi va orqa shinalar turi funksiyalarni bajaradi va turli darajada yeyiladi.

Odatda, oldi shinalar orqa shinalarga nisbatan tezroq yeyiladi.

Quyidagi usullar yordamida shinalarning xizmat qilish muddatini uzaytirish va protektor har xil yeyilishini oldini olish mumkin:

- Agar oldi shinalar orqa shinalarga nisbatan ko'proq yeyilgandek tuyulsa, ularning joyini almashtiring.



2. Shinalarda havo bosimi lozim darajada bo'lishiga qarab turing.

3. Shinalardagi g'ildirak gaykalari va boltlari mahkam burab qo'yilganini tekshiring.

Qarang: "Zarar yetgan g'ildirakni almashtirish" bobi.

Yo'naltilgan shinalar sotib olingen bo'lsa, faqat oldi shinalarni orqa shinaga almashtiring.

OGOHLANTIRISH!

- Faqat tavsiya etilgan shinalar, gayka/boltlardan foydalaning.

Avtomobilga dastlab o'rnatilgan shinalardan farq qiladigan shinalarni qo'yish shinalar bilan avtomobil qismalari o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishiga olib kelib, bu avtomobil buzilishiga va shinalar ishdan

▲ OGOLANTIRISH!

chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday zarar ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi. Aks holda avtomobil boshqaruvi ustidan nazorat yo'qotilishi, to'qashuv yuz berib, shikastlanish, avtomobilga va boshqa mulkka zarar yetishi mumkin.

Qishki shinalar

Qishki shina o'rnatish zarurati yuzaga kelsa:

- Qishki shina to'rtala g'ildirakka o'rnatilishi kerak.
- Shinalarini ishlab chiqargan zavod tomonidan ko'rsatilgan tezlikni oshirmang.
- Shinalaridagi havo bosimi ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'rsatilganiga mos bo'lishi kerak.

Sirg'alishiga qarshi shinalar zanjirlar

G'ildirak qopqoqlari tirlamasligi uchun sirg'alishga qarshi zanjirni shinallarga o'rashdan oldin ularni yeching (agar bor bo'lsa).

- Zanjirlarni ishlab chiqargan zavodning yo'riqnomalariga rioya qiling.
- Shinalar sirg'alishiga qarshi zanjirlarni oldi shinallarga imkon qadar mahkam bog'lang.
- 1,0 km yo'l bosib o'tgandan so'ng sirg'alishga qarshi zanjirlarni tortib qo'ying.

Shinalar sirg'alishiga qarshi zanjirlarni orqa shinallarga o'rnatish tavsija etilmaydi.

▲ DIQQAT

Shinalar sirg'alishiga qarshi zanjirlardan foydalanish avtomobilni boshqarishga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

- Tezlikni soatiga 50 kmdan yoki zanjirlarni ishlab chiqargan zavod tavsija etган tezlik bundan pastroq bo'lsa, shu tezlikni oshirmang.
- Keskin qayimlaslikka, zarba bilan urimlaslikka va chuqurlarni aylanib o'tishga harakat qiling.
- Blokka tushirilgan g'ildirak bilan tormoz bermang.

ESLATMA

- Mazkur avtomobil uchun tavsija etilgan shinalar sirg'alishiga qarshi zanjirlari - SAE toifali, S tipli zanjirlar.
- G'ildirakka shinalar sirg'alishiga qarshi zanjirlar o'ralganda, past tezlikda yurish tavsija etiladi.
- Agar zanjirlar avtomobil kuzoviga tegayotgani ovozi eshitilsa, to'xtang va sirg'alishga qarshi zanjirlarni yana bir bor mahkamlang.
- Ovoz to'xtama sasi, ovoz butkul to'xtamaguncha tezlikni pasaytiring.

Vaqtinchalik zaxira g'ildirak

Yangi avtomobilga o'rnatilayotganda kompakt zaxira g'ildirak to'liq shishiriladi, ammo, shunga qaramay, vaqt o'tishi bilan undagi bosim kamayishi mumkin. Shinalaridagi bosimni mutzazam tekshiring. Qarang: Shinalaridagi bosim yaxshi bo'lishi uchun "Avtomobilning spetsifikatsiyasi".

▲ DIQQAT!

Yo'l g'ildiragi sifatida zaxira g'ildirak o'rnatilgan paytda avtomobilni yuvish uchun avtomat yuvishdan foydalanmaslik kerak. Vaqtinchalik zaxira g'ildiragidan foydalanish avtomobilning boshqariluvchanligiga ta'sir etishi mumkin.

Tezlikni 120 km/s dan oshirmsadan haydang. Bu g'ildirakdan uzoq vaqt foydalanmang.

▲ DIQQAT!

- Shinalar sirg'alishiga qarshi zanjirlarni vaqtinchalik g'ildirakka taqmang. Ularni to'g'ri ulash imkoniy yo'q.
- Vaqtinchalik g'ildirakdan sirg'alishga qarshi zanjir bilan birga foydalanish avtomobil va zanjirlarga zarar yetishiha olib keladi.

Shina bosimi haqidagi xabar

Xabar shinada bosim past bo'lganida paydo bo'ladi. U past shina qaysi g'ildirakdaligini va past shinadagi taxminiy bosimni ko'rsatadi.

Agar shinalardagi bosim to'g'risida xabar paydo bo'lsa, imkon qadar tezroq to'xtang. Shinalardagi bosim ma'lumot taxtasidagi ko'rsatkichga mos kelmaguncha shinalarga havo urilsin.

Shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi

Shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi

Avtomobilingiz shinalardagi bosimni monitoring qilish tizimi (TPMS) bilan jihozlanishi mumkin. TPMS tizimi haydovchini shinalardagi bosim pasayganidan xabardor qiladi.

TPMS tizimi datchiklari zaxira g'ildirakdan tashqari hamma g'ildiraklarga o'rnatilgan. TPMS datchiklari shinalardagi bosimni nazorat qiladi va bosim ko'rsatkichlarini avtomobil ichidagi qabul qiluvchiga uzatadi

Tire
nor

Shinalardagi bosim indikatorini avtomobil yukiga moslashtirish uchun asboblar panelidagi almashlab ulagich tugmasini bosing. Chambarakni aylantirib, Tire load (Shinalarga tushadigan yuk) rejimini tanlang. Almashlab ulagich tugmasini bosing. Menyuda quyidagi punktlar bor. Kerakli menyuni tanlash uchun qayilish ko'rsatkichi richagidagi chambarakni aylantiring.

- 1-yuk: Lo (Past) (Shinalardagi bosim rejimi qulay)
- 2-yuk: Eco (Eko) (Shinalarda tejamkor bosim rejimi).

Tanlojni tasdiqlash uchun almashlab ulagich tugmasini bir necha soniya bosib turing.



ESLATMA

Shinalarning bosimi haqida haydovchi eshigining ramasidagi yorliqda ko'rsatilgan.

Shinalarda bosim to'g'ri bo'lishi uchun shinalardagi bosim ko'rsatilgan yorliqdagi tavsiyaga rioya qiling.



Agar shinada bosim tushib ketgani aniqlansa, asboblar kombinatsiyasidagi indikator yonadi. Agar shinadagi bosim tushib ketganligi indikatori yonsa, imkon qadar tezroq mashinani to'xtating va shinalarga tavsija etilgan ko'rsatkichgacha havo uring.

Indikator har safar mashina o't oldirilganda yonadi va shinalarga bosim kerakli darajada urilmaguncha yonib turadi.

Sovuq havoda mashina ishga tushirilganda indikator yonib, avtomobil harakatga kelgandan keyin o'chishi mumkin. Bu bosim pasayib borayotgani va shinalarni shishirish kerakligi to'g'risida birinchi belgi bo'lishi mumkin.

Shinalardagi bosim va avtomobilga yuk ortish taxtachasida dastlabki komplektatsiyadagi shinalarning hajmi va sovuq shina uchun tegishli bosim ko'rsatilgan.

ESLATMA
<p>TPMS tizimi shinalardagi bosim tushib ketgani to'g'risida ogohlantirishi mumkin, ammo shinalarga odatiy texnik xizmat ko'rsatish o'rniini bosolmaydi.</p>

DIQQAT!

Shina germetiklarining materiallari bir xil emas. To'g'ri kelmaydigan shina germetiki TPMS datchiklari buzilishiga olib kelishi mumkin.

Noto'g'ri germetik ishlatlilishi oqibatida TPMS datchiklariga yetkazilgan zarar avtomobilga berilgan kafolat bilan qoplanmaydi. Doim faqat GM - ma'qullangan shina germetiklaridan foydalaning. Ularni dilerlar orqali sotib olish mumkin yoki ular transport vositasi komplektiga kiradi.

Nosozliklar

Bir yoki bir nechta TPMS tizimi yo'q bo'lsa yoki lozim darajada ishlamasma, TPMS tizimi lozim darajada ishlay olmaydi. TPMS tizimi chastotasiga yaqin chastotada ishlaydigan radio uskuna oldida, bir necha yoki bitta TPMS tizimi yonma-yon ishlaganda TPMS tizimi datchiklari ishdan chiqishi mumkin.

Tizim nosozlikni aniqlagandan so'ng indikator taxminan 1 daqqaqada davomida yonib-o'chib turadi, shundan keyin o't oldirish o'chirilmaguncha muntazam yonib turadi.

- Indikator har safar avtomobil o't oldirilganda yoqildi va nosozlik bartaraf etilmaguncha yonib turadi.
- Indikator yonishiga sabab bo'lувчи ba'zi vaziyatlar:



- Shtatdagi g'ildiraklardan biri zaxira g'ildirakka almashtirilgan;
- Zaxira g'ildirakda TPMS datchigi yo'q, TPMS datchigi o'rnatilgan shtatli g'ildirak o'rnatilgandan so'ng indikator o'chishi kerak.
- Shinalar rotatsiyasidan so'ng ularni TPMS tizimi datchiklariga ulash ishlari tugallanmagan yoki noto'g'ri bajarilgan. TPMS tizimi datchiklariga ulash ishlari to'g'ri bajarilgan bo'lsa, indikator o'chishi kerak. Quyida datchiklarni ulash ishlariiga qarang.
- TPMS datchiklarining biri yoki bir nechta yo'q yoki zarar ko'rgan. TPMS tizimi datchiklari o'rnatilib, to'g'ri ulangandan so'ng indikator yonishi kerak. Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
- Almashtirilgan shinalar yoki disklar dastlabkilaridan farq qiladi. Dastlabkilaridan farq qiladigan shina va disklar o'rnatilgan taqdirda TPMS tizimi ishlamasligi mumkin.
- Radio uskunalaridan foydalanganda yoki TPMS tizimi radiochastotasiga yaqin

chastotalarda ishlaydigan radio uskuna yonida TPMS tizimi datchiklari ishlamasligi mumkin.

- TPMS tizimi ishdan chiqqan, tizim signalni qabul qilmayapti yoki shinalarda bosim pasayganini aniqlay olmayapti. Agar indikator yonib, o'chmayapgan bo'lsa, vakolatlari servis markaziga murojaat qiling.

TPMS tizimi datchiklarini ulash taomili

Har bir TPMS datchigi noyod identifikatsiya kodiga ega. Shinalar rotatsiya qilingandan so'ng yoki bir yoki bir necha datchik almashtirilgandan so'ng ushbu identifikatsiya kodi shina/disklarning yangi holatiga ullanishi kerak. Zaxira g'ildirak TPMS datchigiga ega ishchi g'ildirakka almashtirilgandan so'ng TPMS tizimi datchiklarini ulash taomili bajarilishi kerak.

Shinalardagi havo bosimini nazorat qilish tizimini dasturlarshirish uchun maxsus instrument yordamida datchiklarni g'ildiraklarga ulash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: oldi chap g'ildirak, oldi o'ng g'ildirak, orqa o'ng g'ildirak va orqa chap g'ildirak.

Tyre LEARn

Taomilni bajarish yoki programmator sotib olish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Birinchi g'ildirak datchigini dasturlashtirish ikki daqiqa, to'ttalasini dasturlashtirish esa besh daqiqa davomida bajarilishi kerak. Agar jarayon uzoq davom etsa, taomil bo'lindi va uni boshqatdan ishga tushirish kerak bo'ladi.

TPMS tizimi datchiklarini ulash taomili quyidagi tartibda bajariladi:

1. Qo'l tormzo tortilsin.
2. Dvigatele yoqilib, o't oldirish ON/RUN holatiga qo'yilsin.
3. Asboblar panelidagi al mashlab ulagich tugmasi yordamida haydovchingin axborot markazidagi tegishli menyuni tanlang.
4. Chambarakni aylantirib Tyre Learn (Shinalarni aniqlash) menyusini tanlang.

5. Datchiklarni ulash jarayonini boshlash uchun almashlab ulagich tugmasini bosing. Tasdiqlash so'ralgan xabar paydo bo'ladi.
6. Tasdiqlash uchun almashlab ulagich tugmasini yana bir bor bosing. Ikki martalik ovozli signal priyomnik ular rejimida turganidan xabar beradi.
7. Dasturlash taomili oldi chap g'ildirakdan boshlanadi.
8. Programmatorni ventil yonidagi shinaning yonboshiga yaqinlashtiring.
- So'ng, TPMS datchigini ishga tushirish uchun tugmani bosing. Datchikning identifikatsiya kodi shina va g'ildirakning joriy holatiga ulanganidan so'ng, tasdiqlovchi ovozli signal eshitiladi.
9. Oldi o'ng g'ildirakka o'ting va 8-bandda ko'rsatilgan harakatlarni bajaring.
10. Orqa o'ng g'ildirakka o'ting va 8-bandda ko'rsatilgan harakatlarni bajaring.
11. Orqa chap g'ildirakka o'ting va 8-bandda ko'rsatilgan harakatlarni bajaring.
- Ovozli signal ikki marta eshitiladi, datchikning identifikatsiya kodi orqa chap g'ildirakka ulanganidan va shinalardagi havo bosimini nazorat qilish tizimi datchiklarini ulash taomili tugatilganidan xabar beradi.
12. O't oldirishni LOCK/OFF holatiga qo'ying.
13. To'rtta g'ildirakka bosimlar taxtachasiga tavsija etilgan darajagacha havo uring.

Havo konditsionerining filtri*

Ushbu filtr yordamida isitish va ventilyatsiya tizimi orqali avtomobil saloniga kiradigan chang va boshqa uchuvchan zarrachalar bartaraf etiladi.


⚠ DIQQAT!

- Ushbu filtrga xizmat ko'rsatish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qiling. Filtrlash elementi to'lib qolgan avtomobilni haydash ventilyator motori qizib ketishiga va buzilishiga olib keladi. Uni ta'mirlash ishlari ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmaydi.
- filtrni almashtirish davriyigini mazkur qo'llanmaning "TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI" bobida o'qing.


ELEKTR ASBOBLAR

Filtrni almashtirish

1. Qo'lqop qutisini ozroq oching.
2. Qo'lqop qutisini bir vaqtini o'zida ham tepa, ham past tomonidan ushlang.
3. Qo'lqop qutisini paneldan chiqarib oling.



4. Filtrning qopqog'ini yechib oling.




⚠ DIQQAT!

Filtr atrofidagi o'tkir narsalar qo'lni kesishi mumkin.

- Havo konditsioneri filtrini almashtirayotganda albatta himoya qo'lqopini taqing.

5. Havo konditsioneri filtrini almashtiring.




ESLATMA

Yangi filtrni o'rnatganda, uni havo oqimiga perpendikulyar joylashtiring.

Ervchan saqlagichlar

Ervchan saqlagichlarni almashtirish

1. Ervchan saqlagichlar blokining qopqog'ini oching.
2. Kuygan saqlagichni toping (simi kuygan bo'ladi).
3. Kuygan saqlagichni saqlagich uchun pinset yordamida olib tashlang. Saqlagich uchun pinset motor bo'limidagi saqlagichlar blokida turadi.



⚠ DIQQAT!

- Kuygan saqlagichni olish uchun elektr toki o'tkazadigan asboblardan foydalanmang. Faqat saqlagich uchun maxsus pinsetdan foydalanish lozim.

⚠ DIQQAT!

Metall asboblardan foydalanish qisqa tutashuvga sabab bo'lish, elektr tizimiga zarar yetkazishi va o't chiqishiga olib kelishi mumkin. Jiddiy jarohat olish mumkin.

4. Eruvchan saqlagich nima sababdan kuyganini aniqlang va muammoni bartaraf eting.

5. Yangi eruvchan saqlagich qo'ying. U mazkur y o' r i q n o m a d a b a y o n e t i l g a n spetsifikatsiyalarga mos kelishi lozim. (Quyida shu bo'limdagi "Saqlagich bloki strukturasi" bobiga qarang).

⚠ DIQQAT!

Noto'g'ri tipli yoki nominal qiymati o'zgacha saqlagichni o'natish elektr sxemalarga zarar yetishiga va, hatto, o't chiqishiga olib kelishi mumkin.

- Faqat ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan saqlagichdan foydalanish, boshqa tipdag'i va maksimal tok qiymati o'zgacha saqlagichni o'natmaslik kerak.

Mazkur talabning bajarilmasligi shikastlanishiga, avtomobil yoki boshqa mulkka zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin.

⚠ OGOLANTIRISH!


Asl GM saqlagichlarining texnik xususiyatlariغا mos kelmaydigan saqlagichlarni o'natish yoki ishlatalish xavfiidir. Saqlagichlar ishlamay qolishi va yong'inga olib kelishi mumkin. Bu odamlarning jarohatlanishiga yoki o'limga olib kelishi mumkin, shuningdek, avtomobilga shikast yetishi mumkin.

ESLATMA


Motor bo'limidagi saqlagichlar blokida 3 ta zaxira saqlagich bor (10A, 15Ava 20A).

Saqlagichlar bloki

- Ichki saqlagichlar blok boshqarish panelining chap tomonida joylashgan.




- Motor bo'limidagi saqlagichlar bloki sovutish suyuqligi rezervuarining orqasida joylashgan.

**ESLATMA**

Mazkur qo'llanmada saqlagichlar blokiga berilgan barcha tavsiflar ham transport vositangizning saqlagich bloki uchun to'g'ri kelavermaydi. Mazkur ma'lumot qo'llamma chop etilayotgan paytda to'g'ri. Transport vosisasining saqlagichlar blokini ko'zdan kechirayotganda saqlagichlar blokida joylashgan etiketkaga e'tibor bering.


Ichki saqlagichlar bloki



Saqlagich	Tavsifi
F1	Xavfsizlik yostiqchasi moduli
F2	Dvigatelni boshqarish tizimi 1
F3	ERA GLONASS diagnostika shleyfi
F4	Eshik qulfi
F5	Tovushli signal
F6	Oynatozalagich
F7	Stop-signal
F8	Tumanga qarshi orqa chiroqlar
F9	Elektrik ko'zgu *
F10	Asboblar majmui
F11	Audiotizim 1
F12	Burilish signali
F13	Sigaret tutatgich
F14	Salon chirog'i
F15	Kunduzgi yoritish yog'dulari 1
F16	Avtomatik uzatmalar qutisi uzatmasini o'zgartirish dastagi / Kunduzgiyoritish yog'dulari 2
F17	Audiotizim / Soat
F18	Dvigatelni boshqarish elektron bloki

Saqlagich	Tavsifi
F19	Orqaga harakatlanish chirog'i
F20	Isitgichli ko'zgu
F21	Orqa oyna isitgichi

Motor bo'limidagi saqlagichlar bloki



Saqlagich	Tasnifi
F1	Akkumulyator
F2	Chap to'xtab turish chirog'i
F3	O'ng to'xtab turish chirog'i
F4	Starter / o't oldirish 2
F5	Kondits. komp. tizimi / o't oldirish 1
F6	Favqulodda chiroqli signalizatsiya
F7	Yaqinни yoritish o'ng chirog'i
F8	Yaqinни yoritish chap chirog'i
F9	Oldingi tumanga qarshi chiroqlar *
F10	Uzoqni yoritish chiroqlari
F11	Sovutish ventilyatorining yuqori tezligi
F12	Sovutish ventilyatorining past tezligi
F13	Konditsioner kompyuter tizimi *
F14	Elektrik oynako'targich 2 *
F15	Elektrik oynako'targich 1 *
F16	Yoqilg'i nasosi
F17	Dvigatelni boshqarish moduli
F18	Dvigatelni boshqarish tizimi 1 *

Saqlagich	Tasnifi
F19	Dvigatelni boshqarish tizimi 2 *
F20	Zaxira
F21	Zaxira
F22	Zaxira
F23	BQT *

Rele	Tasnifi
R1	Yoqilg'i nasosi
R2	Elektrik oynako'targich *
R3	To'xtab turish chirog'i
R4	Oldingi tumanga qarshi chiroqlar
R5	Uzoqni yoritish chiroqlari
R6	Yaqinни yoritish chiroqlari
R7	Sovutish ventilyatorining yuqori tezligi
R8	Sovutish ventilyatorining past tezligi
R9	Havo konditsioneri tizimi *
R10	Asosiy rele *

	Tasnifi
FP	Saqlagichlar uchun pinsent

Chiroqlar

⚠ OGohlantirish!

Galogen chiroqlarda bosim ostidagi gaz bor. Galogen chiroqlar bilan ishlaganda va ularni yechayotganda maxsus ehtiyyot choralar ko'rilishi lozim.

- Ko'zlarining ehtiyyot qiling.
- Chiroqlarning yuzasi ishqalanishiga va tiralishiga yo'l qo'y mang.
- Patronisz yonib turgan chiroqqa suyuqlik tushishiga yo'l qo'y mang.
- Chiroqni faqat o'rnatgandan so'ng yoqish kerak.
- Nosoz chiroqlar almashtirilishi kerak.
- Galogen chiroqlarni almashtirayotganda shisha detallarga qo'l bilan TEGMANG.
- Bolalarni qo'l'i yetmaydigan joyda saqlansin.
- Chiroqlarni o'ta ehtiyyotkorlik bilan utilizatsiya qiling. Chiroqlar portlashi xavi bor.

ESLATMA

Kuchli yomg'irdan keyin yoki yuvilgandan keyin haydaganda, tashqi fonar yoki faralarning ayrimlari terlab qolishi mumkin. Bu yorituvchi asbobning tashqaridagi va ichkaridagi harorat o'tasidagi farq sababli yuz beradi.


ESLATMA

Bu hodisa yomg'ir paytida avtomobil ichidagi oynalarda namlik kondensati paydo bo'lishiga o'xshaydi va avtomobilda biron nosozlik yuzaga kelganidan dalolat bermaydi.

Faralar

Chiroqlarni almashtirish

1. Kapotni oching.
2. Uchta bolt ni olib tashlang.
3. Simning shtepselli ajratgichini chiroqdan uzing.
4. Faraning qopqog'ini yeching.
5. Chiroqni ushlab turgan prujinani ajrating.
6. Chiroqni chiqaring.



G6D6004A

⚠ DIQQAT!

- Galogen chiroqlarni tozalash zarurati tug'ilsa, spirit yoki tarkibida spirit bor mineral vosita bilan to'yintirilgan tuksiz matodan foydalaning. Chiroqqa himoyalanmagan qo'llaringiz bilan tegmang.

Barmoq izlari galogen chiroqlarning xizmat qilish muddatini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin.

Oldi faralarni rostlash

Fara tepasidagi vintlar faralarning yaqinini yoritish chiroq'ini rostlash uchun mo'ljallangan.

⚠ DIQQAT!


Faralarni rostlash zarurati tug'ilsa, bu ishni yaqin joylashgan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirish ma'qul, chunki bu ishda xavfsizlik choralarini ko'rish talab etiladi.

LAMPALARINI ALMASHTIRISH

Turish faralari

Chiroqlarni almashtirish

1. Kapotni oching.
2. Butun faralar blokini yechib oling.
3. Faraning qopqog'ini yeching.
4. Faraning chirog'i yondidagi chiroqni ushlab turgichni chiqaring.
5. Chiroqni patronidan o'zingiz tomon tortib, chiqarib oling.




6. Patronga tuzuk chiroqni o'rnatning. Qarang "Chiroqlar tavsifi" bobi.
7. Faraning qopqog'ini joyiga o'rnatning.
8. Simning shetselli ajratichini ulang.

Oldi qayilish signalini nazorat chiroqlari

Chiroqni almashtirish

1. Kapotni oching.
2. Butun faralar blokini yechib oling.



3. Qayilish signali chirog'ining patronini soat strelkasiga qarshi burang.
4. Qayilish signali chirog'ining oldi patronini faradan chiqaring.
5. Chiroqni patronidan chiqaring. Buning uchun biroz bosing va soat strelkasiga qarshi burang.
6. Patronga yangi chiroqni o'rnatning. Buning uchun uni biroz bosing va soat strelkasi bo'yicha burang. Qarang: "CHIROQLAR TAVSIFI" bobi.
7. Patronni soat strelkasi bo'yicha burab, faraga o'rnatning.
8. Faralar blokini o'rnatning.

Tumanga qarshi oldi faralar*

OGOLANTIRISH!


Bu taomil maxsus tayyorgarlik va asbob talab qiladi.

- Mazkur operatsiyani mustaqil va xavfsiz amalga oshirishga amin bo'lmasangiz, moyni texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasida almashtiring. Aks holda shikastlanish avtomobilning qismlariga zarar yetkazish mumkin. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsiya etamiz.

Yon takrorlagichlarning chiroqlari

Chiroqlarni almashtirish

1. Qayilish signalining yon bosh takrorlagichining blokini butunlay chiqarib oling (o'zingizdan tashqariga bosing).
2. Chiroq patronini soat strelkasiga qarshi burang.
3. Chiroqni patronidan o'zingiz tomon tortib, chiqarib oling.
4. Patronga yangi chiroqni o'rnatning. Buning uchun uni biroz bosib, soat strelkasi bo'ylab burang. Qarang: "CHIROQLAR TAVSIFI" bobi.
5. Yon takrorlagichlarning chiroqlari blokini dastlabki holatga qo'ying.




T2000629

Orqaga yurish fonari, gabarit chiroqlari, tormoz fonari, orqadagi qayilish signalari va tumanga qarshi orqa fonar

Chiroqni almashtirish


1. Bagajnikning qopqog'ini oching.
2. Ikkita vintni burab oling va fara blokini yeching.
3. Chiroq patronini soat strelkasiga qarshi burab, chiqarib oling.
4. Chiroqni patronidan chiqaring, buning uchun uni biroz bosing va soat strelkasiga qarshi burang.
5. Patronga yangi chiroqni o'rnatiting. Qarang: "CHIROQLAR TAVSIFI" bobi.
6. Patronni fara blokiga o'rnatiting. Chiroqning patronini soat strelkasi bo'ylab aylantiring.
7. Fara blokini avtomobilga o'rnatiting va ikkita vintni burab qo'ying.



Tepa tormozlash signalari

Chiroqni almashtirish

1. Bagajnikning qopqog'ini oching.
2. Ikkita vintni burab chiqaring va chiroq blokini yeching. Fara blokini yechishdan avval simning shtepselli ajratgichini uzing.
3. Beshta vintni burab chiqaring va nur qaytargich blokini yeching.




T2000635

4. Chiroqni patronidan o'zingiz tomon tortib, chiqarib oling.
5. Patronga yangi chiroqni o'rnatiting. Qarang: "CHIROQLAR TAVSIFI" bobi.
6. Faralar blokini joyiga o'rnatiting.

Registratsiya belgisini yoritish fonari

Chiroqni almashtirish

1. Ikkita vintni burab chiqarib oling va fonarning qopqog'ini yeching.




2. Patronni fonardan yechish uchun uni soat strelkasi bo'ylab aylantiring.
3. Chiroqni patrondan chiqaring.
4. Chiroqni almashtiring. Qarang: "CHIROQLAR TAVSIFI" bobi.
5. Patronni soat strelkasi bo'ylab aylantirib, fonarga o'rnating.
6. Fonarning qopqog'ini o'rnating.

Tepa plafon

Chiroqni almashtirish


1. Avtomobil salonidagi chiroqning plafonini yechish uchun shlitsli otvertkadan foydalaning.
2. Chiroqni chiqarib oling.
3. Chiroqni almashtiring. Qarang: "CHIROQLAR TAVSIFI" bobi.
4. Plafonni joyiga qo'ying.



Bagaj bo'limi chirog'inining plafoni

Chiroqni almashtirish

1. Plafonni tutqichdan yechish uchun shlitsli otvyortkadan foydalaning.
2. Chiroqni almashtiring. Qarang: "CHIROQLAR TAVSIFI" bobi.
3. Plafonni joyiga qo'ying.



AVTOMOBILGA XIZMAT KO'RSATISH

Tozalash vositalari

Avtomobilning kuzovi va salonini tozalash uchun tozalash vositalari va boshqa kimyoviy vositalardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqaruvchining tavsialariga riox qiling.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Ayrim tozalash vositalari zaharli, o'yuvchan yoki yong'indan xavfli bo'lishi mumkin.

- Ushbu vositalardan noto'g'ri foydalanish xavfli bo'lishi mumkin.

Shikastlanish va avtomobilning qismlariga zarar yetkazish mumkin.

Avtomobilning kuzovi va salonini tozalashda quyidagi xavfli erituvchilardan foydalanmang:

- atseton;
- laksuyultirgich;
- emalni tiklagichlar;
- lakni o'chirish uchun suyuqlik.

Avtomobilning kuzovi va salonini tozalashda quyidagi tozalash vositalaridan foydalanmang (quyida ko'rsatilgan dog'ni tozalash holati bundan mustasno):

- kir sovun;
- oqartirish vositalari;
- tiklovchi vositalar.

Tozalashda aslo quyidagi vositalardan foydalanmang:

- To'rtxlorli uglerod;
- Benzin;
- Benzol;
- Kerosin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Tozalash vositalari va boshqa kimyoviy vositalarning bug'idan nafas olmaslikka harakat qiling.

Bunday bug'lар salomatlik uchun xavfli bo'lishi mumkin, ayniqsa yetarlicha ventilyatsiya bo'lmagan tor xonalarda.

Avtomobil salonida tozalash vositalari va boshqa kimyoviy vositalardan foydalanganda ventilyatsiya yaxshi bo'lishi uchun eshiklarni oching.

⚠ DIQQAT!

Agar mutlaqo quruq bo'lmasa, tuki to'kiladigan matolar salonning ichki jildiga tegishiga yo'l qo'y mang.

Salonning och rang jildi kir bo'lishini oldini olish uchun mutlaqo quruq bo'lmagan tuki to'kiladigan matolar o'rindiqlarning jildiga tegishiga yo'l qo'y mang. Ba'zi tuki to'kiladigan matolar:

- Turli kiyimlar;
- Rangli ip gazlama;
- Velvet;
- Charm;
- Zamsh;
- Gazetalar;
- Rangli qog'ozlar.

Salonlarga qarash va tozalash

⚠ DIQQAT!

- Avtomobil salonining jildini faqat tavsiya etilgan usullar va vositalar yordamida tozalang.

Aks holda, ayniqsa birinchi marta tozalaganda, suv dog'lari, izlari va ketmaydigan dog'lар paydo bo'lishi mumkin. Bu saloning tashqi ko'rinishi aynishiga olib keladi.

Avtomobilning kuzov qismlari va salonini tozalaganda faqat tavsiya etilgan usullar va vositalardan foydalanish juda muhim.

Salonda to'planadigan chang va kirni tozalash uchun changyutgich va yumshoq tukli cho'tkadan foydalaning.

Salonning vinilli va charm jildini toza nam latta bilan muntazam artib turing.

Salon jildidagi kir va dog'nii tegishli tozalash vositosi bilan tozalang.

⚠ DIQQAT!

Agar oldingi o'rindiq yon tomon xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan bo'lsa:

- Jild tozalagichni o'rindiq jildiga surtmang.
- O'rindiq jildlarini kimyoviy eritish vositalari yoki kuchli tozalash vositalari yordamida tozalamang.

⚠ DIQQAT!

Aks holda yon tomon xavfsizlik yostiqlari ifloslanishi mumkin, bu esa to'qnashuv paytida ularning himoya xususiyatlarini yomonlashtiradi.

⚠ DIQQAT!

Asboblar paneli va konsol qopqog'iغا suyuq aromatik moddalarni qo'yish tavsya etilmaydi.

Agar asboblar panelining plastik qismlari, molding, ventilyator panjarasi, konsol qopqog'i va shu kabilarga suyuq aromatik moddalar yoki aromatik spreylar tushsa, aromatik moddalarning ayrim ingrediyentlari bo'yagan plastik qismlarni buzishi mumkin.

Bunday vaziyatda suyuq aromatik moddalarni toza suv bilan tezda yuvish tavsya etiladi.

Xavfsizlik kamarlariga qarash**⚠ DIQQAT!**

Xavfsizlik kamarlarining samaradorligini ta'minlash uchun ular yaxshi holatda saqlanishi lozim.

Xavfsizlik kamarlari doim toza va quruq saqlanishi kerak. Xavfsizlik kamarlari polirollar, moy va kimyoviy vositalari, ayniqsa

akkumulyator kislotasi, oqartiruvchi vositalar va bo'yoq bilan ifloslanishiga yo'l qo'y mang.

Bundan vositalar bilan ifloslanganda xavfsizlik kamarining materiali mustahkamligi kamayishi mumkin.

Xavfsizlik kamarining barcha qismlarini vaqtiga bilan tekshirib turing. Zarar yetgan kamar yoki mahkamlash elementlarini zudlik bilan almashtiring.

Hatto yetkazilgan zarar sezilmas yoki kam sezildigan bo'lsa ham YTH oqibatida cho'zilib ketgan xavfsizlik kamarlarini almashtirish lozim. Xavfsizlik kamarlari faqat yangisiga almashtirilishi lozim.

Avtomobil to'qnashgandan so'ng xavfsizlik kamarini butun mehanizmi bilan almashtirishni tavsya etamiz. Agar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis YTH oqibatida xavfsizlik kamarlariga zarar yetmaganini va ular yaxshi ishchi holatda ekanini aniqlasa, kamarlarni almashtirish majburiy emas. Vakolatlangan diler bilan maslahatlashishni tavsya etamiz.

Oyna yuzalari**⚠ DIQQAT!**

Abraziv tozalash vositalari oynani tirnashi yoki orqa oyna isitgichining simlariga zarar yetkazishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

- Avtomobilning oynalarini abraziv tozalash vositalari bilan tozalamang.

Yetkazilgan zarar ko'rinish yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Toza oynalar kamroq yaltiraydi va shaffofroq bo'ladi.

⚠ DIQQAT!

Nakleykalar orqa oyna isitgichiga zarar yetkazishi mumkin.

- Nakleykalarni orqa oynaga ichkaridan yopishtrimang.

Yetkazilgan zarar ko'rinish yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Peshoynaning tashqi yuzasini tozalash.

Peshoynadagi mum yoki boshqa modda peshoyna tozalagichishlaganda uning cho'tkasi titrashiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bunday materiallar oynani tozalashga xalaqit berishi mumkin.

Peshoynaning tashqi yuzasini noabraziv vositalar bilan yuvib turing.

Toza peshoynada suv to'planmaydi.

O'T O'CHIRGICH UCHUN JOY

O't o'chirgichning joylashish joyi sifatida, avtomobilning yukxona bo'limida joylashgan yuksaltani ishlatalish kerak.

O't o'chirgichni vakolatlangan dilerlaridan xarid qilishingiz mumkin.

O't o'chirgich yukxona bo'limining chap qismida saqlanishi kerak.

O't o'chirgichdan quyidagi kabi foydalanish lozim:

1. Avtomobilni keyingi xavfsiz joyda to'xtating va darhol dvigatelni o'chiring.

2. Quifni bo'shatib o't o'chirgichni yukxalta ichidan chiqaring

3. O't o'chirgichni mos ravishda qo'llash uchun ko'satmalariga rioya qiling.

Eslatma:

Transport vositasining egasi o't o'chirgich holati uchun javobgardir, shuning uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan davrda yorliqdagi ko'satmalarga asosan texnik tekshirish amalga oshirilishi kerak.



Tashqi elementlarga qarash va avtomobilni yuvish

Avtomobilni yuvish

Avtomobilning xizmat qilish muddatini uzaytirishning eng yaxshi usuli - uni toza saqlash va mintazam yuvib turish.

Avtomobilni quyoshda qoldirmang.

- Yuvish uchun avtomobil uchun mo'ljallangan sovun va sovuq yoki iliq suvdan foydalaning.
- Yuvib bo'lgandan so'ng avtomobil yuzasida sovun va tozalash vositalari qolmaganiga ishonch hosil qiling.

ESLATMA

- Avtomobilni yuvish uchun suyuq idish-tovoq yuvish vositasidan foydalanmang.

Bunday vositadan foydalanganda mumli qoplamaga zarar yetadi.

DIQQAT!

- Yuqori bosimda yuvmaslikka harakat qiling. Aks holda SUV avtomobilning ichiga tushishi va salon qismlariga zarar yetkazishi mumkin.

Avtomobil normal iqlim sharoitida ishlashga mo'ljallangan bo'lib, uni ishlab chiqishda atrof muhitning tabiiy ta'sir qilishi hisobga olingan.

DIQQAT!

Avtomatik yuvish antennaga zarar yetkazishi mumkin.

- Audiotizimni o'chirib, antennani yig'ib qo'ying.
- Tomdag'i machta yoki antennani qo'lda yechib oling.

Silliqlash va mum qoplash

Yuzasidagi notekisliklarni bartaraf etish uchun avtomobilni muntazam silliqlab turing. Silliqlagandan so'ng bo'yoqni himoya qilish uchun yuqori sifatli avtomobil mumini surtib qo'ying. Ammo, shuni bilingki, silliqlaganda kuzovning lak bo'yoq qoplama si ingichkalashadi.

Avtomobil kuzovining yaltiroq metall qismlarini himoya qilish

Yaltiroq metall qismlarini muntazam yuvинг. Odатда, фақат сув билан yuvish talab etiladi.

DIQQAT!

- Alyumin moldinglarni tozalash va silliqlash uchun avtomobil yoki xromli polirollardan, bug'va ishqorli sovundan foydalanmang. Bu materiallar yetarli darajada abraziv bo'lishi va avtomobilning moldingi va g'ildiraklariga zarar yetkazishi mumkin.

Avtomobilga mum surtayotganda yaltiroq metall qismlarga ham surting.

G'ildirakning alyumin diskлari va qopqoqlarini tozalash

G'ildirak diskлari va qopqoqlarining dastlabki ko'rinishini saqlab qolish uchun ularni yo'l kiridan tozalang, tormozlash diskлarida chang yig'ilishiga yo'l qo'y mang.

DIQQAT!

G'ildirakning alyumin diskлari va qopqoqlarini tozalash uchun abraziv tozalash vositalari yoki cho'tkadan foydalanmang.

G'ildirak diskлari va qopqoqlarini ularning yuzasiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan abraziv vositalarsiz muntazam tozalab turing.

Korroziyadan himoya

Avtomobilda korroziyaga qarshi himoya ko'zda tutilgan. Avtomobilning aksariyat qismlarida ishlatalidigan maxsus materiallar va himoya qoplamalari avtomobilning tashqi ko'rinishini yaxshi holatda saqlash, uning mustahkamligi va ishonchliligin ta'minlash imkonini beradi. Ustki zang dvigatelning ma'lum qismlarida yoki avtomobilning tagida paydo bo'lishi mumkin, ammo ushbu elementlarning ishonchliligi va ishiga ta'sir qilmaydi.

Metall listiga zarar yetishi

Avtomobilning kuzov qismini ta'mirlash yoki almashtirish zarur bo'lsa, ta'mirlash ustaxonasi korroziyaga qarshi himoyani tiklash uchun tegishli korroziyaga qarshi materialdan foydalanishiga ishonch hosil qiling. Qarang: quyidagi "YUZALARGA YETKAZILADIGAN ZARARLAR" bobি.

Zararli moddalar

Tabiiy va sun'iy kelib chiqishli ko'pchilik o'yuvchan moddalar avtomobilning lakbo'yoq qoplamasiga va boshqa yuzalariga zarar yetkazishi mumkin, bular:

- Kaltsiy xlорid va boshqa tuzlar.
- Muzni eritadigan vositalar.
- Moylar va yelimlar.
- Daraxt shiralari.
- Qushlarning axlati.
- Sanoat yog'inlari.

Avtomobilga tushgan zararli moddalarni imkon qadar tez yuvib tashlang. Agar quyqalarni sovunli suv bilan yuvish imkonи bo'lmasa, maxsus tozalash vositalaridan foydalaning.

⚠ DIQQAT!

Bo'yalgan yuzalarni tozalash uchun mo'ljallangan tozalash vositalaridan foydalaniш lozim.

- Boshqa tozalash vositalari bo'yooqqa zaraр yetkazishi mumkin.

Qoplama yetkaziladigan zararlar

Qoplamadagi toshdan qolgan o'yilqar va chuqur tirnalgan joylarni imkon qadar tez tiklash kerak.

Ochiq metall tezda korroziyaga uchraydi. Uncha katta bo'lмаган o'yilqar va tirnalgan joylarni bo'yash uchun nuqsonlarni bartaraf qilish vositalaridan foydalaniш mumkin.

Kuzovni ta'mirlash va bo'yash ustaxonalari zaraр ko'rgan katta joylarni ta'mirlashi mumkin.

Avtomobil tagiga texnik xizmat ko'rsatish

Muz va qorni tozalash yoki chang bilan kurashish uchun ishlatalidigan o'yuvchan moddalar avtomobilning tagiga to'planib qolishi mumkin. Agar bu moddalar yuvib tashlanmasa, korroziya va zang paydo bo'lishini tezlashtirishi mumkin.

Avtomobilning tagini bu moddalaridan tozalash uchun oddiy suvdan muntazam foydalaning.

Kir va boshqa chiqindi to'planishi mumkin bo'lgan joylarni diqqat bilan tozalang. Yuvishdan oldin qo'l yetmaydigan joylardagi guvalalarни yumshating. Bu ishlar vakolatlangan servis markazida bajarilishi mumkin.

ESLATMA

Dvigatel qismlari tozalanganda, yoqilg'i, moy qoldiqlari atrof muhitga tushishi mumkin.

Dvigatelni vakolatlangan dilerning yuvish joyida yoki moyni ajratgich bilan jihozlangan boshqa joyda yuvung.

Ishlatilgan motor moyi, tormoz suyuqligi, uzatma qutisining ishchi suyuqligi, antifriz, akkumulyator batareyalari va shinalarni utilizatsiya ruxsat etilgan joyda utilizatsiya qiling yoki yangisini sotganda, eskisini qabul qilib oladigan sotuvchiga qaytarib bering.

Bu narsalarni maishiy chiqindilar bilan birga tashlamang va kanalizatsiyaga to'kmang.

Bunday juda xavfli narsalar bilan noto'g'ri muomala qilish atrof muhit ifloslanishiga olib kelishi mumkin.

8

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

-
- UMUMIY AXBOROT 8-2
 - ESLATMALAR 8-6
 - TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI 8-3

UMUMIY AXBOROT

Ushbu bo'llim avtomobilingizdan uzoq yillarda davomida muvaffaqiyatli foydalanishni kafolatlaydigan texnik xizmat ko'rsatish jadvalini belgilab beradi.

Siz avtomobilingizning tegishlicha ishlashi uchun va ushbu qo'llanmada keltirilgan tavsiyalarga muvofiq uning ishlash qobiliyatini tutib turish uchun javobgar bo'lmasiz. Aks holda avtomobilidan foydalanishning kafolat muddati davomida kafolat xizmat ko'rsatilishidan mahrum bo'lmasiz.

Siz xizmat ko'rsatishning tegishlicha tarzda o'tkazilishi uchun va avtomobilingizdan foydalanish uchun javobgarsiz. Siz davriy xizmat ko'rsatish reglamentiga va ushbu qo'llanmadagi ko'rsatmalarga amal qilayotganingizga ishonch hosil qiling.

Shuningdek, Siz muntazam texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilishining yozuvlari va hisobotlari saqlanishi uchun javobgarsiz. Texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilishining yozuvlari va hisobotlari foydalanish qo'llanmasi va Servis kitobchasi bilan birga, avtomobilda saqlanishi kerak. Avtomobilni sotish paytida qo'llanmani uning yangi egasiga berishni unutmang.

Siz avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatishni vakolatlangan servis stansiyalarida o'tkazishingiz mumkin, ularning malakali xodimlari va texnik xizmat ko'rsatilishi barcha texnik xizmat ko'rsatish amallarining tegishli darajada bajarilishini ta'minlaydi.

Avtomobilni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish davomida faqat original ehtiyoj qismilari, foydalanish materiallari hamda diagnostika dasturlari va asboblar qo'llanishini

nazorat qiling. «UzAuto MOTORS» AJ original bo'limgan ehtiyoj qismilari va foydalanish materiallari o'rnatilgan avtomobil uchun kafolat bera olmaydi va xavfsizliginizi kafolatlay olmaydi, shuningdek ulardan foydalanish tufayli kelib chiqqan avtomobilning shikastlanishi uchun javobgar bo'lmaydi.

Avtomobilga to'g'ri va mos kelmaydigan, to'liq bo'limgan yoki yetarli bo'limgan texnik xizmat ko'rsatish avtomobilni boshqarishda muammolarga olib kelishi mumkin, ularning oqibatida avtomobilning shikastlanishi, baxtsiz hodisa yoki jarohatlarni olish kelib chiqishi mumkin.

Foydalanish sharoitlari

Siz avtomobilga davriy xizmat ko'rsatish reglamentiga qat'iy roya qilishingiz lozim. Servis kitobchasiida «TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLEMENTI» ga qarang.

Normal foydalanish sharoitlari

Avtomobilning normal foydalanish sharoitlari - bu avtomobilni boshqarish odatdag'i, har kungi foydalanish rejimida amalga oshiriladigan sharoitlar hisoblanadi.

Bunday sharoitlarda Siz avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni avtomobilga davriy xizmat ko'rsatishning odatdag'i reglamentiga amal qilgan holda o'tkazishingiz mumkin.

Og'ir foydalanish sharoitlari

Agar avtomobil quyidagi sharoitlarning istalgan birida foydalanisa, bunday sharoitlar og'ir hisoblanadi, va avtomobilga davriy xizmat ko'rsatish reglamentining amallari tezroq o'tkazilishi lozim bo'ladi.

Servis kitobchasiida «TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLEMENTI» ga qarang.

- 10 km dan kamroq bo'lgan qisqa masofaga tez-tez yurish.
- Avtomobilning uzoq vaqt turib qolishi va/yoki avtomobilning past tezlikda, tez-tez to'xtash rejimida yurishi.
- Avtomobilni chang ko'p bo'lgan joylarda boshqarish.
- Avtomobilni tepalikli joylarda va tog'li joylarda boshqarish.
- Tirkamani shatakkala olib yurish.
- Avtomobilni shahar rejimida, atrof muhitning harorati 32°C yoki undan yuqori bo'lganda boshqarish.
- Avtomobildan taksi, militsiya mashinasi yoki yuk tashuvchi sifatida foydalanish.
- Atrof muhitning harorati 0°C dan past bo'lganda dvigatelni tez-tez ishga tushirish.
- Avtomobildan tegishli bo'limgan xususiyatlari yonilg'i bilan, past sifatlari yonilg'i bilan va/yoki past oktan sonli yonilg'i bilan foydalanish. «TAVSIYA ETILADIGAN YONILG'I» ga qarang.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjalarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatlari tasdig'iga ega bo'lisingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
Xizmat qilish muddati, oylar		3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Generator, kondisionerning kompressori va RBG nasosining yuritmasi tasmasi		I	I	I	I	I	R	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatelning moyi va moy filtri	(1) (2)	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
Sovutish, yonilg'i ta'minot, moylash va konditsionirlash tizimining germetikligi (*)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatelning sovituvchi suyuqligi	(2) (3)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Yonilg'i filtri	(1) (2)	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I
Yonilg'i naylari va ulanishlari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Havo tozalagichning filtrlovchi elementi (IYD havo filtri)	(1) (2)	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R
O't oldirish svechalari	(2)	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I	R
EVAP bachok (yonilg'i bug'lanishini tutib qolish tizimi) va bug' naylari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
PCV tizimi (karterni shamollatishni boshqarish tizimi)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I

Belgilishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(3) Har bir 150 000 km. yoki 5 yil dan keyin almashtirish.

* Mazkur qo'llanmadagi yulduzcha bilan asosiy butlanishga kirmaydigan va Sizning avtomobilingizda bo'imasligi ham mumkin bo'lgan jihozlar belgilangan.

8-4 TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjalarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatlari tasdig'iga ega bo'lisingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi bira tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81	
Gaz taqsimlash mexanizmining yuritma zanjiri		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Salonning havo filtri (havo konditsioneri) (*)	(1)	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	I
Ishlangan gazlarni chiqarish tizimi va uni mahkamlash		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormoz suyuqligi (ilashish muftasi va tormoz tizimi)	(1) (2) (4)	I	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I
Oldingi tormoz kolodkalari va disklari	(5)	I	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I
Orqa tormoz kolodkalari va disklari, yoki barabanlari va ustki qoplamlari	(5)	I	I	I	I	I	I	I	I	R	I	I	I	I	I
To'xtab turish tormozi		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormozlarning naylari, ularning ularnishlari (shu jumladan tormoz kuchaytirgichi)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatel, harakat qismi, shassi va kuzovning rezbalni ularnishlarini tortib mahkamlash		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Mexanik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(2)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Avtomatik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(1) (2)														Quyidagi (6) havolaga qarang

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moyplash, foydalanim suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalansilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanim qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalinish sharoitlari bo'limga qarang;

(2) Foydalanim qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limga qarang;

(4) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalansilsa, har bir 15 000 km dan keyin yoki bir yilda s'ong foydalanim materialllarini almashtirish kerak bo'ladi:

- tepalikli yoki tog'li joylarda yurish yoki

- tirkuma bilan tez-tez yurish;

(5) Og'ir sharoitlarda foydalanimganda, tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi: qisqa masofalarga yurish, uzoq vaqt davomida dvigateli salt ishslash rejimida yurgizish, tez-tez yo'lda tibrandilikda tiquilib qolish sharoitida past tezlilikda yurish, tuproqli yo'llarda yurish.

(6) Avtomatik uzatmalar qutisida moyni almashtirish quyidagi sharoitlarda foydalanimshda:

- normal sharoitlarda har bir 140 000 km dan keyin;

- og'ir sharoitlarda har bir 70 000 km dan keyin talab etiladi;

* Mazkur qo'llanmadagi yulduzcha bilan asosiy butlanishga kirmaydigan va Sizning avtomobilingizda bo'imasligi ham mumkin bo'lgan jihozlar belgilangan.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjalarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iغا ega bo'lisingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'li, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Shinalarning holatlari va shinalardagi ichki bosim	Quyidagi (7) havolaga qarang														
G'ildiraklarni o'rnatish burchaklari	Tekshirish, normadan chetlanishlar mavjud bo'lsa														
Rul g'ildiragi va rul mexanizmi															
Rul gidrokuchaytirgichining ish suyuqligi, naylar va ularish naylari	(2)														
Xavfsizlik tasmalari, ularni kuzovga mahkamlash to'qalari va tugunlari															
Qulflar, oshiq-moshiqlar, kapot qulfini moylash, kuzovni tekshirish															
Avtomobilning diagnostikasi, ko'rsatkichilarini sozlash															
Elektr jihozlar, faralar, tozalagichlar, yuvish moslamalari, AKBni tekshirish															
Ilashish muftasi va tormoz pedallarining erkin yurishi															
Yonilg'i bakini tekshirish va tozalash															

Begilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limga qarang;

(7) Shinalarning holatini dvigatelni ishga tushirishdan avval, shinalardagi havo bosimini esa-yonilg'i bakiga har bir yonilg'i quyishda yoki, hech bo'lmasa, oyda bir marta (manometrdan foydalanib) tekshirish kerak.



ESLATMALAR

9


TEXNIK MA'LUMOT

- IDENTIFIKATSİYALASH RAQAMLARI 9-2
- MOYLASH KARTASI 9-3
- MOTOR MOYI 9-4
- CHIROQLARNING XUSUSİYATLARI 9-5
- AVTOMOBILNING TEXNIKAVIY XUSUSİYATLARI 9-6

IDENTIFIKATSIYALASH RAQAMLARI


Avtomobilning identifikatsiyalash raqami (VIN)

Avtomobilning identifikatsiyalash raqami VIN dvigatel bo'limi panelining yo'lovchi tomonida o'yib yozilgan.



Dvigatelning raqami


Dvigatelning raqami silindrlar bloki korpusining oldingi o'ng tomonida o'yib yozilgan.



S3W8021A

Mexanik transmissiyaning identifikatsiyalash raqami

Mexanik transmissiyaning identifikatsiyalash raqami karterning ustki tomonida joylashgan.




S3W8031A

MOYLASH KARTASI

**Avtomatik transmissiyaning
identifikasiyalash raqami**

Avtomatik transmissiyaning identifikasiyalash raqami uzatmalar qutisi karterining oldindi ustki tomonida joylashgan.



S3W8041A

Nomi	Hajmi	Tasniflash
Motor moyi (shu jumladan moy filtri)	1.5B DOHC	3,75L Dexos1 5W30
Dvigatelning sovutuvchi suyuqligi		5,8L DEX-COOL
Avtomatik uzatmalar qutisining moyi		8,365L DEXRON VI
Mexanik uzatmalar qutisining moyi		1,8L SAE 75W-90
Tormoz suyuqligi / ilashish uzatmasi muftasining suyuqligi		0,5L DOT 4
Rul kuchaytirgichining ish suyuqligi		1,1L DEXRON VI

MOTOR MOYI

Motor moyini tanlash

Motor moyini tanlashda ham moyning texnikaviy shartlarga muvofiqligini, ham uning quyishqoqligi darajasini hisobga olish lozim.

Motor moyining sifati

- dexos1, dexos2

Texnikaviy shartlar

dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lgan itsenziyalangan motor moyalarini sotib oling.

Ushbu avtomobilning talablariga javob beradigan motor moyalarida dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lishi lozim.

Bu belgi moy sifatining dexos™ spesifikatsiyasi talablariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Sizning avtomobilningizning motoriga ishlab chiqaruvchi zavodda dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lgan motor moyi quyilgan.

Faqat dexos™ sertifikatlash belgisi bo'lgan moylardan yoki tegishli quyishqoqligi darajasi bo'lgan shunga o'xshash sinfidagi moylardan foydalaning. Lekin, ma'lum sharoitlarda bunday moylardan foydalanan tortish-dinamik xususiyatlarining pasayishiga va motoring shikastlanishiiga olib kelishi mumkin.

Agar Siz moy dexos™ ning talablarga muvofiqligiga ishonch hosil qilmasangiz, o'z yetkazib beruvchingizga murojaat qiling.

Agar Siz o'z avtomobilingiz dvigatelining turini bilmasangiz, vakolatlangan servis markaziga murojaat qiling.

Motor moyining quyishqoqligi

SAE bo'yicha quyishqoqligi, moyning quyuqligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Universal moy ikkita kod bilan belgilanadi:

Undan so'ng W harfi keladigan birinchi kod, past haroratdagi quyishqoqligini, ikkinchi kod esa - yuqori haroratdagi quyishqoqligini belgilaydi.

Sizning avtomobilingiz uchun SAE 5W-30 quyishqoqligi bo'lgan moy eng mos keladigani. Boshqa quyishqoqlik sinfidagi, masalan, SAE 10W-30, 10W-40, 20W-50 sinfidagi moylardan foydalamaning.

Past haroratda foydalanish uchun

Havo harorati -25C dan pasayadigan sovuq mintaqalarda avtomobildan foydalanishda SAE 0W-xx quyishqoqligi bo'lgan moydan foydalanish lozim. Bu moy juda sovuq harorat sharoitida sovuq dvigateli ishga tushirishni yengillashtiradi.

Kerakli quyishqoqlikdagi moyni tanlashda dexos™ tamg'alanishi mavjudligiga e'tibor bering.

- -25-C gacha: 0W-20, 5W-30.
- -25-C gacha va undan past: 0W-20, 0W-30.

Motor moyiga qo'shimchalar / Yuvisht uchun mo'ljallangan moylar

Moya hech nima qo'shmang.

dexos spetsifikatsiyasiga mos bo'lgan va dexos sertifikatlash belgisiga ega bo'lgan tavsiya etilgan moylar – dvigatelning yaxshi ishlashi va himoyalanishi uchun kerakli bo'lgan narsalarning hammasidir.

Yuvisht uchun mo'ljallangan moylaridan foydalananish tavsiya etilmaydi, chunki ular kafolat bilan qoplanmaydigan dvigatelning buzilishini keltirib chiqarishi mumkin.

Motor moyini to'ldirib quyish



Agar ular kerakli texnik talablariga mos bo'lsa (va talab etiladigan quyishqoqlik darajasiga ega bo'lsa), turli ishlab chiqaruvchilarning, turli rusumlardagi motor moyalarini aralashtirishga yo'l qo'yiladi.

Talab etiladigan sifatdagi motor moyi bo'lmaganda, API SM/SN, ACEA A3/B4, ACEA A3/B3 yoki ACEA C3 sinfidagi moyning ko'pi bilan 1 litridan foydalananish mumkin (har bir moy almashtirishga ko'pi bilan bir marta).

Moy tegishli quyishqoqligiga ega bo'lishi lozim. Faqat ACEA A1/B1 sinfidagi yoki faqat ACEA A5/B5 sinfidagi motor moyidan foydalananish qat'iy taqilganadi, chunki ma'lum foydalananish sharoitlarida bu dvigatelning jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin.

CHIROQLARNING XUSUSIYATLARI

Chiroqlar		Quvvati x soni	Eslatmalar
Oldingi	1 Uzoq va yaqin yorug'lik chiroq'i	60/55 Vt x 2	Galogen chiroq
	2 To'xtab turish chiroq'i	5 Vt x 2	
	3 Burilish ko'rsatkichi	21 Vt x 2	
	4 Tumanga qarshi fara	35 Vt x 2	Galogen chiroq
	5 Burilish ko'rsatkichini takrorlovchi chiroq *	5 Vt x 2	
Orqa	6 Burilish ko'rsatkichi	21 Vt x 2	
	7 Stop-signal	21/5 Vt x 2	
	8 Tumanga qarshi chiroq / orqa gabarit chiroqlari	21/5 Vt x 2 yoki 21 Vt x 2	
	9 Orqaga yurish chiroqlari	21 Vt x 2	
	10 Orqa gabarit chiroq'i	21/5 Vt x 2	
	11 Yuqori markaziy stop-signal	5 Vt x 5	
	12 Davlat ro'yxat belgisini yoritish chiroq'i	5 Vt x 2	
Salon	13 Salonnii yoritish chiroq'i	10 Vt x 1	
	14 Yukxonan bo'lrimini yoritish plafoni	10 Vt x 1	



**AVTOMOBILNING
TEXNIKAVIY XUSUSIYATLARI**

Dvigatel (1.5 DOHC)	
Turi	4-silindrli/qatorli
Klapanlar	DOHC 16 klapan
Dvigatel hajmi (kub.sm)	1485
Tsilindr diametri va porshenning yurishi (mm)	74,7 x 84,7
Siqish darajasi	10,2 : 1
MAX quvvati (kVt/ayl.daq.) Yevro III	77/5,750
MAX quvvat (kVt/ayl.daq.) Yevro V	78/5650
MAX aylantiruvchi davr (Nm/ayl.daq.) Yevro III	140/4050
MAX aylantiruvchi davr (Nm/ayl.daq.) Yevro V	141/4200
Yonilg'i ta'minoti tizimi	Yonilg'ini purkab taqsimlash
Oktan soni	
O'zbekiston, MDH va Rossiya	RON 91 va undan yuqori
O't oldirish shamlari	Tirqish (mm)
	0,8 ~ 0,9
	Seriya (V-A-ch)
Akkumulyator batareyasi	Past haroratda qisqa vaqt davrida sovuq ishga tushirish (CCA)
Generator (V-A)	12 - 85
Startyor (V-kVt)	12 - 1,2

5-bosqichli mexanik uzatmalar qutisi (1.5 DOHC)		
Uzatma tizimi	Oldingi uzatma	
Uzatmalar qutisining uzatma sonlari	1-uzatma	3,727
	2-uzatma	1,952
	3-uzatma	1,276
	4-uzatma	0,971
	5-uzatma	0,763
	Orqaga yurish	3,545
	Asosiy uzatma	4,176

6- bosqichli avtomatik uzatmalar qutisi (1.5 DOHC)		
Uzatma tizimi	Oldingi uzatma	
Uzatmalar qutisining uzatma sonlari	1-uzatma	4,449
	2-uzatma	2,908
	3-uzatma	1,893
	4-uzatma	1,446
	5-uzatma	1,000
	6-uzatma	0,742
	Orqaga yurish	2,871
Asosiy uzatma	3,720	

Shassi			
Oldingi osma prujina		Makferson tirkagi	
Orqa osma prujina		Orqa balka	
Osma prujina burchaklari	G'ildiraklarning vertikal og'ishi	Oldingi shinalar	-24°±45'
		Orqa shinalar	-1°30'±30'
	Shkvorenning bo'ylama og'ish burchagi		2°30' ± 45'
	G'ildiraklarning musbat yaqinlashuv burchagi	Oldingi shinalar	4' ± 10'
		Orqa shinalar	15' ± 20'
	Turi		Reykalik, RGK
Rul boshqaruvi	Rul/mexanizmning umumiy uzatmalar soni		15,2 : 1
	Rul g'ildiragining diametri (mm)		380 (xavfsizik yostiqchasi bilan)
			370 (xavfsizlik yostiqchasisiz)
	Minimal burilish radiusi (m)		5,03

Tormoz tizimi	
Turi	Ikki konturli
Oldingi tormozlar	Diskli, shamollatiladigan
Orqa tormozlar	Barabanlar
Bittalik vakuumli kuchaytirgich	254 mm

Ilashish muftasi	
Turi	Bir diskli ilashish muftasi, quruq
Tashqi diametr (mm)	215
Ichki diametr (mm)	145
Qalinligi (mm)	8,3

Og'irligi, kg			
O'z vazni	Sedan 4 eshikli	M/T	1089 - 1164
		A/T	1115-1190
		M/T	1560
		A/T	1585
Avtomobilning to'liq vazni			

G'ildiraklar va shinalar					
Shinalar o'lchami	G'ildiraklarning o'lchami	3 tagacha yo'lovchigacha		Avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyati	
		Oldingi	Orqa	Oldingi	Orqa
185/60R14	5.5J x 14	210	←	210	←
185/55R15	6J x 15	210	←	210	←

Quyish hajmlari, L	
Yonilg'i baki	45
Motor moyi	3.75 (shu jumladan moy filtri)
Sovutuvchi suyuqlik	5

Dinamik xususiyatlari			
Maksimal tezligi (km/s)	1.5 DOHC	Mexanik uzatmalar qutisi	179
		Avtomatik uzatmalar qutisi	178

Tashqi gabarit o'lchamlari, mm		
Umumiyliz uzunligi	4 327	
Umumiyliz eni	1 713	
Umumiyliz balandligi	1 505	
G'ildirak bazasi	2 480	
G'ildirak izi	Oldingi shinalar	1 454
	Orqa shinalar	1 444